O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY nomidagi SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

"O`zbek tili"dan rus filologiyasi yo`nalishi talabalari uchun uslubiy qo`llanma

SamDU o`quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

S A M A R Q A N D — 2006

“O`zbek tili”dan rus filologiyasi yo`nalishi talabalari uchun uslubiy qo`llanma Samarqand, SamDU nashri, 2006, bet.

Filologiya fakultetlarining rus filologiyasi yo`nalishida ta’lim olayotgan talabalar “O`zbek tili” fanidan ko`proq nazariy bilimlar olish bilan chegaralanib qolmoqda. Chunki ularning bu fandan o`zlashtirgan nazariy bilimlarini amalda mustahkamlashlariga ko`maklashuvchi maxsus o`quv qo`llanmalari yaratilmagan. Mana shuni hisobga olgan holda tuzilgan mazkur o`quv qo`llanma talabalarning dars jarayonida va auditoriyadan tashqarida mustaqil bilim olish bilan shug`ullanishlariga imkon yaratadi. Uslubiy qo`llanmaga kiritilgan turli mavzulardagi matnlar bo`lg`usi filolog-o`qituvchilarning o`zbek tilidan ham og`zaki, ham yozma nutqlarining takomillashuviga, o`zbek tili, o`zbek xalqi tarixi, adabiyoti, san’ati, ilm-fani rivojida o`zining munosib o`rniga ega bo`lgan buyuk davlat arboblari, oluimlar, shoirlar-u yozuvchilar hayoti va faoliyati to`g`risida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo`lishlariga, dunyoqarashlarining yanada kengayishiga yordam beradi.

Tuzuvchi: katta o`qituvchi **Boltayev M.**

Taqrizchi: filologiya fanlari doktori,
professor **Turniyozov N.Q.**

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2006.

S O` Z B O SH I

O`zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida”gi qonuni hayotga tatbiq etilishi bilan oily o`quv yurtlarida ham ta’lim-tarbiya, ish yuritish sohalarida yangi alifbo va imlo qoidalarini joriy etishga kirishildi. Yangi alifboga o`tish yozuv-chizuv bilan shug`ullanuvchi barcha kishilarning yangi imlo qoidalaridan yetrlicha boxabar bo`lishlarini taqozo etadi. Yangi imlo qoidalarini chuqur o`zlashtirish uchun esa maktab, litsey, kollejlarning o`quvchilari, oily o`quv yurti talabalari yangi alifbo va imlo qoidalari asosida yaratilgan matnlar ustida ko`proq shug`ullanishlari lozim.

Talabalarning quyi o`quv yurtlarida o`zbek tilidan olgan nazariy va amaliy bilimlari hisobga olingan holda tuzilgan mazkur uslubiy qo`llanmaga biroz murakkabroq matnlar tanlab kiritildi. Unga kiritilgan matnlar shartli ravishda quyidagi qismlarga bo`lindi: 1. O`zbekiston Respublikasi va uning davlat ramzlari haqidagi matnlar. 2. An’anaviy matnlar. 3. Erkin mavzudagi matnlar. 4. Badiiy matnlar. 5. Ilmiy-ommabop matnlar. Shuningdek, unda lingvistik atamalarning o`zbekca-ruscha qisqacha lug`atining berilishi ham talabalarning matnlar ustida olib boradigan lingvistik tahlillarini qisman bo`lsa ham osonlashtiradi.

Mazkur uslubiy qo`llanmani tizishda O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining oliy va o`rta maxsus ta’lim, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi tomonidan 2004-yilda bakalavr yo`nalishi talabalari uchun “O`zbek tili” fanidan nashr ettirilgan namunaviy dastur hamda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi kafedrasi olimlari tomonidan oliy o`quv yurtlari rus guruhlari talabalari uchun tuzilgan “O`zbek tilidan o`quv dasturi” asos qilib olindi.

Matnlar respublika markaziy gazetalari sahifalaridan, ensiklopedik lug`atlar, amaldagi darslik va o`quv qo`llanmalari, ommabop nashrlar, badiiy va ilmiy asarlardan qisqartirilgan va ijodiy yondashilgan holda tanlandi. Qo`llanma boshqa oily o`quv yurtlari, kollej va litseylarning rus guruhlari talabalariga ham “O`zbek tili” fanidan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, darsda va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil bilim olish bo`yicha topshiriqlarni bajarilishlarida qo`l keladi.

Tuzuvchi.

O`zbekiston Respublikasi va uning ramzlari haqida matnlar

O`ZBEKISTON

O`zbekiston Respublikasi O`rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. U 447,4 ming kv. km. maydonni egallaydi. O`zbekistonning poytaxti Toshkent shahri bo`lib, davlat tili o`zbek tilidir. O`zbekiston 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil respublika deb e'lon qilindi. O`zbekistonning o`z bayrog`i, gerbi, madhiyasi, pul birligi, qurolli kuchlari bor. 1992-yil 8-dekabrda mustaqil davlatimizning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda O`zbekistonda yashovchi xalqlarning o`qish, mehnat qilish, dam olish va boshqa huquqlari kafolatlangan.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasini dunyoning barcha davlatlari tan oldi va ular bilan o`zaro elchixonalar ochilib, mustahkam aloqalar o`rnatilmoqda.

O`zbekiston yoshlari yangi ochilgan universitetlar, institutlar, kollej, litsey va boshqa o`quv yurtlarida ta'lim olmoqdalar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellarga borib kelmoqdalar.

Respublikamizda o`zbeklar bilan bir qatorda qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg`urlar, qirg`izlar, tatarlar, tojiklar, ruslar, yahudiylar va boshqa millat vakillari bir oila farzandlaridek yashaydi. Shuningdek, o`zbeklar ham yaqin qo`shni davlatlardan tashqari, Afg`oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy, Suriya, Iordaniya, Eron, Iroq, Birlashgan Arab Amirligi, Misr, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Italiya, Angliya, AQSH, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda yashaydilar.

O‘zbekiston qadimiy va boy tarixga ega. Har yili Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalarni ko‘rish uchun ko‘plab sayyohlar tashrif buyurishadi.

Bu yurtdan yetishib chiqqan Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ismoil Buxoriy, Zamaxshariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Rumiy kabi yuzlab qomusiy allomalarning ilmiy, ijodiy meroslari faqat O‘zbekistonda emas, butun dunyo ilm maskanlarida o‘rganilyapti.

Respublikamizda 12 viloyat, bir suveren respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo‘rg‘on va qishloqlar mavjud. Vatanimiz tuprog‘i bebaho konlarga boy, tabiati go‘zal, xalqi mehmondo‘st. Neft, gaz, ko‘mir, oltingugurt, ozokerit, osh tuzi, rux, qo‘rg‘oshin, mis, volfram, oltin konlari muntazam ishlab turibdi.

O‘zbekistonning asosiy ekini paxta va g‘alladir. Shuningdek, makkajo‘xori, meva, uzum, tamaki va poliz mahsulotlari ham ko‘plab yetishtiriladi. Keng yaylovlarda zotdor qo‘y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya podalari boqiladi. Pillachilik va polizchilik ham rivojlangan sohalardir.

O‘zbekiston sanoati rivojlangan mamlakatga aylanmoqda. Elektr quvvati ishlab chiqarish, paxta tozalash, ip, ipak va jun gazlamalar tayyorlash, meva-sabzavotlarni qayta ishlash, yog‘-moy kombinatlari, madaniy o‘g‘itlar ishlab chiqarish, turli xil traktorlar, mashinalar, samolyot, mebel, neftni qayta ishlash, ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

O`zbekiston o`tmishigina emas, kelajagi ham buyuk mamlakatdir.

O`ZBEKISTON RESIPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so`zi,
Mutal Burhonov musiqasi.

Serquyosh, hur o`lkam, elga baxt, najot,
Sen o`zing do`stlarga yo`ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod.
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar - jon O`zbekiston,
Ajdodlar- mardona ruhi senga yor!
Ulug` xalq qudrati jo`sh urgan zamon,
Olamlni mahliyo aylagan diyor!

Bag`ri keng o`zbekning o`chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo`r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni.
Haqsevar, ona-yurt, mangu bo`l obod!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar - jon O`zbekiston,
Ajdodlar- mardona ruhi senga yor!
Ulug` xalq qudrati jo`sh urgan zamon,
Olamlni mahliyo aylagan diyor!

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG`I

O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`i va uning ramzi bugungi O`zbekkiston sarhadida qadimda mavjud bo`lgan davlatlar bilan tarixan bog`liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o`zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqda aks etgan moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Geraldika tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog`ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo`lib, u kun charog`onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg`unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg`uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go`zallikka intilishning timsollari.

3. Yashil rang - tabiatning yangilanishi ramzi. U ko`pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar vujudimizda jo`shib oqayatgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog`liqdir. Ayni paytda qo`lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ruhoniy, ilohiy timsol sanalgan. O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o`n ikki yulduzga bo`lgan e'tiborimiz O`zbekistin sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida "Nujum ilmi" taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog`imizdagi o`n ikki yulduz tasvirini o`zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o`z tuprog`ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi xalqimizning ko`p asrlik milliy davlatchilik tajribasi asosida yaratildi.

O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o`ng tomonida bug`doy boshoqlari, so`l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug` ramzidir.

Gerb markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo`lgan afsonaviy humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, osoyishtalik, yaxshilik, baxt-saodat, eson-omonlik yo`lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog`ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandida “O`zbekiston” so`zi bitilgan.

“Gerb” so`zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot:

“Gerb” so`zi nemischa “Erbo” so`zidan olingan bo`lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho`zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O`g`uzxon davrida ham turkcha “Tamg`a” so`zi aynan shu ma’noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy “Tanlangan tarixlar” nomli kitobida shahodat berishicha, O`g`izxon o`z mol-mulkini o`g`illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo`lib, in’om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o`zlarining xonlik tamg`alariga ega edilar. Ko`rinib turibdiki, “Tamg`a” so`zining ma’nosi nemischa “Erbo” so`zining ma’nosiga to`la mos keladi.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

DAVLAT TILI HAQIDA

(yangi tahrirda)

I-modda. O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tilidir.

2-modda. O`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o`z ona tilini qo`llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O`zbek tilining O`zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog`iston Respublikasida amal qilishiga bog`liq masalalar, shuningdek Qoraqalpog`iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog`liq udumlarni ado etishda qo`llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o`z xohishlariga ko`ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O`zbekiston Respublikasida davlat tilini o`rganish uchun

barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo`lish ta’minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o`qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O`zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko`rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko`rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta’minlanadi.

6-modda. O`zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O`zbekiston Respublikasi davlat tillida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o`rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o`zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o`zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan unga hamma e’tirof qjlgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo`mitasining roziligi bilan o`zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O`zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladl.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi.

O`zbekistonda o`tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o`zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko`pchiligi o`zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkm.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o`sha joydagi ko`pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so`zlash huquqi ta’minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o`rtasidagi xo`jalik nizolarini

ko`rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo`llaniladi. Xo`jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko`rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O`zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko`ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo`lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O`zbeklston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’minlanadi.

15-modda. O`zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o`z millatidan qat’i nazar, o`z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo`natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko`ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg`alari, ish qog`ozlarining matnlari davlat tilida bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo`shma korxonalarning, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg`alari, ish qog`ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko`rgazmali hamda og`zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tillidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo`riqnomalar, etiketkalar bilan ta’minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko`chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o`zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O`zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o`zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga

oshirishga to`sqinlik qiluvchl shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo`ladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.

O`ZBEK TILI – DAVLAT TILI

O`zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIV asrga kelib mustaqil o`zbek adabiy tili darajasiga ko`tarildi. Faqat ushbu davrda turkiy til yoki turk tili kabi nomlar bilan atalib kelingangan. Hozir turkiy tillarda so`zlashuvchi turk, ozarbayjon, qozoq, qirg`iz, turkman, tatar, uyg`ur, qoraqalpoq, chuvash, yoqut, nug`ay, gagauz va boshqa xalqlar, shu jumladan, o`zbeklarning ajdodlari XI asrgacha qadimgi turkiy tilda gaplashgan. Qadimgi turk tilida yaratilgan O`rxun- Enasoy yodgorliklari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.

O`zbek tili asrlar davomida jamiyat hayoti bilan chambarchas bog`liq holda rivojlanib keldi. Bu tilda juda ko`p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratildi.

O`zbek adabiy tilining rivojlanishida buyuki shoir, mutafakkir olim Alisher Navoiyning xizmatlari juda katta. Alisher Navoiy o`zining badiiy va ilmiy asarlari bilan o`zbek tilining dunyodagi boy tillardan biri ekanligini nazariy isbotlab, amaliy jihatdan asoslab berdi.Alisher Navoiygacha Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy, Durbek, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi mashhur so`z ustalari o`zbek tilida ijod etishgan bo`lsa, undan so`ng bu tilda ijod etuvchilarning soni yanada ortib bordi. O`zbek adabiy tilining rivojida Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz O`tar, Usmon Nosir, Cho`lpon, Qodiriy, Oybek, G`.G`ulom, A.Qahhor va boshqa ko`plab shoir, yozuvchilarning xizmati kattadir.

1989-yil 21-oktabrda O`zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. O`zbek tiliga O`zbekiston Respublikasining davlat tili huquqi berildi. Har yili o`zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan 21-oktabr sanasi o`zbek tili kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. O`zbekistonning 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan mazkur Qonunning davrdan ortda qolayotgan ayrim moddalarini qayta tahrir qilishga to`g`ri keldi. 1995- yil 21-dekabrda "Davlat tili haqidagi" Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Qonun 24 moddadan iborat. Uning 1-moddasida O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tili ekanligi ta'kidlangan.

1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida" Qonun qabl qilindi. Mazkur qonunlarga binoan O`zbekiston Respublikasidagi barsha o`rta umumta`im maktablari, litseylar,

kollejlar, oily o`quv yurtlarida 2005-yil 1-sentabrdan davlat tilida yangi alifboda o`qish-o`qitish ishlari va ish qog`ozlari yuritishga to`liq o`tildi.

Mazkur Qonunlarga binoan respublikamizdagi maktablar, litseylar, kollejlar, oily o`quv yurtlarining boshqa tillarda ta'lim-tarbiya olub boriladigan guruhlari o`quvchilari va talabalariga ham o`zbek tili chuqur o`rgatilmoqda. Korxonalarda ham ish yuritish davlat tilida lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda olib borishga bosqichma-bosqich o`tilmoqda.

1995-yil 6-mayda o‘zgartishlar bilan qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi.

A a B b D d E e F f G g H h I i J j K k

L l Mm N n O o P p Q q R r S s T t U u

V v X x Y y Z z O` o` G`g` SH sh CH ch Ng ng

AN'ANAVIY MATNLAR

ALP ER TUNGA

Alp Er Tunganing miloddan oldingi VII asrda yashab o`tgan g`oyat jasoratli, g`ayrat-shijoatli, vatanparvar turk hukmdori bo`lganligi haqida ko`plab rivoyatlar mavjud. Forslar Alp Er Tungani Afrosiyob deb ataganlar. Afrosiyob va Alp Er Tunganing aslida bir kishi ekanligidan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig", Mahmud Koshg`ariyning "Devonu lug`otit turk" asarlari ham guvohlik beradi. Alp Er Tunga haqida xalq orasida doston ham yaratilgan bo`lib, bizgacha to`liq holda yetib kelmagan. Ayrim parchalar "Devonu lug`otit turk" asarida misol tariqasida keltirilgan. Unda tasvirlanishicha, Alp Er Tunga turk beklari orasida nomi mashhuri, baxt-

saodatlisi, katta bilim, ko`p hunar egasi bo`lgan hukmdordir.

Alp Er Tunganing ismi va qahramonliklari haqida turli tarixiy manbalar, badiiy asarlarda har xil fikrlar yuritilgan. Ammo bu manbalar Alp Er Tunganing shaxsi, hukmronlik qilgan davlati, yuritgan siyosati to`g`risida yetarlicha ma'lumot bera olmaydi.

Samarqandda Afrosiyob nomi bilan bog`liq shahar xarobalari saqlanib qolgan. Bu xarobalar Samarqandning miloddan oldingi VI asrdan melodiy XIII asrgacha bo`lgan hududi hamda o`sha davr hayotidan darak beradi. Afrosiyob xarobalaridan uy-joy qoldiqlari, turli-tuman ro`zg`or buyumlari, zargarlik bezaklari topilgan. Ayniqsa, Samarqand hukmdori saroyining xarobalari, uning devorlariga ishlangan ajoyib suratlar diqqatga sazovordir.

Alp Er Tunga vafoti haqida xalq orasida mashhur bo`lgan marsiyadan olingan quyidagi parchalar ham uning buyuk hukmdor bo`lganligidan dalolatdir:

Alp Er Tunga hoqon o`ldimi,
Yovuz ochun ortda qoldimi.
Falak undan o`chin oldimi,
Endi g`amgin yurak yonadir!

Zamon qurg`ur fursat poylaydi,
Unga maxfiy tuzoq shaylaydi.
Beklar begin yerga joylaydi,
Qochib qaydan imkon topadir?

Endi putur ketdi zamondan,
Ellar azob chekar yomondan.
Mehr-u shafqat kutma nodondan
Jahongir Er o`tar olamdan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndgi unlilarni talaffuzi va imlosiga ko`ra tahlil qiling.
3. Matn mazmunini o`zbek tilida va ona tilingizda gapirib bering.

S P I T A M E N

Spitamen O`rta Osiyo xalqlari tarixida Aleksandr Makedonskiyga qarshi ko`tarilgan xalq qo`zg`oloni rahbari sifatida nom qoldirgan. Qo`rqmas xalq qasoskori boshchiligidagi qo`zg`olonchilar makedoniyaliklarni ko`plab marta janglarda mag`lub etganlar.

Grek va Rim tarixchilari asarlarida Spitamenning qaysi shahar yoki qisloqdan ekanligi aniq yozilmagan. Ammo u asosan Politamet (Zarafshon) daryosi bo`ylarida, Maroqand (Samarqand) shahri atroflarida kechgan

voqealar tasvirida ko`plab tilga olinadi.

Aleksandr qo`shinlari qancha-qancha shaharlarni, yurtlarni osongina bosib olgan, ammo Sug`diyonani egallash ularga oson bo`lmaydi. Ular bu yerda xalqning qattiq qarshiligiga uchrab, ko`pdan-ko`p talofat ko`radilar. Spitamen boshchiligidagi jangchilar hech kutilmagan paytda va joylarda paydo bo`lishar, dushmanga qaqshatqich zarba berishar va yana tutqich bermay, qutulib ketishar edi. Spitamen jasur, farosatli, tadbirkor, ayni choqda juda hushyor va ziyrak edi. Uning qo`shinida O`rta Osiyoning mahalliy aholisi bo`lgan massagetlar, skiflar, daklar, saklar, sug`dlar o`zaro birikib harakat qilar edilar. Ular Spitamenni o`zlarining haqiqiy xaloskori deb bilardilar.

Spitamen boylikka qiziqmas, qo`lga tushgan o`ljalarni jangchilarga bo`lib berar edi. U nafaqat dushmanlarni, balki sotqinlik qilgan yurtdoshlarini ham ayamas edi. Spitamen Aleksandrga O`rta Osiyo qabilalarining nimalarga qodirligini amalda ko`rsatdi. Vatanini, xalqini sevishni, o`z qishlog`ini, shahrini, yurtini ardoqlashni o`rta osiyoliklardan o`rganish kerakligini isbotladi.

Spitamening o`limi haqida ham turli xil rivoyatlar mavjud. Ba’zi rivoyatlarda u o`z xotini tomonidan o`ldirilgan deyilsa, ayrimlarida sotqin qabiladoshilari tomonidan qatl etilgan deyiladi. Sharqning jasur, yengilmas, vatanparvar, mard o`g`loni Spitamenning nomi, uning dushmanga qarshi ko`rsatgan qahramonliklari necha asrlardan beri tildan-tilga, avloddan-avlodga o`tib kelmoqda. U haqida uning qahramonliklari haqida ko`plab badiiy asarlar yaratilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi undoshlarni talaffuzi va imlosiga ko`ra tahlil qiling.
3. Matn mazmunini o`zbek tilida va o`quv tilingizda hikoya qiling.

T O` M A R I S

Eng qadimgi zamonlarda Araks (Amudaryo) yoqalarida boshqa qabilalar qatori massagetlar ham yashar edi. Ularga marhum podshoning bevasi - malika To`maris boshchilik qilar edi. Tabiati go`zal bu yurtga va uning xalqiga egalik qilmoqchi bo`lgan Eron shohi Kir malika To`marisga uylanmoqchi bo`ladi. To`maris uning asl maqsadini fahmlab, taklifni rad etadi. Kir esa massagetlar yurtiga qo`shin tortib keladi. Malika To`maris uni mudhish niyatidan qaytarishga urinadi. Kirning o`z fikridan qaytmasligini bilgan To`maris uning o`z qo`shinlari bilan daryodan massagetlar yurtiga o`tishiga imkon beradi. To`maris o`z yurtdoshlari bilan daryodan uch kunlik yo`lga borib turadi. Kirning qo`shini massagetlar yurtiga o`tib olgach, urush tadbirlarini ko`radi. Kir hiyla ishlatib, To`marisning o`g`li Sparganisni

yigitlari bilan asir qilib oladi. Hiyla bilan asir tushganligini fahmlagan Sparganis uyatdan o`limni afzal ko``rib, o`zini o`ldiradi. Bu voqeadan xabar topgan To`maris Kirning qo`shini bilan urushga chiqadi.

Malika To`maris bosqinchi Kirga qarshi jangga borar ekan: “sening qonga tashnaligingni qondiraman”, deb ont ichadi.

Malika To`maris qo`shini bilan Kir jangchilari o`rtasida dahshatli to`qnashuv bo`ladi. Jangda o`z yurti, o`z ozodligi uchun o`limdan ham qaytmaydigan massagetlar g`olib chiqadi. Eron shohi Kir o`ldiriladi. Uning jangchilari qurol-aslahalarini tashlab qochadilar. O`z qasamiga sodiq malika To`maris esa ayovsiz jangda o`ldirilgan bosqinchi Kirning boshini kestirib, qon bilan to`ldirilgan meshga soldiradi.

O`z yurtini, xalqini sevgan, uning ozodligi uchun erkaklar kabi janglarda qatnashgan malika To`marisdek mard xotin-qizlar bu yurtda ko`plab o`tishgan. Shuning uchun ham xalq ularning qahramonliklari haqida qo`shiqlar, dostonlar, rivoyatlar to`qigan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`zlarning ma’no urg`usini aniqlang.
3. Matn mazmunini o`zbek tilida so`zlab bering.

S H I R O Q

O`rta Osiyo xalqlari qadim-qadim zamonlardan o`zlari tug`ilib o`sgan yurtni tashqi dushmanlardan mardonavor himoya qilganlar. Bu janglarda qo`shni qabilalar - skiflar, massagetlar, sug`dlar, saklarning qo`rquv nima bilmas yigitlari beqiyos mardlik va jasorat ko`rsatganlar. Tarixda ba’zan bir kishining butun bir qo`shinga bas kelgan hollari ham bo`lgan. Bunga oddiy cho`pon yigit Shiroqning ko`rsatgan qahramonligi misoldir.

Doro qo`shini bilan saklar o`rtasida qaqshatqich urush borar edi. Sak podachilaridan Shiroq o`z podsholari Sakesfor Omarg va To`marislar huzuriga kelib, Eron qo`shinini bir o`zi hiyla bilan halok etajagini aytadi. Buning evaziga podsholardan o`zining oilasi, bolalari, avlodiga g`amxo`rlik qilish to`g`risidagi va’dalarini oladi. Shundan so`ng Shiroq ular oldida o`zining quloq, burunlarini kesib, butun a’zoyi badaniga ozor yetkazadi. O`zini rosa qiynab, azoblangan holatga keltirgach, Eron qo`shinlari joylashgan tomonga ketadi.

Hamma yog`i qonga belangan Shiroq Eron shohi Doroga arz qilib, uni qabiladoshlari shunday ahvolga solganliklarini aytadi. U saklardan o`ch olish maqsadida Doro qo`shinini saklar yashiringan joyga boshlab borishga ahd qilganligini ma’lum qiladi. Unga ishongan Doro qo`shini bir haftalik oziq-ovqat, suv olib yo`lga tushadi. Uzoq yo`l yurgach Doro qo`shinining oziq-ovqatlari, suv va otlarga beradigan yemishlari tugaydi. Atrof esa suvsiz quruq

qum va hech narsa o`smagan sahro edi. Shunda Doro jangchilari jasur cho`pon yigit Shiroqning hiylasidan voqif bo`ladilar. G`azablangan dushman jangchilari uni qatl etadi.

Shunday qilib, cho`pon Shiroqning bir o`zi vatandoshlarini saqlab qoladi va bosqinchi Eron qo`shinining ochlik, suvsizlikdan qirilib ketishiga sabab bo`ladi.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi so`zlarni bo`g`inlarga bo`ling, satrdan-satrga ko`chirilmaydigan so`zlarni aniqlang.
3. Matn mazmunini og`zaki hikoya qiling.

URXUN-ENASOY BITIKLARI

O`zbeklar ham mansub bo`lgan turkiy xalqlarning tarixi juda qadimiydir. Turkiy xalqlar eng qadimgi davrlarda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha, Xitoydan Sibirgacha bo`lgan katta hududda yashaganlar. Buni hozirgi davrda turklar, o`zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg`izlar, tatarlar (qrim, qozon, boshqird, cho`lim), chuvashlar, ozarbayjonlar, gagauzlar, yoqutlar, uyg`urlar, qoraqalpoqlar kabi millatlar yashayotgan uzoq- yaqin hududlar ham tasdiqlaydi.

Turkiy xalrlarning qadimgi adabiy tili to`g`risida ma’lumotlar beruvchi ko`pgina nodir odibalar bizgacha yetib kelgan. Bu obidalar turli davrlarda hamda turli xil yozuvlarda bitilgan. Shunday obidalarning eng qadimiylari sirasiga qadimgi turk-run bitikalri kiradi. Ular asosan Urxun (Mo`g`iliston) va Enasoy (Rossiya) daryolari bo`ylaridan topilganligi uchun Urxun-Enasoy bitiklari deb yuritiladi. Ular - turk hukmdorlari, ularning qarindoshlari qabrlariga qo`yilgan toshlar, yog`och buyumlar va qoyalarga yozib qoldirilgan xatlardan iborat. Bunday yodgorliklar boshqa joylardan ham topilgan.

Turk hoqonligi tarixi haqida, turkiy adabiy til to`g`risida tarixiy ma’lumotlar beruvchi To`nyuquq, Bilga hoqon, Kul tigin, Ungin, Kuli chur, Moyin chur bitiktoshlarining ahamiyati juda katta. Ularda qahramonlik, vatanparvarlik, turkiylarning dushman qabilalar bilan kurashi, turk hoqonlarining o`z xalqi oldidagi xizmatlari, ularning donoligi, tadbirkorligi, jasurligi, harbiy yurishlari, muvaffaqiyat va mag`lubiyatlari, hokimiyatni mustahkamlash, qabila va urug`larni birlashtirish, o`zaro urushlarni tugatish uchun qilgan ishlari, ittifoq bo`lib yashash to`g`risidagi orzu va intilishlari g`oyat ta’sirli hikoya qilingan. Shu bilan bir qatorda, bu bitiklar o`sha davr turkiy tili, yozuvi, madaniy hayoti, urf-odatlarini o`rganish uchun ham muhim manba vazifasini o`taydi. Turkiy xalqlarning mazkur qadimiy yozuvi VIII

asrgacha amalda qo`llangan. Tarixiy manbalarda bu yozuv “Dulbarjin” yozuvi nomi bilan ham qayd etilgan. Bu yozuvda 41 ta harf bo`lib, 5 tasi unli, qolganlari undosh harflardir. U yuqoridan pastga yoki o`ngdan chapga qarab yozilgan hamda o`qilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi gaplarni so`z tarkibi bo`yicha tahlil qiling.
3. Matn mazmunini o`zbek va rus tillarida gapirib bering.

MUSO AL-XORAZMIY

Abu Abdullo Muhammad ibn al-Xorazmiy 783-yili Xorazmda tug`ilgan. U dastlabki ma’lumotni ona yurtida olib, ilmiy kuzatishlarini o`sha davr ilm markazi bo`lgan Bag`dodda davom ettirgan. Bag`dodda O`rta Osiyodan borgan o`nlab mashhur olimlar faoliyat ko`rsatar edi. Tabiiy fanlarni chuqur o`rgangan Muso Xorazmiy o`zining ilmiy salohiyati bilan tez orada bu olimlarning nazariga tushadi, nodir asarlari bilan peshqadam va yo`lboshchisiga aylanadi.

Qomusiy olim yaratgan o`nlab asarlardan bizgacha faqat o`ntasigina yetib kelgan. Xorazmiy dunyo faniga ulkan hissa qo`shgan olimdir. U algebra fanining asoschisi hisoblanadi. “Algebra” so`zi uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo`lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o`nlik pozitsiyon hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga asos bo`lgan. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “algoritm” shaklida fanda abadiy o`rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o`nlab geografik asarlarning yaratilishiga asos bo`ldi. Xorazmiyning “Zij”i Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo`lini ko`rsatib berdi.

Buyuk qomusiy olim Xorazmiy Xalifa al-Ma’mun asos solgan ilmiy markaz “Bayt ul-hikma”ning mudiri sifatida ulkan ilmiy kuzatishlarga rahbarlik qildi. Bu ilmiy markazda Suriya, Iroq, Eron va boshqa joylardan kelgan olimlar ham faoliyat ko`rsatishgan bo`lsa-da, O`rta Osiyodan borgan olimlar ko`pchilikni tashkil etgan.

Xorazmiyning eng yiirik astronomik asari uning “Zij”idir. Asar 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Unda Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakati, tezligi, geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari, matematik geografiya, trigonometriya, munajjimlik va boshqa shu kabi o`ta dolzarb muammolar ilmiy asoslab berilgan. Olimning bu asariga Farg`oniy, Al-Hoshimiy, Beruniylar juda yuksak baho berishgan.

Xorazmiyning geografiyaga oid “Kitob surat-ul-arz” asarida shaharlar, tog`lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatalari keltiriladi. Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to`la rioya etgan

holda birinchi marta Xorazmiy bayon qilib bergan. U yerning insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Uning geografik risolasi o`rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Olimning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda geografiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Biroq bu asar shu paytgacha hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan edi. 1983-yili olimning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan O`zbekistonda bu asarning o`zbekcha tarjimasi uning "Tanlangan asarlar"i tarkibida nashr etildi.

O`zining qomusiy bilimi va yaratgan nodir asarlari bilan o`z davri olimlarining cheksiz hurmat-e'tiboriga sazovor bo`lgan Muso al-Xorazmiy 850-yili Bag`dodda vafot etgan.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g`arb va sharq tillariga tarjima etilgan. U o`z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o`z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug`i, o`z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi. Uning nomiga Eron, Turkmaniston, O`zbekiston va boshqa mamlakatlarda mukofotlar, medallar ta'sis etilgan, muassasalar, korxonalar va ko`chalarga nomi qo`yilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`z yasovchi qo`shimchalarni aniqlang.
3. Matn mazmunini og`zaki hikoya qiling.

AHMAD FARG`ONIY

To`liq nomi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg`oniy O`rta Osiyodan yetishib chiqqan olimlar ichida mashhurlaridan biri bo`lib, taxminan 797-yili tavallud topgan. Uning hayoti va ijodiy-ilmiy faoliyati haqida juda kam ma'lumotlar yetib kelgan.

Hozirgacha al-Farg`oniyning sakkiz asari ma'lum bo`lib, ularning hammasi astronomiya ilmiga bag`ishlangan va birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Uning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinganidan so`ng, uning nomi "Alfraganus" shaklida G`arbda keng tarqalib, katta shuhrat tutadi. Uning kitobi Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o`taydi.

Yevropa uyg`onish davrining namoyandalaridan biri bo`lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarini al-Farg`oniy kitoblaridan o`qigan. Qomusiy olimning nomi Dante va Shiller asarlarida ham hurmat bilan tilga olinadi.

Ahmad Farg`oniyning vafot etgan yili ham aniq emas. O`sha davrda yaratilgan asarlarda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, taxminan 865-yilda vafot etgan degan xulosaga kelingan.

Ahmad Farg`oniyning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" (bu kitobni "Astronomiya asoslari haqida kitob" deb ham yuritganlar) asari astronomiyadan eng sodda darslik bo`lib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlang`ich ma'lumotlarni o`zlashtirishni ancha osonlashtirgan. Shuning uchun ham Regiomontan universitetlardagi ma'ruzalari uchun asosiy manba sifatida shu kitobni tanlagandir.

Ahmad Farg`oniyning mazkur asari Yevropa Uyg`onish davrida va undan keyingi davrlardagi madaniyat, ilm rivojida alohida o`ringa ega bo`ldi. Ayniqsa, asarning iqlimlar nazariyasiga ko`ra bayon qilingan geografik bo`limi diqqatga sazovordir. Unda yetti iqlimning hammasi, ulardagi mamlakatlar, viloyatlar, shaharlar batafsil bayon etiladi. Iqlimlarning al-Farg`oniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiynikidan farq qiladi. Uning mufassal tavsifi orqali VIII asrda mavjud bo`lgan mamlakatlar, shaharlar va yerning tabiiy sharoitini o`rganishimiz mumkin.

Ahmad Farg`oniyning nomi al-Xorazmiy kabi butun Sharq va G`arbda mashhurdir. O`rta asrlarda, tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo`shgan qomusiy olim sifatida ilmiy-tarixiy manballarda, so`nggi g`arb va sharq olimlari asarlarida, O`zbekistonda zo`r g`urur va iftixor bilan tilga olinadi, asarlari o`rganiladi. Uning nomini abadiylashtirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Topshiriqlar:

4. Matnni tarjima qiling.
5. Matnda qo`llangan shakl yasovchi qo`shimchalarni aniqlang.
6. Matn mazmunini o`zbek va rus tillarida og`zaki hikoya qiling.

HADISCHI VATANDOSHLARIMIZ

Hadis - islom dini ta'limoti bo`yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Unda Muhammad payg`ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek, uning diniy va axloqiy ko`rsatmalari bayon etiladi. Mana shunday ko`rsatmalar to`g`risidagi rivoyatlarga hadis deyiladi.

Hadis ilmining olti yirik targ`ibotchilaridan uchta eng mashhuri vatanimizdan yetishib chiqqan olimlardir. Bular - Dorimiy as-Samarqandiy (797-868), Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom at-Termiziy (824-892).

Muhammad payg`ambarning hayoti, faoliyati, uning diniy va axloqiy qarashlari bayon etilgan hadislarni og`zaki an'analardan kitob holiga keltirish VIII asrdan keng avj oladi. Bu davrga kelib islom olamining turli joylaridan

hadis ilmining yirik targ`ibotchilari va mualliflari yetishib chiqadi. Ana shunday mashhur hadischilar ichida vatandoshimiz, favqulodda noyob iste'dod egasi Imom Buxoriy eng oldingi o`rinda turadilar.

Imom Ismoil al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. U 10 yoshidan hadis ilmiga ishtiyoq sezib, eshitgan har bir hadisni yodlab borgan. 16 yoshga yetganida o`sha davrning eng mashhur hadischi olimlarining hadis to`plamlarini yod olgan. Imom Buxoriy 18 yoshida "Qazoyi as-sahobat vat-tobi'in" ("Sahobatlar va tobi'in masalalari") va "Tarixi kabir" ("Katta tarix") kitoblarini Madinada - Muhammad payg`ambarning maqbarasi yonida yashab turib yozgan. Makka, Madina shaharlaridan tashqari, Shom, Qohira, Basra, Kufa, Bag`dod kabi rivojlangan madaniyat markazlariga boradi, olimlardan ta'lim oladi, toliblarga dars beradi.

Imom Buxoriy bir eshitgan darsini bir umr xotirasiga muhrlab olish qobiliyatiga ega edi. U chet el safarlaridan qaytgach, Buxoro ulamolari undan tahsil ola boshlaydilar. Ammo Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhayl bilan orasi buzilib, Samarqandning Xartang qishlog`idagi qarindoshlarinikiga ko`chib keladi. Ulug` hadischi olim Imom Ismoil al-Buxoriy 870-yil 10-sentabrda 62 yoshda vafot etadi. Uning yashab vafot etgan joyi - Samarqand viloyati Chelak tumanida Xo`ja Ismoil nomi bilan mashhur ziyoratgoh bor. Uni ziyorat etish uchun dunyoning barcha musulmon mamlakatlaridan har yili minglab ziyoratchilar kelib turishadi. Imom Buxoriydan axloq-odob, din va madaniyatga oid o`nlab qimmatli asarlar meros qoldi. Uning "Al-Jomi' as-sahih" ("Ishonarli to`plam") nomli 4 jilddan iborat hadislar to`plami islom olamidagi boshqa mualliflar tuzgan hadis to`plamlari orasida eng ishonarli va eng mukammalidir. Unga mavjud 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli hadislar kiritilgan.

Imom at-Termiziy 824-yili Termiz shahrida tug`ilgan. Yoshlik chog`laridan ilmga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qaraydi. Samarqand, Buxoro, Marv, Termiz va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi mashhur ulamo va hadischi olimlarining asarlarini qunt bilan o`rganadi. U hadis o`rganish maqsadida islom dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qiladi. Hijoz, Iroq, Xuroson va boshqa joylarda mashhur hadischi, ulamolar bilan muloqotda bo`ladi, ulardan ta'lim oladi. Imom Termiziy ham umri davomida ko`plab asarlar yozib, islom dini haqida, payg`ambar Muhammad alayhissalom to`g`risida ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning asarlari ham Muhammad alayhissalom to`g`risida mukammal ma'lumot beruvchi eng muhim qo`llanmalardandir.

Hadislar faqat diniy xarakterga ega bo`lib qolmasdan, ularda tarbiya, axloq, odob, o`zaro do`stona munosabatlar, qarindoshlar, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibatlari, halollik, poklik, adolat, insof-diyonatni targ`ib qilish, razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat,

yolg`onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg`ulari o`z ifodasini topgan. Hadischi vatandoshlarimizning amalga oshirgan ishlari musulmon olami uchun ulkan ahamiyatga ega.

RASULULLOH ALAYHIS SALOM AYTADILAR:

Chaqirilgan joygagina boring.

Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonlik-larning kalitidir.

Dunyodan o`tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar.

O`lim kelmasidan burun tayyorgarligingizni ko`rib qo`ying.

Nonni e'zozlanglar.

Garchi Xitoyda bo`lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo`minga farzdir.

Beshta narsadan oldin beshta narsani g`animat biling: o`limdan oldin tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin bo`sh vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni g`animat biling.

Avvalo onangga, yana onangga, va yana onangga, so`ng otangga yaxshilik qil.

Ayollarga erkaklar o`z tug`ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo`lishlari kerak.

Taomning barakasi - undan oldin va keyin qo`l yuvishdir.

Barcha balo tildandir.

Mo`minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so`rasa berish, aksa ursa javob aytish, kasal bo`lsa borib ko`rish, o`lsa borib dafinida qatnashish.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do`zaxga mahkumdir.

Pashsha kallasichalik narsa berib bo`lsa-da, gadoyni quruq qaytarmanglar.

Qabristonni ziyorat qilib turinglar, zero, u sizlarga oxiratni eslatadi.

O`lib ketganlarni haqorat qiluvchi odamlar o`zi halokatga yaqindir.

Uyiga mehmon qo`nmaydiganlar yomon odamlardir.

So`zda sehr bor, she'rda hikmat bor.

O`lim dahshatli hodisadir. Qachonki tobutni ko`rsalaringiz darhol (hurmat yuzasidan) o`rinlaringizdan turing.

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o`rtalaringda mehr-u muhabbat uyg`onur.

Qur'onni o`qib unga amal qilinglar. Undan uzoqlashib ham ketmanglar, uning ma'nosiga chuqur ma'no berarman deb xato va mubolag`aga berilib ham ketmanglar. Uni tirikchilik vositasi qilib olib, mol-u dunyo orttirishga ham o`tmanglar.

Iloji boricha odamlarni oliy jazoga tortmaslikka harakat qilinglar. Lekin

oliy jazolar ham butunlay bekor qolmasin.

Rashk imondandir. Rashksizlik munofiqlik alomatidir.

Kimki hayotda tejamkor bo`lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

Ilmni o`rganib, so`ng uni boshqalarga o`rgatmaslik go`yoki mol-u dunyoni yig`ib, uni sarf qilmay, ko`mib qo`yish bilan barobardir.

Kimki otasining vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istasa, uning yor-u birodarlari bilan aloqani uzmasin.

Ko`rgan-bilgani haqida guvohlik berishdan bosh tortgan odam yolg`on guvohlik bergan bilan barobardir.

Topshiriqlar:

1. Matnni hamda Muhammad payg`ambarning o`gitlarini tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`z o`zgartuvchi qo`shimchalarni aniqlang.
3. Matn mazmunini hamda berilgan hadislarni o`zbek va rus tillarida gapirib bering.

F O R O B I Y

Abu Nasr al-Forobiy 873-yili Shosh (Toshkent) shahriga yaqin qishloqda harbiy turkiy oilada tug`ildi. U boshlang`ich ta’limni Shosh va Buxoro shaharlarida olib, boshqa shaharlarda mashhur olimlardan tahsil olishni davom ettirdi. U Bag`dodda falsafiy ilmlarni, ayniqsa yunon olimlarining falsafiy merosini, ko`plab boshqa fanlarni chuqur egalladi. Forobiy ko`p yillar Damashqda yashab, ilm bilan shug`ullanadi va 950-yili shu yerda vafot etadi.

Forobiy matematika, tibbiyot, astronomiya, kimyo, mantiq, musiqashunoslik, falsafa va boshqa fanlarga doir 160 dan ortiq ilmiy meros qoldirgan. Ammo ularning atigi qirqqa yaqini bizgacha yetib kelgan.

Forobiy asarlarida ijtimoiy masalalar - jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, davlatni boshqarish usullari, san’at, musiqa, etika, siyosat, psixologiya, tabiatshunoslik hamda falsafaga doir nodir ilmiy qarashlar keng yoritilgan. Forobiy tarixda Aristoteldan so`ng “ikkinchi muallim” deb tan olingan olimdir. Uning asarlari XII asrdan boshlab qadimgi yahudiy va lotin tiliga, keyinroq ingliz, fransuz, nemis, fors, turk, rus, urdu, o`zbek, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Forobiy arab mamlakatlarida mashhur arab mutafakkiri sifatida e’zozlansa, Turkiyada mashhur turkiy olim sifatida yuksak qadrlanib kelingan. Forobiy til o`rganishdan, kitob mutolaa qilishdan hech charchamagan. Ma’lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilda erkin so`zlashgan. Bir asarni tushunib yetmagunicha yuz marta o`qishdan ham zerikmagan.

Forobiy Aristotelning barcha falsafiy, tibbiy, ilmiy-nazariy asarlariga, Ptolomeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiziyning ruh va

psixologiyaga oid, Evkledning geometriyaga, Galenning tibbiyotga, Platon va Gippokratning asarlariga ilmiy talqinlar yaratgan. XII-XIII asrlarning yirik tarixchisi Boyhaqiy: “Abu Nasr o`z ta’limoti evaziga “ikkinchi muallim” deb nom olgan. Islomda unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas”, deb yozgan edi.

1970-71-yillarda Forobiyning ona yurti - O`rta Osiyoda uning 1100 yillik qutlug` sanasi keng nishonlandi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag`ishlangan xalqaro anjumanlar o`tkazilib, ko`plab ilmiy ishlar, kitoblar nashr etildi. Hozirgi paytda uning ilmiy merosi oliy o`quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida chuqur o`rganilmoqda.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`zlarni so`z turkumlari bo`yicha tahlil qiling.
3. Matn mazmunini o`zbek va rus tillarida gapirib bering.

ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973-yili Xorazmda tug`ildi. Beruniy yashagan davr Xorazmning va butun O`rta Osiyoning arablar hukmdorligidan ozod bo`1gan paytiga to`g`ri keladi. U dastlabki chuqur va keng qamrovli ma’lumotni Xorazmning yirik madaniyat hamda savdo markazi Urganch shahrida oladi. Beruniy arab, sug`diy, fors va qadimgi yahudiy tillarini yaxshi bilgan. U buxorolik buyuk olim Abu Ali ibn Sino bilan yaqin do`st bo`lib, ilmiy aloqada bo`lgan. Beruniy 18 yoshidan boshlab Xorazm rasadxonasida ilmiy kuzatishlar olib borgan. 19 yoshida esa “Ajdodlarimiz xotirasi” nomli birinchi asarini yozgan. Shohlarning o`zaro urushlari iste’dodli olimning bir joyda yashab, ilmiy ishlar bilan shug`ullanishiga to`sqinlik qilgan. U o`z yurtidan uzoqlarda - Bag`dodda, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yashab, dunyo ilm ahlini hayratda qoldirgan ilmiy asarlarini yaratgan.

Beruniy barcha ko`rgan narsalari va kuzatgan hodisalari, olib borgan ilmiy ishlari asosida 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ularda matematika, astronomiya, fizika, geografiya, kartografiya, umumiy geologiya, mineralogiya, botanika, farmakologiya, tibbiyot, iqlimshunoslik, etnografiya, tarix, falsafa, filologiya kabi ko`plab fanlarga oid qimmatli ilmiy xulosalar yoritilgan.

Beruniy birinchi bo`lib Yerning Quyosh atrofida aylanishini aytgan. Yer aylanasining uzunligini aniqlab bergan. Uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarida ko`pgina xalqlarning islom dinigacha bo`lgan tarixi, madaniyati, kalendarlari haqida ajoyib ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning “Hindiston” asari Hindistonning ilk o`rta asrlar tarixiga doir muhim

manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yili 75 yoshda vafot etdi. Beruniy o`zining o`lmas asarlari bilan jahonning eng buyuk olimlari safidan o`rin oldi. U sharqda birinchi bo`lib Yerning shar shaklida ekanligini aniqladi, eni 5 metr keladigan globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi. Oy va Quyoshning tutulishi sabablarini izohladi, dunyoning qaerida qanday boyliklar borligini aytib berdi. Uning asarlari dunyoning ko`pgina tillariga tarjima qilingan hamda ko`plab nusxalarda nashr etilgandir. Buyuk olimning tug'ilganiga ming yil to`lishi butun jahon fani va madaniyati tarixidagi katta voqea sifatida keng nishonlandi.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan kelishiklarni tahlil qiling.
3. Matn mazmunini o`zbek va rus tillarida so`zlab bering.

ABU ALI IBN SINO

Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro shahri yaqinidagi Afshona (hozirgi Peshku tumani) qishlog`ida tug`ildi. Uning bolalik va o`smirlik yillari Buxoro shahrida o`tdi. U yoshligidanoq o`z davrining buyuk olimlari asarlarini o`qib-o`rgangan. 16 yoshida ilm-fanning ko`pgina sohalarini egallab iste'dodli tabib sifatida taniladi. Og`ir dardga chalingan Buxoro shohi Mansurni davolab, buning evaziga shohning boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi. Yosh tabib bu yerda o`z bilimini yanada boyitadi.

Ibn Sino Buxoroda uzoq yashamadi. Zamonning notinchligi tufayli u Urganch, Nishopur, Hamadon, Ray, Isfahon kabi shaharlarda yashashga majbur bo`lgan. Ibn Sino zamonasining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy bilan tanishadi va ular orasida do`stlik hamda ilmiy aloqa bog`lanadi.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matemetik, faylasuf va shoir sifatida dunyoga mashhur olimdir. U umri davomida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Uning asarlari tibbiyot, yulduzlar ilmi, matematika, kimyo, geografiya, musiqa, falsafa, mantiq, psixologiya va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag`ishlangandir. Ibn Sinoni mashhur qilgan asari "Tib qonunlari"dir.

Ibn Sinoning 5 qismdan iborat "Tib qonunlari" kitobi ko`p asrlar davomida Yevropa va qator Sharq mamlakatlarida tibbiyotdan asosiy darslik bo'lib keldi. Bu asar juda ko`p tillarga tarjima qilinib, ming-minglab nusxalarda nashr etilgan. Faqatgina lotin tilida 30 martacha nashr etilganligi ma'lum.

Butun kuch-g`ayratini ilmga bag`ishlagan, xalq xizmati yo`lida o`z sog`ligini o`ylamagan buyuk mutafakkir olim 1037-yil 18-iyun kuni olamdan o`tdi. 1980-yil butun insoniyat qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning 1000

yillik qutlug` sanasini keng nishonladi. Uning asarlari qayta-qayta nashr etilib, xalqqa yetkazilmoqda. Uning muborak nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi.

IBN SINO SHE'RLARIDAN NAMUNALAR

Otalik xizmati nimadir bilsang:
Bor-yo`g`in farzandga bermak beminnat.
Lek otadan o`pka qilmasun farzand,
Zamona keltirsa boshiga kulfat.

Qaro yer qa'ridan to avji Zuhal -
Koinot mushkulin barin qildim hal,
Ko`p mushkul tugunni angladim, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.

Olamning sayriga qo`ydimki qadam,
Qarshimda namoyon bo`ldi har ne bor.
Hayratimda qo`lim tutgan soqoldan
Boshqa biror narsa bo`lmadi oshkor.

May mastga dushman-u hushyorga yordir.
Ozi taryok, ko`pi bir zahri mordir,
Ko`p bo`lsa zarari oz emas uning,
Oz bo`lsa undan ko`p manfaat bordir.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`zlarni o`zak, negiz, qo`shimchalarga ajrating, ularning turlarini aniqlang.
3. Matn hamda she'r mazmunini o`zbek va rus tillarida og`zaki hikoya qiling.

MAHMUD KOSHG`ARIY

Turkiy tillarni o`rganishga asos solgan mashhur olim Mahmud ibn Muhammad Koshg`ariy XI asr boshlarida Balasog`unda dunyoga keldi. Uning bobosi asli qoshg`arlik bo`lib, Balasog`unga ko`chib kelgan edi. Mahmud Koshg`ariy yoshligidanoq ilmga qiziqdi. U til va adabiyot ilmiga alohida muhabbat bilan qarardi. Dastlab Qoshg`ar, keyin Samarqand, Buxoro, Nishopur, Marv va Bag`dodda tahsil oladi. U turli ilmlar bilan shug`ullanadi. Mahmud Koshg`ariy fan olamiga tilshunos olim sifatida kirib keldi. Davrining eng iste'dodli olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg`ariy turkiy tillarga bag`ishlab ikki nodir asar yozib qoldirgan. Uning "Turkiy tillarning sintaksis durdonalari, qoidalari" nomli asari hozirgacha topilgani yo`q. Uning nomini olamga tanitgan "Devonu lug`otit turk" nomli ikkinchi asari 1914-yili Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.

“Devonu lug`otit turk” asari 1076-77-yillarda yozib tugallangan. Olim yashagan davrda ilmiy asarlarni arab tilida yozish an’anaga aylangan edi. Shunga ko`ra bu asar turkiy tillar haqida bo`lishiga qaramay, arab tilida yozilgandir. Asar muqaddima va lug`at qismlaridan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sabablari, ish usuli, lug`atning tuzilishi, turkiy qabilalar haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Lug`at qismida esa olti mingdan ziyod turkiy so`zlarning lug`aviy ma’nolari arab tilida izohlangan. Undagi so`zlar va grammatik xususiyatlar boshqa turkiy tillar qatori o`zbek tiliga ham aloqadordir. Bu asar faqat tilshunoslar uchun muhim manba bo`lib qolmasdan, turkiy tillar tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi, tabiiy sharoiti, etnografiyasi, og`zaki ijodi to`g`risida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Mahmud Koshg`ariyning hayoti va ilmiy merosi haqida juda kam ma’lumotlar yetib kelgan. Uning “Devonu lug`otit turk” asari nemis, turk va o`zbek tillarida uch tomlik kitob holida nashr etilgan. Respublikamizda katta tilshunoslik instituti, korxonalar, maktablar va bir qancha ko`chalar buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg`ariy nomi bilan ataladi.

“DEVONU LUG`OTIT TURK”DAN NAMUNALAR

Bordi qadim donolar,
Tog`day yuksak bilimda.
Eslab o`gitlarini
Quvonch ortar dilimda
Buzildi bu zamonlar,
Avj oldi ko`p yomonlar.
Kamayib bilimdonlar,
Ilm-u hikmat yo`qoldi.
Kelsa birov yo`qlashib,
Bergil yaxshi ozuq, non.
Qarg`ab ketar mehmonlar,
Kutar bo`lsang gar yomon.
Boqmas jahon sovuq so`z,
Shilqim, yuzsiz baxilga.
Yoqimli bo`l, xushxilq bo`l,
Qolsin noming ko`p yilga.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan olmosh turkumiga oid so`zlarni morfologik tahlil qiling.
3. Matn hamda she’r mazmunini og`zaki hikoya qiling.

YUSUF XOS HOJIB VA AHMAD YUGNAKIY

Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillarida Balasog`unda (Qirg`izistonning hozirgi To`qmoq shahri yaqinida) tug`ilgan. U yoshligidan boshlab fors-tojik, arab tillarini, badiiy adabiyotlarni, astronomiya, geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya kabi fanlarni qunt bilan o`rgandi. Yusuf Xos Hojib turkiy qabila va xalqlarning tilini chuqur o`rgandi. U adabiy til uchun, turkiy tilning madaniy hayotda yanada kengroq o`rin olishi ichun kurashdi. Xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotning tajriba hamda an'analaridan ilhomlanib, mashhur "Qutadg`u bilig" ("Saodatga yo`llovchi bilim") dostonini yaratdi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati to`g`risida hozirgacha "Qutadg`u bilig"dan boshqa biror tarixiy manbada ma'lumot yo`q. "Qutadg`u bilig" turkiy tilda yaratilgan qadimiy katta hajmli badiiy asardir. Doston o`z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar deb baholangan va turkiy "Shohnoma" deb yuritilgan. Doston 6500 bayt - 13000 misradan iborat bo`lib, 73 bobga bo`lingan. Uning mavzulari rang-barang. Asarda oddiy xalq, mehnatkash insonlar, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar katta hurmat bilan tasvirlangan.

"Qutadg`u bilig" jahonning ko`plab xalqlari tillariga tarjima qilingan. Asar O`zbekistonda 1971-yilda to`liq holda nashr etilgan. Bu asar XI asrda O`rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan turkiy xalqlar hamda qabilalar tilining muhim yodgorligi sifatida katta ahamiyatga egadir.

Turkiy tilda yaratilgan qadimiy yirik didaktik asar "Hibatul - haqoyiq" ("Haqiqatlar armug`oni")ning muallifi Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati haqida oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ahmad Yugnakiy iste'dodli shoir va donishmand murabbiy bo`lgan. U o`z dostonida ilm-fanni yoqlaydi, olimlar va fozillarni ulug`laydi, ma'rifatparvarlikni targ`ib qiladi, kishilarni ilmli, ma'rifatli bo`lishga chaqiradi, johillikka qarshi kurashadi. "Hibatul - haqoyiq" dostoni 235 baytdan iborat bo`lib, 11 bobni tashkil etadi. Asarning badiiy tilini "Qutadg`u bilig" bilan qiyoslab o`rganish orqali uni XII asrda yaratilgan deb taxmin qilish mumkin. "Hibatul - haqoyiq" dostoni ham qadimgi turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorliklaridan hisoblanadi.

SAVDOGAR - NOMINGNI ELGA YETKAZAR

("Qutadg`u bilig"dan)

Bundan bo`lak guruh qoldi - savdogar,
Savdo bilan tinmay olar foydalar,
Ularda bo`lar bu olam orzusi,
El - yurt go`zalligi, sara, ezgusi,
Tug`ardan Botarga yetkazib qadam,
Tilagan tilaging yetkazar bekam.
Turli - tuman noyob, olam tansig`i

Bularda bo`lar, ey bilimdon, saxiy.
Bo`lmaganda edi bu el barisi,
Qaydan kelar edi suvsar terisi.
Xitoy karvoni tug` tikmasa agar,
Qaydan yetar edi ipak - shohilar.

YUSUF XOS HOJIB o`gitlari:

Odamni til ulug`laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi. Til qafasda yotuvchi arslon kabidir, qafasdagi g`addor vahshiy boshingga yetishi hech gap emas.

So`zlaringga ehtiyot bo`l, boshing ketmasin, tilingni tiyib tut, u tufayli tishing sinmasin.

Odam tug`iladi va o`ladi, uning so`zi qoladi, inson o`ladi, uning nomi mangu qoladi, buni unutma.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan egalik qo`shimchalarini tahlil qiling.
3. Matnning, savdogarlar haqidagi she’rning mazmunini og`zaki hikoya qiling.
4. Yusuf Xoc Hojib hikmatlari ahamiyatini tushuntiring.

AHMAD YASSAVIY

Turkiy tasavvuf she’riyatining atoqli vakili Ahmad Yassaviy Turkistonning Sayram qishlog`ida, taxminan 1103-yilda tug`ilgan. 7 yoshida otasi Shayx Ibrohim vafot etadi. U ilk tahsilni Yassida turk mashoyixi Arslonbobdan oladi. Arslonbob vafot etgach, tahsilni Buxoroda Yusuf Hamadoniy qo`lida davom ettiradi. 1140-yil Yusuf Hamadoniy vafot etgandan so`ng Ahmad Yassaviy o`z yurtiga qaytib keladi. U qolgan umrini Yassida ijod va toat-ibodat bilan o`tkazadi.

Ahmad Yassaviy to`rt yarim mingga yaqin hikmatlar yozib qoldirgan. Uning she’riy hikmatlari “Devoni hikmat” nomli kitob holida bizgacha yetib kelgan. Ahmad Yassaviy butun umrini, ijodini dunyoning o`tkinchiligini, bu dunyo haqiqiy dunyoga borish oldidan sinov ekanligini, inson abadiy umrga erishishi oldidan gunoh qilmasligi lozimligini, barcha taqdirlash va jazolashlar oxiratda bo`lishini barchaga yetkazishga bag`ishlaydi. Uning bunday g`oyalari singdirilgan hikmatlari butun musulmon olamida beqiyos shuhrat qozondi. Shuning uchun ham “Madinada - Muhammad, Turkistonda - Xo`ja Ahmad” degan ibora xalq orasida keng tarqalganligi bejiz emas.

Ahmad Yassaviyning hikmatlari xalq tilida, sodda, ixcham, tushunarli va ta’sirchan yozilgan. Bu hikmatlar o`zbek tili tarixida qadimgi yozma obidalarning yuksak namunasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Yaqin vaqtlargacha Ahmad Yassaviy hikmatlari reaksion ruhda yozilgan deb nohaq baholanib, ilmiy va amaliy jihatdan yetarli o`rganilmadi. Vaholanki, Ahmad Yassaviy o`z hikmatlarida kishilarni imonli, vijdonli, hayoli, iboli, mehnatkash bo`lishga chaqiradi, zolimlikni, haromxo`rlikni, ig`vogarlikni, manmanlikni, tekinxo`rlikni va boshqa illatlarni qoralaydi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ahmad Yassaviy 1166-1167-yillar atrofida vafot etgan.

Buyuk sohibqiron Amir Temur hazrat Ahmad Yassaviy qabri ustida maqbara qurdirgan. Bu maqbara Amir Temur qurdirgan binolar ichida betakror va g`oyat go`zalligi bilan mashhurdir. Unda 35 xona bo`lib, ularning har biri o`ziga xos bezatilgan. Doshqozonxona va machit devorlari oltin suvi bilan bezatilgan, yonuvchi toshchalar bilan naqshlangan. Devorlarning tashqi tomonlariga ham go`zal va sirli bezaklar chizilgan. Bezaklar orasiga “Qur’on” oyatlari naqsh etilgan. Xonalarga ulkan quyma shamdonlar o`rnatilgan. Eshiklar fil suyaklari va boshqa qimmatbaho bezaklar bilan jilolangan. Qozog`iston hududida bo`lgan bu maqbara hozir ham musulmon olamining diqqat - e’tiboridadir. Har yili Ahmad Yassaviy qabrini minglab - millionlab kishilar ziyorat qilishadi.

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARI

Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o`taro,
Inonmag`il molingga, bir kun qo`ldan ketaro.
Ota-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,
To`rt ayog`lig` cho`bin ot bir kun sanga yetaro.

Dunyo uchun g`am yema, Haqdin o`zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo`lmaydur yo`ldosh,
Mardona bo`l g`arib bosh, umring yeldek o`taro.
Qul Xoja Ahmad toat qil, umring bilmom necha yil,
Asling bilsang, obi gil, yana gilga ketaro.

Nafs yo`liga kirgan kishi rasvo bo`lur,
Yo`ldin ozib, toyib gumroh bo`lur,
Yotsa, qo`psa shayton bila hamroh bo`lur,
Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdod.

Nafsing seni oxir damda gado qilg`ay,
Din uyini g`orat qilib ado qilg`ay,

O`lar vaqtda imoningdan judo qilg`ay,
Oqil ersang nafsi baddin bo`lg`in bezor.

* * *

Banda bo`lsang manmanlikni zinhor tashla,
Saharlarda joning qiynab tinmay ishla,
Yo`ldan ozg`an gumrihlarni yo`lga boshla,
Bir nazarda dillarini safo qildim.

Chin dardlikka o`zim dori, o`zim darmon,
Ham oshiqmen, ham ma'shuqmen, o`zim jonon,
Rahm aylayin otim Rahmon, zotim subhon,
Bir nazarda botinlarin safo qildim.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda hamda Ahmad Yassaviy hikmatlarida qo`llangan fe'llarni morfologik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini og`zaki hikoya qiling.
4. Ahmad Yassaviy hikmatlari mazmunini o`quv tilingizda hikoya qiling.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075-yil 19-martda Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog`ida dunyoga keldi. Otasi savodli taqvodor, diyonatli kishi bo`lib, qishlog`idagi masjidda imomlik qilgan. Mahmud dastlabki bilimini otasidan oladi. U og`ir illat tufayli yoshligidanoq bir oyoq bo`lib qolaqi va yog`ochdan yasalgan oyoq bilan yuradi. O`g`lidagi ilmga bo`lgan zo`r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi. Madrasani tugatib, bilimini yanada boyitish uchun Buxoroda o`qishni davom ettiradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo`r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o`qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallaydi. Xattotlik san'atini mukammal o`rganadi.

Mahmud Zamaxshariy 1118-yili og`ir dardga chalinadi. Bu kasallikdan tuzalgach, hukmdorlar xizmati-yu mansab va mol-dunyo tamasidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag`ishlaydi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Shom, Bag`dod, Hijoz va ikki marta Makkada bo`ladi. Bu yerlarda dunyo ilmining ulug` bilimdonlaridan turli fan sirlarini o`rganadi, ilmiy ishlarini davom ettiradi, arab tili grammatikasi, lug`ati, mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o`rganadi, geografiyaga doir ma'limotlarni to`plash

bilan shug`ullanadi. Olim ko`p asarlarini Makkadaligida yaratgan. Shu bois u Jorulloh (“Ollohning qo`shnisi”) degan sharafli nomga muyassar bo`ladi. U uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o`stirishdan a’lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va 1144-yil 14-aprelda vafot etadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug`atshunosligi, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o`rin egallaydi. Uning “Al-Mufassal” asari arab tili morfologiyasi va sintaksisini o`rganishda yirik qo`llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G`arbda ham katta shuhrat topgan asarlaridan hisoblanadi. O`sha davrning o`zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozondi va arab tilini o`rganishda asosiy qo`llanmalardan biri sifatida keng tarqaldi.

Az-Zamaxshariy o`zining “Muqaddimat ul-adab” asarida ham o`sha davr arab tilining iste’molda bo`lgan barcha so`zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e’tibor qilgan. Bu asar fors, o`zbek, mo`g`il, turk, fransuz, nemis tillariga tarjima etilgan. S. Ayniy 1921-yili “Mehnatkashlar tovushi” gazetasiga yozgan maqolasida “Az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari o`zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir”, deb yozgan edi.

Az-Zamaxshariy “Tog`lar, joylar va suvlar haqida kitob” asarida geografik joylar, tog`lar, dengizlar haqida ma’lumot beradi, “Notiqlik asoslari”da lug`atshunoslik, arab tilining fasohati, mukammalligi haqida, so`z va frazeologik birikmalari haqida, “Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”da adabiyot, tarix va boshqa fanlarga doir hikoyolar, latifalar, suhbatlarni keltiradi, “Aruzda o`lchov”, “Nihoyasiga yetgan masalalar”, “Maqomlar”, “Nozik iboralar” asarlarida adabiyotshunoslik, lug`atshunoslikka oid muammolar haqida fikr yuritadi. “Qur’on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so`zlar ko`zlarini ochish” asari Qur’on tafsiriga bag`ishlangan. Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy universitetining talabalari hozir ham az-Zamaxshariyning mana shu asari asosida Qur’onni o`rganadilar.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va ilm-fanning turli sohalariga oid o`lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan “Ustoz ul-arab va-l-ajam” (“Arablar va g`ayri arablar ustozi”) “Faxru Xvarazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar munozaralarida uning fikri inobatga olingan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.

2. Matnda qo`llangan turdosh otlarni aniqlang va ularning lug`atini tuzing.
3. Matnning mazmunini og`zaki hikoya qiling.

BAHOVUDDIN NAQSHBAND

Naqshbandiya tasavvufiy tariqatining asoschisi Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshband 1318-yilda Buxoro yonidagi Qasri Hinduyon qishlog`ida tug`iladi. Keyinchalik bu qishloq uning sharofati bilan Qasri Orifon deb atala boshlaydi. Mutasavvuf olim Xoja Muhammad Boboi Samosiy bu qishlloqda Bahovuddin Naqshbandning tug`ilishini oldindan bashorat qiladi. U tug`ilgach esa o`ziga o`g`il qilib oladi va tarbiyalaydi. Vafoti oldidan ishonchli shogirdi Sayyid Mir Kulolga topshiradi.

Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriy ravishda faqirlik yotadi. Shunga binoan Bahovuddin Naqshband umri bo`yi dehqonchilik bilan, o`z hunari bilan kun kechirgan. O`ziga tegishli katta bo`lmagan yeriga bug`doy va mosh ekar ekan. Uyida ham hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo`yra ustida yotib kun kechirgan. Uyida xizmatkor ham saqlamagan. Hazrati Naqshband butun umrini o`z xohishi bilan faqirlik va yo`qsillikda o`tkazgan. U o`zining "Dil ba yor-u, dast ba kor" - ya'ni "Ko`ngling ollohda bo`lsin, qo`ling esa mehnatda" degan aqidasiga qat'iy amal qilgan. Shuning uchun ham o`z qo`l kuchi bilan kun ko`rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini yetim yesirlarga, beva-bechoralarga tarqatgan. Hukmdorlardan doimo o`zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon tamagirlik qilmagan. Bahovuddin Naqshband 1389-yili vafot etgan bo`lsa-da, uning tariqati musulmon mamlakatlari bo`ylab keng tarqala bordi.

XIV asrda O`rta Osiyoda paydo bo`lgan Naqshbandiya ta'limoti Afg`oniston orqali Hindistonga va boshqa mamlakatlarga tez tarqaldi. Naqshbandiya ta'limoti Amir Temurning mo`g`ullar istilosiga qarshi kurashida, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishida, temuriylar davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etdi.

XV asrning ko`p olim-fozillari, davlat arboblari, san'atkorlari Naqshbandiya ta'limotidan keng foydalandilar, unga o`ta ijobiy munosabatda bo`ldilar. Zahiriddin Muhammad Bobur davrida, undan keyingi XVI-XVII asrlarda bu jarayon ancha tezlashdi. Bu ta'limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo`rlikni, ijtimoiy zulm, istibdodni qat'iyan qoralaydi. Bu ta'limot tarafdorlari tarkidunyochilikka, boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi bo`lganlar, faqat o`z qo`l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun o`tkazishga chaqirganlar. Naqshbandiylar savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-ma'rifat,

xattotlik, naqqoshlik, miniatyurasozlik, quruvchilik kabi foydali va xayrli yumushlar bilan shug`ullanishga da'vat etganlar. Shuning uchun ham o`z davridagi ilm-ma'rifatning, adabiyotning yirik namoyandalari bo`lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxtumquli Firog`iy singari yuzlab ulkan taraqqiyparvar, insonparvar shoir va mutafakkirlar Naqshbandiya yo`lini tanlaganlar, hayotni va insonni avji baland pardalarda kuylab, ijod etganlar.

Xoja Bahovuddin Naqshbandni O`rta Osiyo xalqlari juda yuksak qadrlaydilar. Xalqimiz ul hazratga baland e'tiqod qo`yib, "Bahovuddin - balogardon", deb uni behad e'zozlaydi. 1993-yilda O`zbekistonda Bahovuddin Naqshbandning 675 yilligi zo`r tantanalar bilan o`tkazildi, unga bag`ishlab qator asarlar nashr etildi, xalqaro ilmiy anjumanlar bo`lib o`tdi. Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog`liq bo`lgan yodgorliklar qaytadan tiklandi.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan sifat turkumiga oid so`larni morfoiogik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida gapirib bering.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR

Sohibqiron (baxtli bo`lib tug`ilgan, yulduzi charaqlagan) Amir Temur ibn Tarag`ay Muhammad Bahodir 1336-yil 9-aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahrida barlos urug`ining nufuzli begi oilasida tug`ilgan. U amaldor oilasida tug`ilganligi tufayli dastlab maktabda, so`ng madrasada o`qib, o`z davrining barcha ilmlaridan bahramand bo`lgan. Ayniqsa, Qur'on-u hadislarni, fiqh, falakiyot, handasa, riyoziyot, tarix va jug`rofiya ilmlaridan chuqur xabardor bo`lgan. She'riyat va shatranjni sevgan. Amir Temurni harbiy ta'lim ko`proq qiziqtirgan. O`rta Osiyoda mo`g`illar zulmiga barham bergan Amir Temur 1370-yili Movarounnahr amiri deb e'lon qilinadi va Samarqand shahri u tuzgan yangi davlatning poytaxti bo`lib qoladi.

Amir Temur feodal tarqoqlikka barham berib, o`rta asrlarning eng yirik davlatini barpo etdi. Uning ulkan davlati sarhadiga Turon, Eron, Rum(Onado`li), Mag`rib, Suriya, Misr, Iroqi Arab, Iroqi Ajam, Mozandaron, Qeylon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Buyuk Tatariston, Xorazm, Xo`tan, Qobuliston, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Oq O`rda, Gurjiston, Armaniston, Oltin O`rda - jami 27 mamlakat kirar edi.

Amir Temur o`z davlatini adolat bilan boshqardi. U saltanat ishlarini olib borishda 5 asosiy manbaga tayanadi: mashvarat, shariat, to`ra-tuzuk, diplomatiya va qattiqqo`llik. Mojar olimi Herman Vamberi o`zining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" kitobida "...Temurni Chingiz ila bir safga

qo`yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir", - deb haqiqatni yozgan edi. Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiy jihatdan kuchaydi, fan va madaniyat rivojlandi. Xalq hayoti uchun zarur qurilishlar, madrasa ta'limi uning e'tiborida bo`ldi. U o`zi zabt etgan mamlakatlarning podsholarini yana taxtga o`tqazgan yoki zurriyotidan podsho tayinlagan. Saltanatning tashqi va ichki siyosatida noiblar, beklar, umuman amaldorlar ustidan qat'iy nazorat o`rnatgan.

Sohibqiron Amir Temurning davlat va qo`shinni boshqarishga bag`ishlangan "Temur tuzuklari" nomli kitobi dunyoga mashhur. Tuzuklar Amir Temurning o`z davri uchun davlat Konstitutsiyasi edi. Bu asar ko`pgina sarkarda va davlat arboblari uchun muhim qo`llanma vazifasini o`tab kelgan.

Amir Temurning 4 o`g`li va 2 qizi bo`lgan: G`iyosiddin Jahongir, Umarshayx, Jaloliddin Mironshoh, Shohruh, Og`a begim, Sulton Baxt begim. Amir Temur avlodlaridan ulug` davlat arboblari, mashhur olimlar, iste'dodli shoirlar yetishib chiqqan.

Sohibqiron Amir Temur hayotining so`nggi kunlari qabuliga shahzodalar, amur-u ulamolarni chaqirib shunday vasiyat qiladi: "O`g`illarim, millatning ulug` martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o`qing, aslo unutmang va tadbiq eting. Millatning dardiga darmon bo`lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo`ring, yo`qsillarni boylar zulmiga tashlamang. "Adolat va Ozodlik" dasturingiz, rahbaringiz bo`lsin ..."

Amir Temur 1405-yil 18-fevral kuni O`tror shahrida shamollashdan vafot etadi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi sohibqiron Amir Temur o`z poytaxti Samarqand shahrida qurilgan Go`ri Amir maqbarasiga, ustozi Mir Sayid Barakaning oyoq uchiga dafn etilgan.

Sohibqiron Amir Temur haqida chet ellarda ham, mamlakatimizda ham yuzlab badiiy va ilmiy asarlar, filmlar yaratilgan, haykallar o`rnatilib, muzeylar tashkil etilgan. Uning tug`ilganligiga 660 yil to`lishi munosabati bilan 1996-yil O`zbekistonda "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Toshkent va Samarqandda, tug`ilgan yurti-Sahrisabzda unga mahobatli haykallar o`rnatilib, muborak qadamjolari, maqbara va machitlari ta'mirlandi, ziyoratgoh joylari ko`paytirildi.

"TEMUR TUZUKLARI"DAN

"Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o`zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo`lishga intildim".

"Hech kimdan o`ch olish maqomida bo`lmadim. Tuzimni totib menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Ish ko`rgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko`ngli buzuq

qo`rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim”.

“Kimniki huzurimga kiritgan bo`lsalar va ko`zim unga tushgan bo`lsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg`a-in’omlar bilan kuzatsinlar. Har qanday odam mening adolat devonimda panoh topgan ekan, gunohi bo`lsa ham kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi yana gunoh qilgudek bo`lsa, u chog`da gunohiga yarasha jazolasinlar”.

“Qaysi bir sipohiy tuz haqqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o`z sohibidan yuz o`girib, mening oldimga kelgan bo`lsa, unday odamlarni o`zimga eng yomon dushman deb bildim”.

“Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholar adolat o`rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo`qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatining sharofati bilan mamlakatni zolimning qo`lidan tortib olib, odil podshoga topshiradi”.

“Yana amr qildimki, g`anim tomondan bizning qo`limizga har qanday sipohiy asir bo`lib tushsa, uni o`ldirmasinlar, unga ixtiyor bersinlar. Agar navkarlikni qabul qilsa, navkar qilsinlar, yo`qsa uni ozod etsinlar. Bunga misol men (Qaysar bilan urushda) to`rt ming rumlik askarni ozod qildim”.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan fe’llarni aniqlang, ular tarkibidagi shaxs-son qo`shimchalarini tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida gapirib bering.
4. “Temur tuzuklari”dan keltirilgan parchani tarjima qiling va mazmunini o`quv tilingizda gapirib bering.

LUTFIY

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda “Malik ul-kalom” - “So`z podshosi” hisoblangan Lutfulloh Lutfiy 1366-yilda tug`ilgan. Manbalarda uning 99 yil umr ko`rganligi qayd etilgan.

Mavlono Lutfiy XIV-XV asrlardagi o`zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi bo`lib, o`zining o`zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so`z san’atkoridir.

Lutfiy boshlang`ich tahsildan keyin madrasalarda o`z davrining dunyoviy bilimlarini chuqur egallaydi. Shihobiddin Xiyoboniydan tasavvuf tariqatlarini ham o`zlashtirdi. Lutfiy yoshligidan adabiyotga qiziqqan. U turkiy tildagi asarlar bilan bir qatorda, fors va arab tillaridagi adabiyotlarni ham qunt bilan o`rganadi. O`zi ham she’rlar bita boshlaydi. Uning she’rlari sodda so`zlar yordamida yuqori badiiy bo`yoqlarda jaranglashi bilan ajralib turadi.

Lutfiyning ona tilidagi lirik asarlardan iborat devoni o`z davridayoq Xuroson va Movarounnahrdan tashqarida yashovchi turkiy tilda so`zlashadigan ko`pgina o`lkalarga ham tarqalgan. Uning devoni Sharq she'riyatining yetakchi janrlaridan bo`lgan g`azal, ruboiy, tuyuq, qit'a va fardlarni o`z ichiga oladi.

Lutfiy devonidan o`rin olgan lirik asarlarning yetakchi mavzusi - ishqdir. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo`lib aks ettiradi. Bu asarlarda ishqning dunyoviy talqinlari yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan. Shoir lirikasida ancha keng o`rin tutgan dunyoviy mavzular diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg`unlashib, bir-birini to`ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil etadi.

Hassos shoir lirikasida hayot zavqlari, tabiat go`zalliklaridan bahramand bo`lish, shodlik va tarona ohanglari bilan bir qatorda inson qadriyati va uning orzu umidlarini oyoq osti qiluvchi kuchlardan ozurdahollik kayfiyatlari ham seziladi. Lutfiy g`azallari aruzning rang-barang bahrlarida yozilgan bo`lib, hajm jihatidan juda ixchamdir. Shoir g`azallarida aruzning xalq qo`shiqlariga yaqin turgan ohangdor, o`ynoqi o`lchovlarini tanlaydi. Xalqning jonli so`zlashuv tilidagi erkalash, yupatish, qarg`ish, istehzo, qochiriq iboralaridan mahorat bilan foydalanadi.

Lutfiyning ruboiy, qit'a, tuyuq va fardlarida kishi ruhiy olamining rang-barang lahzalari, axloq-odob mavzularining talqinlari asosiy o`rin tutadi. Lutfiy ijodi faqat o`zbek adabiyotining keyingi rivojiga katta ta'sir etib qolmasdan, qo`shni mamlakatlarning ham adabiyoti rivojida alohida o`rin tutgan.

Lutfiy 1465-yilda Hirot yaqinidagi Dehikanor qishlog`ida vafot etgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan sifat va ravish turkumiga oid so`zlarni morfologik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini so`zlab bering.

MIRZO ULUG`BEK

Sohibqiron Amir Temurning to`rtinchi o`g`li Shohruh mirzoning to`ng`ich farzandi Muhammad Tarag`ay 1394-yil 22-mart kuni Sultoniya shahrida dunyoga keladi. Amir Temur nevarasi Muhammad Tarag`ayni g`oyat ziyrak, zehnli bo`lganligi hamda unga otasining ismi qo`yilganligi uchun uni Ulug`bek, ya'ni beklarning ulug`i, kattasi deb ataydi.

Ulug`bek 1411-yil oktabrda Movarounnahr va Turkiston sultoni bo`lib, o`ttiz to`qqiz yil hukmronlik qildi. Otasi vafotidan so`ng temuriylar sulolasining boshlig`i bo`lib qoldi.

Ulug`bek yoshligidan ilmga qiziqadi, ko`p vaqtini saroy kutubxonasida

o`tkazadi, tarix va she’riyat bilan shug`ullanadi. Astronomiya uning eng yaxshi ko`rgan fani edi.

Ulug`bek harbiy yurishlarni unchalik yoqtirmaydi. Uning harbiy yurishlari yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarni bartaraf etishga qaratilgan edi. U ko`p vaqt ilm-fan bilan shug`ullangan, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, machit-u madrasalar qurish bilan band bo`lgan. O`z hukmronlik yillarida zamonasining ko`pgina mashhur olimlari, shoirlarini Samarqandga to`playdi. Samarqand, Buxoro va G`ijduvonda o`sha davrning oliy o`quv yurtlari - madrasalar qurdirdi. “Bibixonim” masjidi, “Go`ri Amir” maqbarasi, “Shohizinda” ansambllari ham Ulug`bek zamonasida nihoyasiga yetdi. 1420-1429- yillari butun dunyoga mashhur rasadxona qurdirdi. O`sha davrda va hatto undan keyin ham Ulug`bek qurdirgan rasadxonadek ilm maskani dunyoda bo`lmagan. Ulug`bek bu yerda birinchi o`zbek akademiyasini tashkil etib, uning nomini butun dunyoga mashhur qilgan “Ziji Ulug`bek” (“Ulug`bek jadvali”)ni yaratdi. Ulug`bek bir guruh olimlar bilan birgalikda o`zidan avvalgi astronomlarning ishlarini qayta tekshirib, ularga katta aniqliklar kiritdi. Ulug`bek “Ziji”ning astronomiya tarixi uchun ahamiyati beqiyos va bebahodir. Sayyoralar, Quyosh, Oy harakatlari to`g`risidagi yulduzlar jadvali va qo`llanilgan matematik usullarga ko`ra bu kitob o`rta asrlarda yozilgan astronomik asarlarning eng mukammalidir. Ulug`bek jadvali g`oyat aniqligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda astronomiyaning nazariy asoslari bilan bir qatorda, 1019 yulduzning holati ham ifodalangan.

Ulug`bekning bu asari eng avvalo musulmon mamlakatlarida astronomiyaning rivojlanishiga ulkan ta’sir ko`rsatdi. XVII asrdan boshlab Yevropa olimlari o`z tadqiqotlari darajasi aniqligini unga solishtirib bilganlar. Bu asar o`rta asrlar astronomiyasininggina emas, balki matematikasining ham yuqori cho`qqisi edi.

Ulug`bek “Zij”dan tashqari “Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola”, “Risolai Ulug`bek”, “To`rt ulus tarixi” kabi nodir ilmiy asarlar ham yozib qoldirgan. Ular ham hozirgi zamon fanlari uchun katta ahamiyatga egadir.

Buyuk olim, davlat arbobi Mirzo Ulug`bek 1449-yil 25-oktabr kuni 56 yoshda Samarqand yaqinidagi kichik bir qishloqda vahshiylarcha qatl etiladi. Mirzo Ulug`bek ham Samarqanddagi Go`ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Muhammad Tarag`ay-Mirzo Ulug`bek insoniyat tarixida ulug` sulton sifatida o`chmas iz qoldirmagan bo`lsada, tengsiz astronom va matematik olim sifatida jahoniy shuhrat topdi. Shuning uchun tavalludiga 600 yil to`lishi munosabati bilan 1994-yil O`zbekustonda Ulug`bek yili deb e’lon qilindi.

Ulug` mutafakkir shoir Alisher Navoiy Mirzo Ulug`bekni quyidagicha madh etgan:

Temurxon naslidin sulton Ulug`bek,

Ki olam ko`rmadi sulton aningdek.
Oning abnoyi jinsi bo`ldi barbod,
Ki davr ahli biridan aylamas yod.
Valek ul ilm sori topdi chun dast,
Ko`zi olinda bo`ldi osmon past.
Rasadkin bog`lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki ondin yozdi “Ziji Ko`ragoniy”.
Qiyomatga deguncha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan son va olmosh turkumiga oid so`zlarni morfologik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini so`zlab bering.

ALISHER NAVOIY

Eski o`zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, ulug` mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot (Hozirgi Afg`onistonda) shahrida tug`ildi. Uning otasi G`iyosiddin Kichkina zamonasining ziyoli kishilaridan bo`lgan. Alisher ziyrak va favqulodda qobiliyat egasi bo`lganligidan o`qishga barvaqt havas qo`ydi. Shuning uchun otasi uni 4 yosh-u 4 oyligida maktabga berdi. U adabiyot va musiqani sevganligidan tez orada 50 ming baytdan ortiq she’rni yod oladi. Alisher 10-12 yoshidan boshlab g`azallar yoza boshladi. Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo`ston”, Farididdin Attorning “Mantuqut-tayr” asarlarini sevib o`qigan va hatto to`liq yodlab olgan. Yosh shoir turkiy, fors-tojik va arab tillaridagi asarlarni chuqur o`rgangan.

Turkiy adabiyotning mashhur namoyandasi, mavlono Lutfiy yosh shoirning birgina g`azaliga o`zining butun ijodini almashtirishga tayyorligini aytib, Alisherning kelgusida ulkan shoir bo`lib yetishishini bashorat etgan edi. Alisher Navoiy o`z ona tili bilan bir qatorda, fors-tojik tilida “Foniy” taxallusi bilan asarlar yozdi. Mutafakkir shoir 40 dan ortiq badiiy, ilmiy, falsafiy, tarixiy asarlar yozib qoldirdi. Uning “Xamsa”si 51230 misradan, “Xazoyinul-maoniy” asari 50 ming misradan iboratdir. Alisher Navoiy o`zining “Muhokamatul-lug`atayn”, “Majolisun-nafois”, “Mahbubul-qulub”, “Mezonul-avzon”, “Lisonut-tayr”, “Xamsa”, “Xazoyinul-maoniy” kabi bebaho asarlari bilan o`zbek adabiy tilini nazariy jihatdan asoslab, amaliy jihatdan isbotladi, o`zbek adabiyotini ko`klarga ko`tardi. Mamlakatda fors va arab tillari yuqori mavqega ega bo`lgan paytda o`z ona tilining qimmatini ko`tardi, uning fors va arab tillaridan qolishmasligini isbotlab berdi.

Alisher Navoiy muttasil ijod etish bilan birga, yoshlikda birga o`qigan do`sti sulton Husayn Boyqaro saroyida davlat ishlarini ham vijdonan olib bordi. Muhrdor, so`ngra bosh vazir, hokim bo`lganida mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga ahamiyat berdi, yangi ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, kutubxonalar, hammom-u machitlar qurdirdi.

Alisher Navoiy o`zining rang-barang g`azallari, rubouiylari, qit'a, tuyuq, muxammas, muammo, fard, chiston kabi janrlardagi sermazmun asarlarida hayot go`zalligini, nozik insoniy tuyg`ularni, tabiatni kuylaydi. Uning ko`p g`azallari qo`shiqqa aylangan, ular har kuni radio va televizorda yangrab turadi. Shoirning badiiy va ilmiy asarlari dunyoning ko`pgina tillariga tarjima qilingan.

Ulug` mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1504-yil 3-yanvarda vafot etgan. Shoirning qabri Hirot shahridadir. 1991-yil O`zbekistonda Alisher Navoiy yili deb e'lon qilindi va uning 550 yillik to`yi keng nishonlandi. Shu yubiley munosabati bilan uning 20 tomli mukammal asarlari to`plami nashr etildi.

Alisher Navoiyning nomi abadiylashtirilgan. Hozirgi paytda respublikamizda katta bir shahar, Samarqand davlat universiteti, Toshkent Adabiyot muzeyi, katta opera va balet teatri, ko`pgina kutubxonalar, jamoa va davlat xo`jaliklari, ko`chalar Alisher Navoiyning muborak nomi bilan ataladi.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan bog`lovchi, yuklama, ko`makchiga oid so`zlarni morfologik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida so`zlab bering.
4. Alisher Navoiy she'rlari va hikmatlaridan parchalar yod oling.

KAMOLIDDIN BEHZOD

Ulug` rassom Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotda hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onadan yosh yetim qolgan Kamoliddinni Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) o`z tarbiyasiga oladi. Mirak Naqqosh oilasida har tomonlama ilmli, odobli bo`lib tarbiyalangan Kamoliddin naqqoshlik va miniatyurasozlik san'atini ham egallaydi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh va miniatyurasoz bo`lib yetishishida muhim omillaridan biri -mutafakkir shoir Alisher Navoiyning nazariga tushib, uning homiyligidan bahramand bo`lganligidir. San'at va nafosatga ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo`lgan Behzod g`oyatda mehnatsevarligi, zahmatkashligi, o`tkir aql-u zakozati tufayli iste'dodi kundan-kunga ortib boradi va tez orada Hirotda mashhur musavvir bo`lib

taniladi. Husayn Boyqaro Behzodni o`z saroyiga jalb qiladi, unga saroydan maxsus joy ajratib, ijodiy ishlar bilan shug`ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. 1483-yildan Behzod Sulton Husayn Boyqaroning farmoni bilan saltanat kutubxonasiga boshliq qilib tayinlanadi.

1507-yilda Shayboniyxon Hirot taxtini egallaydi. Kamoliddin Behzod uch yilcha Hirotda Shayboniyxon saltanatiga qarashli saroyda ijodiy ish bilan shug`ullanadi. Shayboniyxon ham uning uchun qulay sharoit yaratadi. 1512-yilga kelib Hirotni eroniylar - Shoh Ismoil Safaviy o`z tasarrufiga oladi. U Hirotdagi iste'dodli san'atkorlarni Tabrizga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod ham bor edi. Bu vaqtga kelib Behzod va uning Hirotdagi musavvirlik maktabining dovrug`i butun Sharqqa tarqalgan edi. Behzodning san'atini yuksak qadrlagan Shoh Ismoil Safaviy ham unga zarur sharoitlarni yaratib beradi. Behzod Tabrizda Hirotdan keyingi nafis tasviriy san'atning yana bir ulkan maktabini yaratdi.

1512-1522-yillar Behzod hayotida og`ir va musibatli yillar bo`ldi. Bu yillar orasida u ahyon-ahyonda ona yurti Hirotga borib-kelib turgan. 1522-yilda Shoh Ismoil Safaviy maxsus farmon chiqarib, Behzodni Tabrizdagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi.

Kamoliddin Behzod 1537-yili Hirotda vafot etadi. Hirotliklar uni chuqur iztirob va motam bilan Kuhi Muxtor tog`i yonbag`riga dafn etadilar.

Kamoliddin Behzod Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Abdurahmon Jomiyning "Salomon va Absol", Amir Xusrav Dehlaviyning "Xamsa", Sa'diyning "Bo`ston" va "Guliston", Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", Abdulloh Xotifiyning "Temurnoma"siga yuzlab miniatyuralar, Sulton Husayn Boyqaroning 40 dan ortiq majlislari tasviri, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Taxmasp, Shoir Abdulloh Xotifiylarning suratlari, "Tuyalar jangi", "Darvishlar raqsi", "Samarqandda madrasa qurilishi" kabi noyob suratlarni chizib qoldirgan.

Behzod o`ta saxiy va mehribon ustoz sifatida juda ko`plab atoqli miniatyurasoz, musavvir va naqqoshlarni tarbiyalab voyaga ytkazdi.

Kamoliddin Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirchiligi tarixida, balki jahon rasm san'ati tarixida o`chmas iz qoldirgan, o`zining ajoyib va qimmatbaho miniatyura durdonalari bilan butun dunyo madaniyati tarixida salmoqli o`rin olgan buyuk va zabardast san'atkordir.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan atoqli otlarni aniqlang va ularni tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`quv tilingizda so`zlab bering.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

XIV-XV asrlar o`zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri, shoir, olim, yirik markazlashgan davlat podshosi, taniqli sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug`ilgan. Otasi Umarshayx mirzo Amir Temirning avlodidan bo`lib, Farg`ona viloyati hokimi edi. Shuning uchun ham Bobur saroy muhitida tarbiyalanib, zamonasining ilm-ma'rifati, adabiyoti va san'atini chuqur o`rgandi. Otasi bevaqt vafot etgandan so`ng 12 yoshli Bobur Andijon taxtiga o`tirdi. Temuriylar o`rtasida, shuningdek Shayboniyxon qo`shini o`rtasida bo`lib turgan urushlar tufayli mamlakat notinch edi. Bobur yurtida tinchlik o`rnatish, tartib joriy qilish uchun butun kuchini sarflaydi.

1504-yili Shayboniyxon qo`shinidan yengilgan Bobur oz sonli lashkari bilan Afg`onistonga ketishga majbur bo`ladi. Bobur Afg`onistonda hokimiyatni qo`lga kiritadi va adolatli shoh sifatida shuhrat qozonadi. 1519-1526-yillarda hind imperatori Ibrohim Ludiy qo`shinini yengib, Hindistonni egallaydi. Bobur Hindistonda ulkan davlatga asos soldi. 1529-yilga kelib Bobur asos solgan davlatga Afg`oniston, Panjob, Gang vodiysi (Bengaliya chegarasigacha) kirar edi. Boburiylar hind yurtida qariyb 300 yil adolat bilan davlatni boshqardilar, ulkan tarixiy obidalar qurdirdilar. Shulardan Tojmahal (Shoh Jahon va malika Mumtoz Mahal maqbarasi) me'moriy yodgorligi oq marmardan qurulgan bo`lib, 5 gumbaz, 4 minora, balandligi 74 metrdan iborat muhtasham binodir. Atrofi bog` va devorlari rangli toshlar bilan bezatilgan. Bu kabi obidalar hozir ham o`z go`zalligini saqlab qolgan va butun dunyo sayyohlarining eng ko`p ziyorat qiladigan maskanalaridan hisoblanadi.

Bobur katta davlat arbobi, taniqli sarkarda bo`lishi bilan birga, iste'dodli olim, tengsiz shoir ham edi. Bobur o`z atrofiga zamonasining eng mashhur shoirlari, olimlarini jamlab, ularga homiylik qildi. O`zi ham ilmiy, ijodiy ishlar bilan mashg`ul bo`ldi. U o`zbek adabiyotida Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib, ko`plab ilmiy, g`oyat go`zal badiiy asarlar yozib qoldirdi. Bobur garchand vatandan yiroqda umr kechirgan bo`lsa-da, o`zbek adabiy tilining, o`zbek adabiyoti va she'riyatining rivojiga katta hissa qo`shdi. Uning g`azal va ruboiylari takrorlanmasligi, mazmundorligi, jarangdorligi hamda tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uning dilrabo g`azallari san'atkorlar tomonidan kuylab kelinadi.

Boburning huquqshunoslikka oid "Mubayyin", aruz vazni va qofiya haqida "Mufassal", musiqaga doir "Musiqiy", harbiy yurishlar haqida "Harb ishi" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari orasida "Boburnoma" nomli memuar asari dunyoga mashhur. Bu asar zamonasining eng mukammal nasriy asari hisoblanib, jahon adabiyotiga qo`shilgan bebaho durdonadir. Unda xalqimiz tarixiga doir, Sharq xalqlari tarixi, geografiyasi, urf-odatlari va boshqa ma'lumotlar o`z ifodasini topgan. Bu asar dunyoning ko`p tillariga tarjima qilinib, katta nusxalarda nashr etilgan.

Boburning ijodiy ishlari farzandlari Gulbadanbegim, Komron mirzo, shuningdek avlodlari Zebuniso va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 47 yoshida Hindistonning Agra shahrida vafot etdi. O`z vasiyatiga ko`ra keyinchalik uning jasadi Kobulga keltirib dafn etilgan. Shunday qilib, boburiylar sulolasi Hindistonda 1526-yildan 1858-yilgacha davom etdi. Hindistonda hozir ham boburiylar sulolasi vakillari yashaydi. O`zbekiston Pespublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng qadimgi aloqalar yana tiklandi.

Bobur haqida ko`plab ilmiy, badiiy asarlar, filmlar yaratilgan. Taniqli o`zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” romanlarini Bobur va uning avlodlari hayotini yoritishga bag`ishlagan. Yurtimizda uning nomini abadiylashtirishga ham katta e’tibor berilmoqda.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan sonlar hamda atoqli otlarni morfologik tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini so`zlab bering.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridan namunalar yod oling.

NODIRA

Nodira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi. Uning asl ismi Mohlaroyim bo`lib, yoshligidan o`qishga, adabiyotga qiziqdi. U o`tkir zehni, nozik tabiati, yaxshi fazilatlari bilan juda erta tanilda. Nodira otinoyi qo`lida ta’lim olgan. O`z bilimi va dunyoqarashini mustaqil mutolaa bilan boyitib borgan.

O`zbek, fors–tojik adabiyotining eng mashhur vakillari merosidan bahramand bo`lgan Nodira yoshligidanoq she’rlar yoza boshlagan. Husnixat bilan jiddiy shug`ullangan.

1808-yilda Qo`qon xoni Norbo`tabiyning o`g`li Umarxon bilan turmush qurgandan keyin ikki yil Marg`ilonda, 1810-yildan umrining oxirigacha Qo`qonda yashadi. Nodiraning mana shu davrdagi hayoti bevosita shoirlar, adabiyot va ilm ahli davrasida o`tdi. Shoira o`z asarlarida muhabbat, adovat, saxovat, insof, muruvvat, firoq mavzularini katta mahorat bilan yoritadi. Nodira bir tomondan shoh, ikkinchi tomondan o`z davrining taniqli shoiri bo`lgan Umarxonni xalqparvarlikka, vatanparvarlikka, ilm-fan ravnaqiga homiylik qilishga undadi.

Nodira asarlari o`zbek she’riyati xazinasining g`oyat go`zal namunalaridan hisolanadi. U o`z asarlarida Nodira, Komila, Maknuna kabi taxalluslarni qo`llagan. Shoira o`zbek va tojik tillarida yozgan g`azal, muxammas, musaddas, tarje’band, tarkibband, firoqnoma kabi janrlardagi asarlarini to`plab, devon tuzgan.

Nodira 30 yoshga yetmay ikki bola bilan beva qoladi. Shundan so`ng badiiy ijod bilan bir qatorda saltanat ishlari bilan ham shug`ullana boshlaydi. Bu davrda shoira ijodining mavzu doirasi kengaya boradi. U o`z she'rlarida ayollarning ichki kechinmalari, iztiroblari, oliyjanobligi, vafodorligi, insoniy muhabbatini kuylaydi.

Nodira madaniy hayotda homiylik va rahbarlik qilar ekan, atrofiga olim, shoir, fozillarni to`pladi, madrasa, karvonsaroy, bozor-rastalar qurdirib, xalq farovonligi, tinchligi uchun ko`pgina ishlarni amalgam oshiradi.

O`zbek va tojik tillarida 10 ming misradan ko`proq nazmiy asarlar yaratgan iste'dodli shoira Nodira hayotida katta fojia yuz berdi. Buxoro amiri Nasrullo 1842-yili Qo`qonni bosib olgach, Nodira va uning yaqinlarini shariatni buzganlikda ayblab, yuzlab begunoh kishilarni, shu jumladan, Nodirani, uning o`g`illarini va hatto 12 yashar nevarasi Muhammad Aminni ham vahshiylarcha qatl ettiradi.

O`zbek adabiyotida o`chmas iz qoldirgan shoira Nodira haqida ko`plab ilmiy ishlar, badiiy asarlar, drama va kinofilmlar yaratilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan kelishik qo`shimchalarini tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini gapirib bering.

ABDULLA QODIRIY

Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog`bon oilasida tug`ilgan. U avval eski maktabda, keyinroq yangi ochilgan maktabda ta'lim oldi. Abdulla Qodiriy o`z ijodini she'r yozishdan boshladi. Bo`lg`usi ijodkor mahalliy gazeta va jurnallarda dolzarb mavzulardagi ommabop maqolalari, feletonlari bilan faol qatnashdi. Abdulla Qodiriy birinchi o`zbek satirik jurnali "Mushtum"ning tashkilotchisi va birinchi muharriridir. Shuning uchun ham uning hikoyalari, feletonlari, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga oid maqolalari, xabarlari bu jurnalda tez-tez bosilib turgan.

Abdulla Qodiriy tez orada mohir nosir sifatida respublikada taniladi. Adib o`zining hajviy asarlariga Julqunboy, Dumbulboy, Sovrinboy, Dumbulboy o`g`li, Kalvak Mahzumning jiyani, Jiyan, Toshpo`lat Tajang, Ovsar, Shapaloq, Mahzum, Moshxo`rdachi, Shoshiy kabi ellidan ortiq taxalluslarni qo`llagan. A.Qodiriy ko`plab hikoyalar, qissalar bilan bir qatorda, XX asr o`zbek adabiyotida birinchi bo`lib "O`tgan kunlar", 'Mehrobdan chayon" kabi romanlar yozib qoldirdi. Bu asarlari bilan nafaqat o`zbek adabiyotida, O`rta Osiyo xalqlari adabiyotida ham birinchi bo`lib zamonaviy romanchilikka asos soldi. Shuning uchun ham sharqshunos olim Y. Y. Bertels: "Dunyoda beshta, ya'ni" fransuz, ingliz, rus, nemis va hind romanchilik maktablari bor edi. Endi oltinchi, ya'ni o`zbek romanchiligi

maktabi paydo bo`ldi. Bu maktabni Abdulla Qodiriy yaratib berdi”, - deb yozgan edi.

Abdulla Qodiriy nafaqat iste’dodli nosir, shu bilan bir qatorda mohir tarjimon ham edi. U N.V.Gogolning “Uylanish” dramatic asarini, A.P.Chexovning “Buqalamun” hikoeasini yuksak mahorat bilan o`zbek tiliga tarjima qilgan. Yosh yozuvchi XX asrning 30-yillarida stalincha qatag`on ta’qibiga uchradi. U asossiz ravishda qatag`on qilinib, shafqatsizlarcha qatl etildi. Yozuvchi va tarjimon A.Qodiriy o`limidan so`ng oqlandi. Abdulla Qodiriy asarlari dunyoning ko`pgina tillariga tarjima qilingan bo`lib, uning hikoyalari, romanlari kitobxonlar tomonidan sevib o`qiladi. Uning romanlari asosida ajoyib badiiy filmlar yaratilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan sodda so`zlarni aniqlang va ularni so`z turkumlari bo`yicha tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida gapirib bering.

ABDULHAMID SULAYMON O`G`LI CHO`LPON

Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon 1897-yili Andijonning Qatorterak mahallasida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o`g`li dehqonchilik bilan, hunarmandchilik, bazzazlik bilan shug`ullangan. “Rasvo” taxallusi bilan she’rlar yozgan ijodkor Sulaymonqul o`g`lining ham ilmli kishi bo`lib yetishishi uchun barcha imkoniyatni yaratgan. Onasi uy bekasi edi.

Abdulhamid avval eski maktabda, keyin Andijon va Toshkentdagi madrasalarda ta’lim oldi. U turk, arab, fors va rus tillarini mukammal o`rgangan. Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz, Dehlaviy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Bobur asarlarini chuqur o`rgangan Abdulhamid 16 yoshidan boshlsb she’rlar ijod qila boshlaydi. U Qalandar, Mirzaqalandar, Andijonlik taxalluslari bilan matbuotda ko`rina boshlaydi. Keyinroq Cho`lpon taxallusi bilan ijod etdi.

Cho`lpon Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi o`z davrining ilg`or ma’rifat targ`ibotchilariga ergashib, ma’rifatparvar ijodkor sifatida tanildi. Uning dastlabki asarlari ‘Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg`ona”, “Sho`ro” gazetalarida bosilib chiqadi.

Cho`lpon oktabr to`ntarilishidan keyingi yillarda xalq hayotida sodir bo`layotgan xush va noxush o`zgarishlarni o`z asarlariga mavzu qilib oldi. 1922-1926 – yillarda uning “Tong sirlari”, “Uyg`onish”, “Buloqlar” kabi she’riy to`plamlari nashr etiladi. 30-yillarga kelib “Soz” va “Jo`r” kabi she’riy to`plamlari nashrga tayyorlanadi. Ammo mamlakatda ro`y bergan

qatag`on to`zoni shoir ijodiga ham rahna soladi. “Soz” to`plami nashr etiladi-yu, “Jo`r” to`plami o`quvchilar qo`liga yetib bormaydi.

Shoir davrining faol ijodkori sifatida “Ishtirokiyun”, “ Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Buxoro adabiyoti” gazetalarida mas’ul lavozimlarda xizmat qiladi.

Cho`lpon yetuk lirik shoirgina emas, yirik nosir sifatida ham o`nlab publitsistik maqolalar, ocherklar, hikoyalar, qissalar(“Qor qo`ynidagi lola”, “Yov”) va bir roman(“Kecha va kunduz”) muallifidir. U dramaturg sifatida “Xalil farang”, “Cho`rining isyoni”, “O`rtoq Qarshiboyev”, “Mushtumzo`r”, “Yorqinoy” kabi sahna asarlari yozgan. Cho`lpon qalami o`tkir adabiyotshunos, mohir tarjimon ham edi. U Shekspirning “Hamlet”, Pushkinning “Boris Godunov”, “Dubrovskiy”, Gogolning “Tergovchi”, Frankoning “Feruza”, Gorkiyning “Ona”, Andreyevning “Osilgan yetti kishining hikoyasi” va boshqa ko`plab asarlarni tarjima qilib, zamonaviy o`zbek tarjima maktabiga asos soldi.

Cho`lpon ham Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar qatorida qatag`on davrining qurboni bo`ldi. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlangan. 1956-yilda oqlanib, 1991-yili mustaqillik sharofati bilan “Yana oldim sozimni” nomli she’riy va nasriy asarlari to`plami nashr etildi. 1991-yili 25-sentabrda shoirning mazkur to`plami Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo`ldi. 1997-yil Cho`lpon tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Andijonda uning nomida bog` tashkil etilib, uy muzeyi ochilda, haykali o`rnatildi.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan qo`shma, juft so`zlarni aniqlang va ularni so`z turkumlari bo`yicha tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida hikoya qiling.
4. Cho`lpon she’rlaridan namunalar o`qing va yod oling.

G`AFUR G`ULOM

XX asr o`zbek adabiyotining taniqli vakili G`afur G`ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrining Qo`rg`ontegi mahallasida tig`ilgan. Uning otasi G`ulom aka fors-tojik, ozarbayjon, tatar, rus tillarini yaxshi biladigan o`qimishli kishi bo`lgan. Onasi Toshbibi opa ham o`qimishli, zehnli, fors-tojik tilini biladigan, adabiyotini sevadigan inson edi. Shuning uchun ham G`afur G`ulomda adabiyotga qiziqish juda yoshligidan boshlangan. U 9 yoshidan A. Navoiy, Hofiz, Fuzuliy kabi mumtoz adabiyot vakillari asarlarini sevib o`qigan. Ammo hayot beshafqat. U 1912-yili otasidan, 1918-yili esa

onasidan ham ayrilib, singillari bilan yetim bo`lib qoladi. Yosh G`afur G`ulom oila tebratish, murg`ak singillarini boqishi va tarbiyalash bilan shug`ullanib, oily ma'lumot ham ololmaydi. G`afur G`ulom mustaqil o`qish va badiiy ijod orqali zamonasining eng ilg`or, yetuk ziyolisi, ulkan shoiri, akademik olimi darajasiga ko`tarildi.

G`afur G`ulomning birinchi she'ri yetim bolalar internati tarbiyalanuvchilariga bag`ishlangan. Ana shundan boshlab u xalq hayotini badiiy tasvirlashga kirishdi. G`afur G`ulom o`z she'rlarida, hikoya va qissalarida xalq hayotini, orzu-umidlarini falsafiy yoritdi. Ikkinchi jahon urushi davrida shoirning qalami dushmanga qaratilgan qurolga aylandi. Uning bu davrda yaratgan " Kuzatish", "Sog`inish" , " Sen yetim emssan…" kabi she'rlari juda mashhurdir.

G`afur G`ulom shoirgina emas, u qalami o`tkir nosir hamdir. Uning "Shum bola" qissasini butun dunyo bolalari sevib o`qiydi. Ular bu asar orqali o`zbek xalqining, farzandlarining XX asr boshlaridagi og`ir hayotlari bilan tanishadilar, shum bola bilan birgalikda o`zbek qishloqlarini sayr etadilar.

G`afur G`ulomning hikoyalari kulgili voqealarga boyligi bilan ham boshqa o`zbek yozuvchilarining nasriy asarlaridan ajralib turadi.

G`afurG`ulom 1966-yil 10-iyulda vafot etgan.

G`afur G`ulom Xalq shoiri, O`zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi bo`lgan. Uning 12 tomlik mukammal asarlari to`plami nashr ettirilgan. Sirdaryo davlat universiteti, mamlakatimizdagi katta nashriyot, metropolitan bekatlaridan biri, bir qancha jamoa xo`jaliklari, korxona va tashkilotlar, maydonlar va ko`chalar, kutubxonalar shoir nomi bilan ataladi.

O`zbek she'riyati, badiiy publitsistikasi, feletonchiligi, hajviy hikoyachiligi, yumoristik qissachiligi va tarjimachiligi rivojiga ulkan hissa qo`shgan akademik shoir G`afur G`ulomning 100 yillik to`yi 2003-yili mamlakatimizda keng nishonlandi.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`zlarni tuzilishiga ko`ra tahlil qiling.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida va o`quv tilingizda gapirib bering.
4. Shoirning "Sen yetim emassan" she'rini o`qing, mazmunini so`zlab bering.

OYBEK

Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek 1905-yili 10- yanvarda Toshkentda to`quvchi oilasida tug`ilgan. Oybek – yozuvchining adabiy taxallusi. Oybek avval eski maktabda, so`ngra hozirgi zamon maktablarida tahsil oldi. Oybek eski maktabda o`qib yurgandayoq Qur'on, hadislardan xabardor bo`ldi,

Alisher Navoiy, Bedil, Hofiz, So`fi Olloyor kabi shoirlarning g`azallarini sevib o`qidi. O`zi ham she'rlar yoza boshladi.

Oybek 1930-yili O`rta Osiyo davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetini bitiradi va 1935-yilgacha shu yerda siyosiy iqtisoddan dars beradi. U O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan, " Sharq yulduzi", "O`zbek tili va adabiyoti" jurnallarida bosh muharrir bo`lib ishlagan

Oybek adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan. Uning "Cholg`u tovushi" nomli birinchi she'ri "Armug`on" jurnalida 1922-yili bosilib chiqqan. U 30-yillardayoq iste'dodli shoir sifatida tanilgan edi. Oybek o`zbek nasriga ham ulkan hissa qo`shdi. "Qutlug` qon", "Navoiy" , "Oltin vodiydan shabadalar", "Quyosh qoraymas", "Ulug` yo`l' kabi romanlari, "Nur qidirib", "Bolalik", "Alisherning yoshligi' kabi qissalari buning yorqin namunalaridir.

Oybekning adabiyotshunoslik va badiiy tarjima sohasidagi xizmatlari ham buyukdir. U A.S.Pushkin, M.Y. Lermontov, Henrix Hayne, V.N.Belinskiy va boshqalarning ko`plab asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Atoqli yozuvchi og`ir betoblikdan so`ng 1968-yil 1-iyulda vafot etdi. Uning qabri Toshkentdagi Forobiy qabristonidadir.

Oybekning adabiyot va fan sohasidagi xizmatlari munosib taqdirlangan. U O`zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, O`zbekiston Xalq yozuvchisi faxriy unvoni egasi, o`sha davrning yuksak orden va medallari sohibi, bir necha Davlat mukofotlari sovrindori bo`lgan. O`zbek adiblari orasida birinchi bo`lib uning 20 tomlik mukammal asarlari to`plami nashr etilgan.

2005-yil akademik adib Oybek tavalludining yuz yilligi mamlakatimizda keng nishonlanib, ilmiy anjumanlar, kitobxonlar kechalari biriga Oybek nomi berilgan.o`tkazildi, zamondoshlarining xotiralari nashr etildi.

Oybek xotirasini abdiylashtirish sohasida ham katta tadbirlar amalgam oshirildi. O`quv yurtlari, maktablar, xiyobonlar va ko`chalar, korxonalar uning nomi bilan atalgan. Toshkentda Oybekning uy- muzeyi tashkil etilgan. O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Oybek nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkent metropolitenining ko`rkam bekatlaridan

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matndagi gaplarni so`z birikmalariga ajrating va ularning turlarini aniqlang.
3. Matnning mazmunini gapirib bering.

ABDULLA QAHHOR

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo`qonning Ko`mir bozori mahallasida temirchi kosib oilasida dunyoga kelgan. Bo`lg`usi yozuvchining bolalik davri og`ir yillarga to`g`ri keldi. Uning bu og`ir yillar haqidagi xotiralari ”O`tmishdan ertaklar” qissasida mahorat bilan tasvirlangan.

Abdulla Qahhor Buvaydadagi eski maktabda savod chiqaradi. Oqqo`rg`onda jadid yo`nalishidagi maktabda, keyinroq Qo`qondagi maktab-internatda o`qishni davom ettiradi. 1922-1924 – yillarda boshlang`ich sinf o`qituvchilari tayyorlaydigan bilim yurtida tahsil oladi. Uning ijodi bilim yurtida o`qib yurgan kezlari boshlanadi. 1925-yildan sobiq “Qizil O`zbekiston”, “Yangi yo`l” gazetalari, “Mushtum” jurnalida Norin Shilpiq, Mavlono Kufur, Guliyor, Erkaboy, E-boy, Nish taxalluslari bilan asarlari bosilib chiqa boshlaydi.

O`rta Osiyo davlat universitetining avval ishchilar fakultetini, keyin pedagogika fakultetini tugatadi. Uning “Qishloq hukm ostida” nomli qissasi 1932-yili kitob holida bosilib chiqadi. 1934-yilga kelib “Sarob” romani nashr etiladi.

Abdulla Qahhor o`zbek adabiyotida kichik hikoyalar ustasi sifatida tanildi. Uning tarixiy mavzudagi “ Bemor”, “O`g`ri’, ”Anor”, “Dahshat”, zamonaviy mavzulardagi “Asror bobo”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Ming bir jon”, hajviy xarakterdagi “Mayiz yemagan xotin”, “Adabiyot muallimi” , “To`yda aza” asarlari o`zbek hikoyachiligining eng nodir namunalari sanaladi. Uning dehqonlar hayotiga bag`ishlangan ”Qo`shchinor chiroqlari” romani 1951-yili bosilib chiqadi.

Abdulla Qahhor o`zbek dramaturgiyasiga ham katta hissa qo`shgan adibdir. U komediya janrida “Shohi so`zana”, ”Og`riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” kabi sahna asarlari yaratib, jamiyat rivojiga to`siq bo`layotgan illatlar ustidan kuladi.

Abdulla Qahhor ijodi o`zbek qissachiliguda ham muhim o`rin egallaydi. Uning “Sinchalak”, ”O`tmishdan ertakalr”, “Muhabbat”, “Zilzila” kabi qissalarida o`zbek xalqining hayoti yorqin ifodasini topgan.

Abdulla Qahhor jahon miqyosidagi ulkan yozuvchilarning mahorat sirlarini o`rgandi, ularning asarlarini o`zbek tiliga tarjima qildi. U A.S.Pushkinning “Kapitan qizi”, N.V. Gogolning “Uylanish”, “Revizor” komediyalari, L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” roman-epopeyasini o`zbek tiliga o`girdi.

Abdulla Qahhor og`ir betoblikdan so`ng 1968-yil 25-mayda Moskvada vafot etdi. U O`zbekiston Xalq yozuvchisi, qator orden va medallar sohibi, bir necha bor Davlat mukofotlari sovrindori bo`lgan. Uning nomi mamlakatimizdagi oily o`quv yurtlari, teatr, kutubxona, maktablar, ko`chalarga qo`yilib abadiylashtirilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling, unda qo`llangan yasama, juft so`zlarni aniqlang va so`z turkumlari bo`yicha tahlil qiling.
2. Matnning mazmunini o`zbek tilida so`zlab bering.
3. Yozuvchining “Bemor” asarini o`qib, mazmunini hikoya qiling.

ERKIN VOHIDOV

Taniqli o`zbek shoiri Erkin Vohidov 1936-yil Farg`ona viloyatining Oltiariq timanida o`qituvchi oilasida tug`ilgan. Uning otasi tarix o`qituvchisi bo`lib, ikkinchi jahin urushida boshidan yaralanib, 1945-yili vafot etadi. Ko`p o`tmay uning onasi ham vafot etadi. To`qqiz yoshli Erkin Vohidov adliya xodimi bo`lgan tog`asi qo`lida tarbiya topadi.

Erkin Vohidov 7-sinfda o`qib yurgan paytlaridayoq she’rlar yoza boshlaydi. Uning birinchi she’ri “Mushtum “ jurnalida bosilib chiqadi. Shoir 25 yoshida “Tong nafasi” nomli birinchi she’rlar to`plamini nashr ettirdi. Shundan keyin uning birin-ketin “Yoshlik devoni”, “Muhabbat”, “Tirik sayyoralar”, “Ruhlar isyoni”, ”Saylanma”, “Yaxshidir achchiq haqiqat” kabi kitoblari, “Oltin devor”, ‘Istanbul fojiasi” kabi dramatik asarlari bosilib chiqdi.

Erkin Vohidov she’riyati o`zbek adabiyotida ming yillik an’analarni davom ettiruvchi noyob hodisadir. Uning har bir she’ri xalq qalbiga chuqur kirib borgan.

Shoirning “O`zbekiston”, “O`zbegim” she’rlari tarixiy faktlar, xalqimiz turmushi bilan bog`li q yorqin tasvirlarga boyligi bilan boshqa asarlaridan ajralib turadi. “O`zbegim” qasidasi el orasida shu qadar mashhur bo`ldiki, sobiq sho`rolar imperiyasi himoyachilarini cho`chitib yubordi. Uning qo`shiq qilib aytilishiga, hatto yig`inlarda she’rning ijro etilishiga ochiqdan-ochiq to`siqlar qo`yildi.

Erkin Vohidov ijodida g`azal janri alohida o`rin tutadi. Uning to`plamlariga kiritilgan she’rlarining aksariyati yangicha mazmundagi g`azallardir. Shoir ularda o`zbek mumtoz adabiyotidagi ko`p asrlik an’anlarni davom ettirmoqda.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi Erkin Vohidovning ilhomiga ilhom, jur’atiga jur’at qo`shdi. Shoirning keyingi yillarda yozgan asarlari jamiyatimiz va odamlarimizning barkamol bo`lishiga xalaqit beruvchi illatlarni fosh etishga bag`ishlangan. Erkin Vohidov ko`pgina chet ellik shoirlarning eng sara asarlarini o`zbek tiliga tarjima qildi. Bular ichida Gyotenning “Faust” asari eng yaxshi tarjimalardan sanaladi.

Erkin Vohidov O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining deputati, O`zbekiston xalq shoiri, O`zbekiston Qahramoni.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.

2. Matnda qo`llangan so`zlarning sininimik qatorlarini aniqlang.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida va o`quv tilingizda gapirib bering.
4. Shoirning “O`zbegim” she’rini o`qing, mazmunini so`zlab bering.

ABDULLA ORIPOV

Iste’dodli shoir Abdulla Oripov 1941-yili 21-martda Qashqadaryo viloyatidagi Koson tumanining Neko`z qishlog`ida dunyoga keldi. Uning otasi dono, ochiq ko`ngil kishi bo`lib, uzoq yillar o`zlari yashagan qishloqqa rahbarlik qilgan.

Abdulla Oripov o`rta maktabni bitirib, Toshkent davlat universitetiga o`qishga kirdi. Uning “Uchqun” nomli birinchi she’ri 1957-yilda bosilib chiqqan. 1965-yili “Mitti yulduz” nomli ilk she’rlar to`plami nashrdan chiqdi. Shundan keyin deyarli har yili bitta she’riy kitobi nashr etib kelinmoqda.

Abdulla Oripov universitetni bitirgach, “Yosh gvardiya”, G`afur G`ulom nomli nashriyotlarda mumharrirlik qildi, “Sharq yulduzi”, “Gulxan” jurnallarida ishladi. O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga kotiblik qildi.

Abdulla Oripov ijodining mavzusi – Vatan, xalq, inson va haqiqatni kuylash. Abdulla Oripov qayta qurish davrida va respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng, katta kuch va g`ayrat bilan ijod qildi. Uning she’rlarida ozod Vatan, mehribon ona, mehnatkash ayol, barkamol inson, poklik, samimiylik, muhabbat, yaxshilik mavzulari barilla yangradi.

Shoirning “Onajonim”, “Yurtim shamoli”, “O`zbekiston”, “Yuzma-yuz”, ”Yillar armoni’, “Ishonch ko`priklari”,”Haj daftari” va boshqa kitoblari xalqimizning ma’naviy mulkiga aylanib qolgan. U mustaqillikka erishgan respublikamiz yangi madhiyasining muallifi hamdir.

Shoir mashhur chet el ijodkorlarining ko`plab asarlarini o`zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Shulardan Dantening “Ilohiy komediya”si shoirga katta shuhrat keltirdi. Abdulla Oripov Hamza nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, O`zbekiston Xalq shoiri, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, O`zbekiston Qahramoni. Uning she’rlari xalqimizning o`zligini tanishiga ko`maklashmoqda, halol, pok yashashga, sabr-qanoatli bo`lishga, mol-dunyoga hirs qo`ymaslikka da’vat etadi.

Bir so`z bilan aytganda, Abdulla Oripov o`zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo`shgan va qo`shayotgan nodir so`z san’atkoridir.

Topshiriqlar:

1. Matnni tarjima qiling.
2. Matnda qo`llangan so`zlarning antonimik juftlarini aniqlang, so`z turkumlariga ajrating.
3. Matnning mazmunini o`zbek tilida hikoya qiling.
4. Shoirning “Onajon” she’rini o`qing, mazmunini gapirib bering.

ERKIN MAVZULARDAGI MATNLAR

TOSHKENT

Toshkent shahri qadimda “Choch”, “Shosh” nomlari bilan atalgan. XI asrdan Toshkent deb yuritila boshlagan. Toshkent geografik jihatdan qulay yerda joylashgan, iqlim sharoiti ham mo‘tadil bo‘lganligi uchun dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Qadimgi Toshkentning atrofi baland va qalin devorli qo‘rg‘on bilan o‘ralgan edi. Shaharning bo‘yi ham, eni ham 6-7 kilometr uzunlikka teng bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar shaharning yoshi 2000 yildan ortiqligini tasdiqlaydi.

Shahar devoridan tashqarida eng sersuv yerlar o‘zlashtirilib, obod etilgan. Aholi meva, sabzavot va g‘allaga zoriqmagan.

Toshkent o‘zaro urushlar, qo‘zg‘olonlar, ko‘chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilindi va qayta tiklandi. XIII asrgacha Toshkent qal’a, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o‘rab olindi. Shaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanadi. XV-XVI asrlarda Toshkentda yirik tarixiy ansambllar qad ko‘taradi. XVIII-XIX asrlarga kelib, shahar yanada kengaydi va hududi 15 ming gektarga yetdi. Shahar to‘rt daha va yuzlab mahallalarga bo‘lingan. Shaharga 12 darvoza orqali kirilgan.

Toshkent 1930-yildan O‘zbekistonning poytaxti deb e’lon qilindi. Shu yillar ichida Toshkentning qiyofasi tubdan o‘zgardi. Tor, qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar o‘rniga keng va elektrlashtirilgan yorug‘ xiyobonlar barpo etildi, ko‘p qavatli binolar qurildi. Ayniqsa, 1966-yilgi zilziladan so‘ng Toshkent tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Shahar maydoni kengaydi, uning chegarasidan 67 kilometrli aylanma yo‘l o‘tkazildi. 1977-yili O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent metrosi ishga tushdi. 1985-yili bo‘yi 375 metrli ulkan teleminora qurildi. 18 qavatli Ma’muriy bino, Matbuot uyi, “Paxtakor” stadioni, “O‘zbekiston”, “Chorsu” kabi mehmonxonalar, Navoiy, Muqimiy, Hamza teatrlari, Xalqlar do‘stligi saroyi, Rassomlar uyi, Oliy Majlis, Senat, Milliy bank binolari, A.Temur va adabiyot muzeylari Toshkentni yanada ulug‘vor ko‘rsatadi.

Yirik ilmiy va ma’rifat markazi hisoblangan poytaxtimizda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tekshirish institutlari, 30 ga yaqin oliy o‘quv yurtlari, 20 ga yaqin muzey, 700 ga yaqin kutubxona, o‘ndan ortiq teatr, o‘nlab madaniyat saroylari, yuzlab kinoteatrlar mavjud.

Toshkent mamlakatimizning ulkan sanoat markazi bo‘lib, bu yerda 300 dan ortiq yirik zavod va fabrikalar muntazam ishlab turibdi. Toshkentda

mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. Poytaxtimizdagi to‘qimachilik, trikotaj kombinatlari, traktor, samolyotsozlik zavodlari, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ochilayotgan qo‘shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar jahon bozorida o‘z xaridorini topmoqda.

Toshkent Sharqda rivojlangan shaharlardan biri bo‘lib, bu yerda har yili ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik, ekologiya, fan va texnika, madaniyat, san’at va boshqa sohalarga bag‘ishlangan o‘nlab xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari o‘tkaziladi. Toshkent ko‘p millatli ulkan shahar bo‘lib, hozir unda 2,5 milliondan ortiq aholi yashaydi. Uning chiroyi kundan-kunga ortib boryapti.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan sifatlarni aniqlang va ularni morfologik taflil qiling.
4. Matnning mazmunini o`zbek tilida gapirib bering.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda “Poytaxtga sayohat” mavzuida mustaqil matn tuzing.

S A M A R Q A N D

Samarqand ham dunyoga mashhur Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy tarixga ega. Uning yoshi 2500 yildan ortiq.

Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko‘targan. U o‘n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, shaharga uchta darvoza orqali kirilgan. Samarqandni miloddan avval 329-yili Aleksandr Makedonskiy, VIII asrda Qutayba, XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari bosib olib, vayron qilishgan. Qadimgi Samarqand shahri xarobalari hozir Afrosiyob nomi bilan yuritiladi.

XV asrlarga kelib Samarqand Afrosiyob xarobalaridan janubroqda qayta tiklandi. Tez orada yana dunyoga dong‘i ketgan go‘zal shaharga aylandi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylangandan so‘ng shaharda ma’muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo markazlari, karvonsaroylar ko‘plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o‘rab olindi. Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambllarining qurilishi shaharni yanada go‘zallashtiradi. Shahar atrofida Bog‘ishamol, Bog‘idilkusho, Bog‘ibaland, Bog‘imaydon, Bog‘ibehisht, Bog‘izag‘on kabi 12 ta ko‘rkam bog‘ barpo etildi.

Amir Temurdan so‘ng Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarqandni obodonlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug‘bek rasadxonasi,

Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori madrasalari qurildi. O‘sha davrda qurilgan Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroyga davlat idoralari, qurol-yarog‘ ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashtirildi.

XVI asrda Buxoro xonligi tashkil topgandan so‘ng poytaxt Buxoroga ko‘chirildi. XVII-XVIII asrlarda Samarqand yana turli bosqinchilar tomonidan talanib, vayron etilgan. Shaharning mehnatkash aholisi uni yana va yana qayta tiklayvergan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy binolar qurila boshladi. 1924-1930-yillarda u O‘zbekiston Respublikasining poytaxti bo‘ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko‘pligi jihatidan respublikamizda ikkinchi o‘rinda turadi. Samarqand kengayib, yanada obodonlashib bormoqda. Turar joylar ko‘paydi, yangi jamoat binolari, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo-sotiq majmualari, keng va ko‘rkam istirohat bog‘lari, xiyobonlar, maydonlar, ko‘chalar, ko‘p qavatli uylar qurilgan mikrorayonlar barpo etildi. Tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash, yangilarini qurishga e’tibor berilmoqda. Shaharda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Rudakiy, Akmal Ikromov, Y.A.Gagarin kabi ulug` insonlarga mahobatli haykallar o‘rnatilgan.

Samarqand rivojlangan sanoat shahri. Bu yerda muzlatgichlar, liftsozlik, avtomobilsozlik, chinni buyumlar, kino asbob-uskunalari, burg‘ulash asboblari, motor qismlari ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, poyabzal, shohi va baxmal to‘qish, trikotaj, galanteriya fabrikalari va ko‘plab milliy hunarmandchilik korxonalari mavjud.

Samarqand respublikamizning yirik ilm-fan markazlaridan biri. Universitet, qishloq xo‘jalik, savdo va servis, tibbiyot, chet tillari, me’morchilik-qurilish institutlari, axborot texnologiyalari universitetining filiali, o‘nlab kollej va litseylarda yoshlar fan sirlarini o‘rganmoqdalar.

Samarqand shahri va viloyat hududida joylashgan Doniyol payg‘ambar, Imom Ismoil Buxoriy, Maxdumi A’zam, Moturudiy, Xo‘ja Ahrori Valiy, Qusam ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili millionlab sayyohlar kelishadi.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan fe’llarni aniqlang va ularni morfologik tahlil qiling.
4. Matnning mazmunini so`zlab bering.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda “Ona shahrim” mavzuida mustaqil matn tuzing.

DAM OLISH KUNI

Bir yil o‘n ikki oyga bo‘lingan. Yil yanvar oyidan boshlanadi. Dekabr yilning so‘nggi oyi hisoblanadi. Bir oy esa 30 yoki 31 kundan iborat bo‘ladi. Har bir oy to‘rt haftadan tashkil topadi. Hafta esa yetti kundan iborat. Biz dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma va shanba kunlari o‘qiymiz yoki ishlaymiz. Bu kunlar ish kunlari hisoblanadi. Yakshanba – dam olish kuni. Biz yakshanba kunida bajariladigan ishlarimizni oldindan rejalashtirib qo‘yamiz. Dam olish kunini har kim har xil o‘tkazadi.

Men dam olish kunini oilamiz a’zolari bilan uyda o‘tkazaman. Bahor va kuz paytlari toqqa chiqamiz. Bahorda qirlar va tog‘ etaklari yam-yashil maysalar, qip-qizil lolalar bilan bezanadi. Kuzda soy bo‘ylaridagi o‘tlar sarg‘ayib, mevalar pishadi. Biz kechgacha sayr etib uyga qaytamiz. Boshqa paytlari hovlida turli ishlar bilan band bo‘lamiz.

Odatda dam olish kunlari uyqudan kechroq turamiz. Nonushta qilib bo‘lgach, bajariladigan ishlarni bo‘lib olamiz. Men hovlidagi ariqlarni tozalayman, daraxtlar va gullarni butayman, ularni sug‘oraman.Singlim onamga yordam beradi. U ertalab turib hovlini supuradi, eshik va deraza oynalarini artadi. Dadam bilan ukam bozordan oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavot va mevalar sotib olib kelishadi. Onam chang yutqich bilan xonalarni, gilamlarni tozalaydi, kir yuvish mashinasida kiyimlarni yuvadi, ularni dazmollaydi. Singlim pollarni yuvadi, kitob va kiyim javonlari, stol, televizor, deraza tokchalarining changlarini artadi. Keyin biz birgalashib tushlikka ovqat pishiramiz. Tushlik tayyor bo‘lguncha, televizordan qiziqarli ko‘rsatuvlarni tomosha qilamiz. Tushlikdan so‘ng dadam va onam buvimlarnikiga borishadi. Biz – men, ukam va singlim birgalikda dars tayyorlashga o‘tiramiz.

Kechqurun barchamiz kechki ovqat oldidan dasturxon atrofida yig‘ilamiz. Kechki ovqatdan so‘ng men do‘stlarim bilan uchrashaman. Ular bilan suhbatlashamiz, shaxmat, shashka, bilyard o‘ynaymiz. Ukam va singlim badiiy asar o‘qishni yoqtiradi. Otam va onam televizor tomosha qiladilar, gazeta va jurnal o‘qiydilar, ertangi ishlar haqida suhbatlashadilar. Biz dam olish kunini juda maroqli o‘tkazamiz.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan so`zlarni tuzilishiga ko`ra tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda dam olish kunini qanday o`tkazishingiz haqida mustaqil matn tuzing.

\

MENING ISH KUNIM

Men Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining iqtisodiyot fakultetida o‘qiyman. Men hafta davomida qiladigan ishlarimni oldindan rejalashtirib olaman. Ana shunday qilganligim uchun rejalashtirilgan ishlarim qolib ham ketmaydi yoki rejadan tashqari ishlar bo‘lganda ham shoshib qolmayman.

Men har kuni ertalab soat 6 dan 30 daqiqa o‘tganda turaman. 20 daqiqa davomida badan tarbiya bilan shug‘ullanaman, turli mashqlar bajaraman. Ipda sakrayman, yuguraman, turnikda tortilaman, tosh ko‘taraman. Soat 7 da nonushta qilishga o‘tiraman. Men nonushtaga sut, murabbo, sariyog‘, non, qahva yoki choy ichishni yoqtiraman. Nonushtadan so‘ng soat 7 dan 30 daqiqa o‘tganda uydan chiqaman. Darsga o‘rtoqlarim bilan ertalabki toza havoda piyoda boraman. Universitetda darslar soat 8 da boshlanadi. Har kuni 3-4 fandan dars o‘tamiz. Darslarimiz soat 2 dan 20 daqiqa o‘tganda tugaydi. Uchinchi va to‘rtinchi darslar oralig‘ida tushlik uchun 40 daqiqalik katta tanaffus bo‘ladi. Bu vaqtda biz universitet talabalar oshxonasida tushlik qilib olamiz. Oshxonamiz ikki qavatli. Birinchi qavatda o‘qituvchilar ovqatlanishadi. Biz ikkinchi qavatda tushlik qilamiz. Oshxonada milliy va boshqa taomlarni juda lazzatli tayyorlashadi. Tushlikdan so‘ng yana bir fandan dars o‘tib, uyga qaytamiz.

Uyga kelib bir soat dam olaman. Keyin universitet ilmiy kutubxonasiga borib, amaliy va ma’ruza mashg‘ulotlariga tayyorlanaman. Adabiyotlarni o‘qib, kerakli joylarini yozib olaman. Kechqurun soat oltilarda yana uyga qaytaman. Haftada ikki kun – chorshanba va shanba kunlari darsdan so‘ng voleybol bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlariga qatnashaman. Darslardan bo‘sh vaqtimda onamga uy ishlarida ko‘maklashaman. Kechki ovqatga soat 7 dan 30 daqiqa o‘tganda o‘tiramiz. Onam juda pazanda, ajoyib, shirin taomlar pishiradi. Kechki ovqatdan so‘ng men idish-tovoqlarni, piyolalar, qoshiq va sanchqilarni issiq suvda yuvib, tozalayman, joy-joyiga terib qo‘yaman. So‘ng birgalashib televizor tomosha qilamiz. Kechqurun men ko‘proq badiiy asar, gazeta va jurnallar o‘qish bilan band bo‘laman. Soat 11 da yotib uxlayman.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan egalik va kelishik qo`shimchalarini tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda ish kuni davomida amalgam oshiradigan ishlaringiz haqida mustaqil matn tuzing.
5. Tuzgan matningiz mazmunini og`zaki hikoya qiling.

O`ZBEKISTONNING O`SIMLIKLAR DUNYOSI

Mamlakatimiz hududida to‘rt mingdan ortiq o‘simlik turi mavjud. Ularning ko‘pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba’zilari madaniy o‘simliklar orasida begona o‘t sifatida o‘sadi.

O‘zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go‘zaldir. Baland tog‘lar, lalmikor qir-adirlar, qumloq cho‘llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko‘m-ko‘k o‘rmon va mevazor bog‘lar O‘zbekistonning ko‘rkidir.

Cho‘llarda suvsizlikka chidamli tikanli o‘simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug‘lantiruvchi saksovul daraxtlari o‘sadi. Yurtimiz tog‘larini boqqa qiyos qilish mumkin. Chunki bu yerlarda archa, tol, terak kabi turli manzarali daraxtlar bilan yonma-yon yong‘oq, bodom, yovvoyi olma, nok, anor, do‘lana, tog‘olcha, pista kabi o‘nlab turdagi mevali daraxtlar ham o‘sadi.

Insoniyat hayoti o‘simliklar olami bilan uzviy bog‘liq. O‘simliklar insonni to‘ydiradi, kiyintiradi, havoni tozalaydi, xo‘jalik va qurilish materiali bo‘ladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi, qumloq va toshloq yerlarni serunum tuproqli ekin maydonlariga aylantiradi.

O‘zbekistonda eng ko‘p ekiladigan madaniy o‘simliklar sirasiga paxta, makkajo‘xori, bug‘doy, sholi, mosh, loviya, no‘xat, zig‘ir, kunjut, arpa, javdar, tariq, qovun, tarvuz, qovoq, oshkadi, kartoshka, pomidor, piyoz, shirin va achchiq qalampir, turp, bodring, sholg‘om, sarimsoq va boshqalar kiradi. O‘zbekistonlik bog‘bonlar har yili olma, nok, o‘rik, shaftoli, anor, behi, olcha, gilos, yong‘oq, olxo‘ri, shotut, xurmo, jiyda, chilonjiyda, uzum, anjir, pista, bodom, ko‘ksulton kabi mevali daraxtlarning o‘nlab navlaridan yuqori hosil yig‘ishtirib oladilar.

O‘simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri – ularning shifobaxshligidir. Insoniyat qadim zamonlardan beri o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo‘lib kelgan. O‘zbekiston shifobaxsh o‘simliklar maskani sifatida ham mashhurdir. Serquyosh dala va bog‘larimizda yetishtirilayotgan shirin-sharbat mevalar, darmon dorilar manbai bo‘lgan sabzavotlar, poliz mahsulotlari o‘zlarining shifobaxshligi bilan boshqa joylarda yetishitirilgan mahsulotlardan ajralib turadi. Qishin-yozin dasturxondan meva va sabzavotlarning arimasligi salomatligimizning garovidir.

O‘zbekiston yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarga ham juda boy. Bunday o‘simliklar qatoriga quyidagilar kiradi: arpabodiyon, atirgul, bo‘yimodaron, gulxayri, dalachoy, jambil, jag‘jag‘, zira, isiriq, ismaloq, momaqaymoq, nargis, sedana, seldir, semizo‘t, suvqalampir, tog‘rayhon, chayono‘t, chirqanoq, chuchukmiya, ermon, qora zirk, qo‘shtirnoq, yalpiz va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, ko‘pchilik o‘simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo‘ladi. Bunday dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bir oz ortiqroq bo‘lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo‘liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, isiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona kabilar zaharli dorivor o‘simliklardir. Bunday o‘simliklarni og‘izga olmaslik, ularni yig‘ib olayotganda qo‘lni ko‘zga urmaslik va ish tugagach, qo‘lni yaxshilab sovunlab yuvish kerak.

O‘simliklar bo‘lmasa hayotning o‘zi ham bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘simliklarni asrab-avaylashimiz, ularning o‘sib, ko‘payishiga yordam berishimiz lozim. Yashil olam insoniyatning eng yaqin do‘sti ekanligini hech qachon unutmaylik.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan ravish va sifatga oid so`zlarni morfologik tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`zingizga tanish osimliklar gapirib bering.

K U T U B X O N A

Hozirgi paytda hayotimizni kitoblarsiz va kutubxonalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Maktab o‘quvchisi ham, dehqon-u chorvador ham, ishchi-yu xizmatchi ham, talabalar va barcha ziyolilar o‘zlari qiziqqan sohalariga oid kitoblarni o‘qib turadilar. Sharqda kitobni nondek e’zozlaydilar.

Kutubxona – bu bir kishi yoki ko‘pchilik tomonidan yig‘ilib, saqlanadigan kitoblar to‘plami hamda barcha savodxon va ijodkorlar uchun ilm-ma’rifat maskanidir.

Kutubxonalar bir necha ming yillardan beri mavjud. Mamlakatimizda ham dastlabki kutubxonalar bir necha ming yillar avval paydo bo‘lgan. Qomusiy bilimlar egasi bo‘lgan Muso Xorazmiyning 20 dan ortiq, Ahmad Farg‘oniyning 10 dan ortiq, Ismoil Buxoriyning 20 dan ortiq, Abu Nosir Forobiyning 160 dan ortiq, Ibn Sinoning 450 dan ortiq, Beruniyning 160 dan ortiq, Zamaxshariyning 50 dan ortiq turli fanlarga oid asarlar yaratganliklari ham yurtimizda kitob, kutubxona, ilm-ma’rifatga qiziqish qadimdan katta bo‘lganligidan dalolat beradi. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur hukmronlik qilgan paytlarda kutubxonalar madrasalar qoshida, saroylarda bo‘lgan. Kutubxonalardan ko‘proq mudarrislar, talabalar, shoir-u olimlar foydalanishgan.

Bugungi kunda esa har bir korxonaning, har bir maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtining o‘z kutubxonasi bor. Tuman, shahar, viloyat miqyosida

aholiga xizmat ko‘rsatadigan katta-katta kutubxonalar mavjud. Hatto ayrim kishilarning ham boy shaxsiy kutubxonalari bor.

Respublikamizdagi eng katta kutubxona – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat kutubxonasidir. Bu kutubxona 1870-yilda tashkil etilgan. Bu kutubxonada dunyoning ko‘pgina tillaridagi 5 milliondan ortiq kitoblar mavjud. Bundan tashqari, bu kitobxonada O‘zbekiston, O‘rta Osiyo tarixi, ilm-fani, adabiyoti, madaniyatiga oid necha minglab noyob qo‘lyozmalar saqlanmoqda.

Samarqand shahri ham qadimiy ilm-fan markazlaridan hisoblanadi. Bu yerda ham kutubxonalar ko‘p. Samarqand shahridagi eng katta va boy kutubxona SamDUning ilmiy kutubxonasidir. Bu kutubxona 1927-yili tashkil topgan. Hozir bu kutubxonada qariyb 3 millionga yaqin ilmiy, badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, darslik va qo`llanmalar mavjud. Bu kitoblar o‘zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, arab, fors-tojik kabi 50 dan ortiq tillardadir. Ilmiy kutubxona ikki qavatli binoda joylashgan. Birinchi qavatda kitoblarni saqlash, ma’lumotlar va kartotekalar bo‘limlari joylashgan. Ikkinchi qavatda katta va yorug‘ o‘quv xonasi, chet tillardagi adabiyotlar, sharq qo‘lyozmalari, gazeta va jurnallar, badiiy va ilmiy asarlar saqlanadigan bo‘limlar hamda professor-o‘qituvchilar uchun alohida qiroatxona joylashgan. Ilmiy kutubxonaning ikkita katta filiali ham bor. Ularda talabalar ko‘proq o‘quv adabiyotlarini o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Ilmiy kutubxona har kuni ertalab soat 8 dan kech soat 20 gacha ishlaydi. Kutubxonaning o‘quv xonasi ertalabdan kechgacha ilmiy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalar bilan gavjum bo‘ladi. Kutubxona xodimlari kitobxonlarga kitoblarni izlab topish va tanlashda yordam beradilar.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan olmosh va son turkumiga xos so`zlarni morfologik tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`zingizning kutubxonangiz haqida so`zlab bering.

O`ZBEKISTONNING HAYVONOT OLAMI

O‘zbekistonning hayvonot dunyosi juda boy va turli-tumandir. Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Zarafshon daryosi, qator suv omborlari va ko‘llarda oltmishdan ortiq baliq turlari, yuzlab turdagi suv qushlari yashaydi. Oqqayroq, tovonbaliq, zog‘orabaliq, laqqa, ilonbosh, olabug‘a, cho‘rtan

baliqlar koʻplab ovlanadi. Ondatra, qunduz, suvsar, nutra, tulki kabi hayvonlar chiroyli moʻynasi uchun ov qilinadi.

Bepoyon choʻllarda, ulkan togʻ tizmalarida, vohalarda 60 turga yaqin sudralib yuruvchilar, 90 turdan ortiq sut emizuvchilar, 410 dan ortiq turdagi qushlar tarqalgan.

Oʻzbekiston hayvonot dunyosi juda qadimiydir. Hayvonlarning ayrim turlari faqat shu yerning oʻzida paydo boʻlgan. Bunday hayvonlarga orol shipi, katta kurakburun baliq, turkiston agamasi, turkiston gekkoni, qum boʻgʻma iloni, xoʻjasavdogar, qoʻshoyoq, koʻk sugʻur, ingichka barmoqli yumronqoziq va boshqalar kiradi. Tekisliklarda sirtlon, boʻri, chiyaboʻri, tovushqon, asalxoʻr, tulki, jayra, tipratikon, jayron, toʻngʻiz, bugʻu, qulon, toshbaqa, kaltakesak, ilon va echkemarlarni uchratish mumkin. Yaqingacha yoʻlbars naʼralarini ham eshitish mumkin boʻlgan.

Togʻlar va uning atroflaridagi oʻrmonlar, chakalakzorlarda ayiq, boʻri, olmaxon, burgut, kalxat, qarchigʻay, qumoy, tasqara, boltayutar, miqqiy, lochin, itolgʻi, qargʻa, quzgʻun, kaklik, qirgʻovullar yashaydi. Ayrim qushlar odamlar bilan qishloq va shaharlarda yonma-yon yashashga odatlanganlar. Bularga qaldirgʻoch, chumchuq, musicha, mayna, kaptar, laylak kabilarni kiritish mumkin.

Odamlar eng qadimgi davrlardan boshlab yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirganlar. Xonakilashtirilgan hayvonlar sirasiga tuya, ot, sigir, qoʻy, echki, choʻchqa, eshak, it, mushuk, quyon, tovuq, kurka, gʻoz, oʻrdak, kaptarlar kiradi. Asalari, ipak qurti kabi hasharotlar ham xonakilashtirilgan.

Hayvonlar qadimdan har xil xomashyo, goʻsht va moʻyna manbai boʻlib kelgan. Hozir ham tirik tabiat mahsulotlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har yili yurtimizdagi baliqchilik xoʻjaliklarida baliqlar koʻpaytiriladi, daryo va koʻllardan ming sentnerlab baliq ovlanadi, minglab moʻynali hayvonlar terisi tayyorlanadi. Qirgʻovul, kaklik, bedana kabi parrandalar ovlanib, parhez goʻsht tayyorlanadi.

Oʻzbekiston hududida zaharli ilonlarning besh turi uchraydi. Ularning zaharidan qimmatli dori-darmonlar tayyorlanadi. Ilon zahri tayyorlashda Oʻzbekiston dunyoda yuqori oʻrinda turadi.

Har yili respublikamizda eksport uchun bir necha oʻn minglab dasht toshbaqalari, tibbiy tajribalar uchun yuz mingdan ortiq koʻl baqalari tutiladi.

Hayvonlar tabiatda va qishloq xoʻjaligida juda katta ahamiyatga ega. Hasharotxoʻr hayvonlar zararkunanda hasharotlarning koʻpayib ketishiga yoʻl qoʻymaydi.

Yovvoyi hayvonlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni ayovsiz ov qilish, baʼzi hollarda butunlay yoʻq boʻlib ketishdan saqlash lozim. Oʻzbekistonda yashayotgan sut emizuvchilarning 22 turi, qushlarning 31 turi, sudralib yuruvchilarning 5 turi, baliqlarning 5 turi Qizil kitobga kiritilgan. Ularni muhofaza qilish zarur.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilishda qo‘riqxonalar muhim o‘rin tutadi. Hozir respublikamizda o‘ndan ortiq qo‘riqxona mavjud. Ularda tabiatning mazkur burchagidagi tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi tabiiy holda saqlanib qolishi kerak.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan yasama so`zlarni aniqlang va ularni so`z turkumlari bo`yicha tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda xonaki va yovvoyi hayvonlar to`g`risida so`zlab bering.

B O Z O R D A

Bozor ham insonlar yaratgan buyuk kashfiyotlardan biridir. Jamiyat taraqqiy etishi bilan kishilar o‘z ehtiyojlaridan ortgan mahsulotlarini bozorga olib chiqadigan bo‘lishdi. Bundan sotuvchi ham, sotib oluvchi ham manfaatdor. Sparqda bozorga bo‘lgan ehtiyoj juda qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Yrrtimizdan Sharq-u G‘arbni tutashtiruvchi «Buyuk ipak yo‘li»ning o‘tganligi ham bejiz emas.

O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlari o‘zining ko‘plab bozorlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan. Hozir ham Toshkentda yigirmadan ortiq, Samarqandda esa o‘ndan ortiq katta-kichik bozorlar mavjud.

Qadimiy va navqiron Samarqanddagi bozorlarning eng kattasi Siyob bozoridir. Bu bozor Toshkent ko‘chasining boshida, Bibixonim masjidi yonida joylashgan. Toshkent ko‘chasining har ikki tarafiga oziq-ovqat mahsulotlari, xo‘jalik, sanoat mollari, esdalik sovg‘alari do‘konlari, dorixona, oshxona, maishiy xizmat uylari qurilgan bo‘lib, ular Registon maydonigacha davom etadi.

Siyob bozoriga Samarqand viloyatining turli tumanlaridan, qo‘shni viloyatlardan har kuni o‘n tonnalab mahsulotlar keltiriladi.

Bozorning shimoliy chetida tunukasozlik, ko‘chatlar, poliz mahsulotlari rastalari joylashgan. Bu yerda kuz va bahor oylarida O‘zbekistonda ekiladigan barcha daraxt ko‘chatlarini, qishin-yozin qovun, tarvuz, oshkadi va oshqovoqlarni sotib olsa bo‘ladi. Bozorning o‘rtasida doimo quritilgan ziravorlar, turli dorivor o‘simliklar: jag‘jag‘, yalpiz, qushtili, ochambiti, ismaloq, otquloq, zubturum, qo‘ziqorinlar sotiladi. Bozorning sharqiy qismi non, qandolat mahsulotlari, guruch, quruq mevalar sotiladigan rastalardan iborat. Bu rastalar yonida olma, nok, uzum, limon, anor, o‘rik, shaftoli, shotut, anjir, xurmo, olcha, qulupnay, gilos, behi, olxo‘ri, ko‘ksulton kabi shirin mevalar sotiladi. Mevalar rastasidan o‘tsangiz, ko‘katlar va

sabzavotlarga ko‘zingiz tushadi. Bu yerda ko‘m-ko‘k kashnich, shivit, shovul, oshrayhon, barra piyoz, sarimsoq, sholg‘omcha kabi oshko‘klar qishin-yozin sotiladi. Dehqonlar o‘zlari yetishtirgan darmondorilarga boy sholg‘om, turp, bodring, karam, piyoz, kartoshka, pomidor, lavlagi, sarimsoq, shirin va achchiq qalampir, sabzi, baqlajon kabi sabzavotlarini sotish uchun mana shu rastalarga keltiradilar.

Siyob bozoridan baliq, tovuq, mol go‘shti, qo‘y go‘shti, sut, qatiq, chakka, pishloq, suzma, qaymoq, qazi hamda hasipning xom mahsulotini tanlab sotib olish mumkin. Bozor yon-atrofi xo‘jalik-ro‘zg‘or buyumlari, sanoat mollari do‘konlari bilan o‘ralgan. Kiyim-kechak, gilam rastalari O‘zbekistonda va xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘la.

Samarqandga kelgan sayyohlar Siyob bozorida sovg‘a uchun sopol, chinni, yog‘och buyumlar, do‘ppi, to‘n, belbog‘, pichoq, zeb-ziynat buyumlari sotib oladilar.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan so`z yasovchi qo`shimchalarni aniqlang va ularni so`z turkumlari bo`yicha tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda bozordan sotib oladigan mahsulotlaringiz haqida gapirib bering.

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Ko‘chaga chiqqanda uchragan birinchi tanishga, do‘stlarga, o‘qish yoki ish joyiga kiriboq hamsaboqlar, hamkasablarga, uyga qaytganda esa oila a’zolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning ma’nosi, eng avvalo, bir-biriga sog‘liq, tinchlik, omonlik tilashdir.Shundan ham ko‘rinadiki, inson uchun sog‘liq, omonlik, tinchlikdan qimmatroq boylik yo‘qdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda «Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sog‘liqlaringiz yaxshimi? Sog‘-omonmisiz?» desak, xayrlashayotganda esa, albatta, «Sog‘ bo‘ling! Xayr, salomat bo‘ling!» deymiz.

Doim sog‘ bo‘lish mumkinmi? Ha, mumkin. Buning uchun o‘z vaqtida rejali ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, o‘qish yoki ishni qat’iy tartib asosida yo‘lga qo‘yish, ertalab badantarbiya qilish, tanani, o‘qish yoki ish joyini doim toza-ozoda saqlash, asabiylashishdan o‘zni tiyish, ko‘proq quvnoq kishilar davrasida bo‘lish, o‘z vaqtida dam olish, turli meva, sabzavot va ko‘katlardan iste’mol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek bo‘lavermaydi. Doim ham bir-birimizni to‘g‘ri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiylashadi.

Asabiylashish esa o‘qish yoki ishdagi dilxiraliklarga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez o‘zgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning o‘zgarishi, o‘qish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy ta’sir etadi. Oqibatda kishi tanasi o‘zining doimiy muvozanatini saqlab turolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog‘ligini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. 2000-yili respublikamizda «Sog‘lom avlod yili» deb e’lon qilindi. Aholi sog‘ligini mustahkamlash yo‘lida alohida xizmat ko‘rsatgan kishilar uchun «Sog‘lom avlod uchun» ordeni ta’sis etilgan. Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilinadi. Ko‘pchilik korxonalarning profilaktoriyalari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sog‘ligini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, o‘nlab sanatoriyalar, dam olish uylari yil bo‘yi ishlab turadi.

Sog‘ligini asrash har kimning o‘z qo‘lidadir. Buning uchun har birimiz uyda, o‘qishda va ishda xushmuomala bo‘lishimiz, rashk, ig‘vo, fitnalarga barham berishimiz, bir-birimizga mehribon bo‘lishimiz, ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlarni tag-tubi bilan yo‘q qilishimiz, chang, tutun va shovqin-so`ronsiz sharoitda yashash, o‘qish va ishlash imkoniyatini yaratishimiz, ovqatlanish va dam olishni to‘g‘ri tashkil etishimiz, asabga tegadigan har qanday omillardan voz kechishimiz, sport bilan shug‘ullanib chiniqishimiz, qisqasi – sog‘lom hayot tarzini yaratishimiz lozim. Ana shundagina dunyoning barcha boyliklaridan ham qimmatroq bo‘lgan sog‘ligimizni asrab, baxtli hayot kechiramiz.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan sakl yasovchi hamda so`z o`zgartuvchi qo`shimchalarni aniqlang va ularni tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`z sog`ligingizni qanday asrashingizni hikoya qiling.

YIL FASLLARI

Biz Quyosh tizimiga kiruvchi sayyoralardan biri – Yerda yashaymiz. Yer Quyoshdan taxminan 150 million kilometr masofada turib uning atrofida aylanadi. Yerning Quyosh atrofida bir marta to‘liq aylanib chiqishi yil deb

ataladi. Yer 365 kunda Quyosh atrofini to‘liq aylanib chiqadi. Yer bir sutkada o‘z o‘qi atrofida to‘liq aylanadi.

Yer Quyosh atrofini aylanib chiqayotganda uning nurlari sayyoramiz yuzasini turlicha yoritadi. Natijada doimiy almashinib turuvchi yil fasllari vujudga keladi.

Quyosh osmonda Yerga nisbatan tik ko‘tarilganda, uning nurlari sayyoramizga to‘g‘ri tushib, uni qizdiradi. Shunda Yer yuzi issiq bo‘ladi. Quyosh baland ko‘tarilmay, uning nurlari qiyalab tushganda, sayyoramiz yuzasi yaxshi qizimaydi, havo sovuq bo‘ladi.

O‘zbekiston O‘rta Osiyoning markaziy qismida – Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ida joylashgan. Faqat Toshkent va Namangan viloyatlari Sirdaryoning o‘ng tomonida, Xorazm va Qoraqalpog‘istonning bir qismi Amudaryoning chap tomonida joylashgan. O‘zbekistonning sharqiy va janubiy-sharqiy qismida Tyan-shan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog‘lari joylashgan. Uning g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy qismiga qarab tog‘lar pasayib boradi, tekisliklar va vodiylarga ulanib ketadi. Vodiylar tugab, cho‘l va qumliklar boshlanadi. O‘zbekiston serquyosh o‘lka. Bu yerda yilning deyarli 250-300 kunida havo ochiq, quyosh charaqlab turadi. Mana shuning uchun ham O‘zbekistonda bahor erta – mart oyidan boshlanadi.

Har yili 22-martda kecha bilan kunduz tenglashadi. Shu kundan boshlab kechalar qisqarib, kunduzi esa uzaya boradi. Quyoshning tik ko‘tarila borishidan tuproq qizib, o‘simliklar, daraxtlar uyg‘onadi. Barcha jonivorlar harakatga keladi. Dehqon, bog‘bon, chorvadorlar bahorgi ishlarga kirishadilar. Qir-adirlar, dalalar ko‘m-ko‘k o‘simliklar, rang-barang gullar bilan bezanadi. Tabiatdagi bunday o‘zgarishlar aprel-may oylarigacha davom etadi. Iyun oyidan issiq yoz fasli boshlanadi. 22-iyunga kelib kunduzlari juda uzayadi, kechalari nihoyatda qisqaradi. Mevalar qiyg‘os pishadi, sabzavot va poliz ekinlari yetiladi. Kechalari 20-25 daraja, kunduzlari 40-45 darajagacha isiydi. Bolalar, hatto kattalar ham ko‘llar, daryolar, cho‘milish havzalaridan chiqishmaydi. Yoz fasli sentabr oyigacha davom etadi.

Sentabr oyidan kuz boshlanib, daraxtlar va o‘simliklarning yaproqlari sariq tusga kiradi. 22-sentabrda kecha va kunduzning kuzgi tenglashishi yuz beradi. Bu tenglashishdan so‘ng kechalar uzaya boshlaydi. Kuzgi mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarini yig‘ishga kirishiladi. Ayniqsa, bu davrda «oq oltin» yig‘im-terimi avjiga chiqadi. Yetishtirilgan hosilni yig‘ib-terish dekabr oyigacha davom etadi.

Dekabr qish faslining dastlabki oyidir. Endi kunlar soviydi, yomg‘ir, ba’zan qor yog‘adi. Turna, laylak, ko‘kqarg‘a, qaldirg‘och, bedana, bulbul kabi qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadi. Shudgorlangan yerlar, yaproqlarini to‘kkan daraxtlar dam oladi, ba’zi hayvonlar qishki uyquga kiradi. Yanvar oyidan boshlab kunlar uzaya boshlaydi. Bolalar issiq kiyimlarga o‘ranib qorbo‘ron o‘ynaydilar, qorbobo yasaydilar, yaxmalak otib, chanada uchadilar.

Fevral oyining oxirlariga borib bahorning ilk elchisi – boychechaklar qor ostidan chiqib, gullay boshlaydi. Mana shu taxlit yil fasllari almashaveradi, biz esa yana bir yosh ulg‘ayaveramiz.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan kelishik qo`shimchalarini aniqlang va ularni tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`zingiz sevgan faslingiz to`g`risida so`zlab bering.

MILLIY VA ZAMONAVIY BAYRAMLAR

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sharafiga shodlik, rasmiy tantana o‘tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o‘yin-kulgi bilan kutib olingan, tantanavor nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e’zozlaydigan o‘ziga xos bayramlari, tantanalari, an’analari bo‘ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, an’analari, tarixi, madaniyati o‘zining yorqin ifodasini topadi. Bayramlarda kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bayram arafasida, bayram kunlari kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, bir-birlariga yaxshi niyatlar izhor etib, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

O‘zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro‘z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami kabilar keng tus olgan. Keyinchalik islom dini bilan bog‘liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bo‘lgan.

Bugungi mustaqil O‘zbekistonda bayramlar dam olish kuni deb e’lon qilingan. Quyidagi sanalar qonuniy bayram kunlari hisoblanadi: 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro‘z, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari hijriy hisobga ko‘ra har yili o‘n kun farq bilan nishonlanadi. Bulardan tashqari, mamlakatimizda 14-yanvar – respublika qurolli kuchlari kuni, 1-aprel – hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni, 1-iyun – bolalarni himoya qilish kuni, 21-oktabr – o‘zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan tarixiy sana sifatida nishonlanib kelinadi.

Bayramlar ichida Navroʻz va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik koʻrishadi.

Sharq xalqlari qadimdan Navroʻzni Yangi yilning birinchi kuni sifatida keng nishonlab kelishgan. Navroʻzda kecha bilan kunduz tenglashib, hayvonlar nomi bilan ataluvchi yil – muchal almashadi. Buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshgʻariy, Nosiriddin Rabgʻuziy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqalar Navroʻzni bahor, uygʻonish, yoshlik, goʻzallik bayrami sifatida tasvirlaganlar.

Navroʻz bayramida uylar, hovli-joylar, choyxonalar, sayilgohlar, bozorlar, qabristonlar tozalangan. Daraxt va gul koʻchatlari ekilgan. Marhumlarning qabrlari ziyorat qilingan. Kishilar ota-onalari, qarindoshlari, doʻstlari bilan diydorlashganlar. Bu kun xonadonlarda sumalak, yalpiz somsa, koʻk chuchvara, halim, goʻja, palov, gʻilmindi kabi tansiq taomlar, turli shirinliklar pishirilgan. Qadimda ham Navroʻzda kishilar bir-birlariga tortiqlar ulashganlar, urushlar toʻxtagan, mahbuslar ozod etilgan, katta xalq sayillari uyushtirilib, uloq, poyga, kurash musobaqalari oʻtkazilgan.

Navroʻzdan keyin dehqonchilik, bogʻdorchilik, chorvachilik ishlari jonlangan. Bu bayram barchani mehnat va ijodga chorlovchi baynalmilal bayramlardan biridir.

Rim imperatori Yuliy Sezar kalendari boʻyicha Yangi yilni nishonlash bizda bir asrdan koʻproq tarixga ega. Aslida bu bayram miloddan oldingi 46-yildan beri nishonlanib kelinadi. Uzoq vaqtlardan beri davom etib kelayotgan an’analarga muvofiq yangi yilni kutib olish uchun archa va u oʻrnatilgan bino bezatiladi, rang-barang elektr chiroqchalari bilan oʻraladi. Dasturxon yozilib, turli taomlar, shirinliklar bilan toʻldiriladi. Tantanaga qorbobo bilan qorqiz taklif etiladi. Bayram marosimi tungi soat 24 dan soʻng – yangi yil kirgach, yana davom ettiriladi.

Bayramlar kishilar oʻrtasida mehr-muhabbat, bir-biriga gʻamxoʻrlik, oʻzaro hurmat-e’tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling.
3. Matnda qo`llangan so`zlarni tuzilishiga ko`ra tahlil qiling.
5. Matndan ijodiy foydalangan holda sevimli bayramingiz haqida gapirib bering.

SHARAFLI KASB

Ibtidoiy jamiyat davridayoq odamlar ovchilik, keyinroq esa chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik bilan shugʻullanganlar. Jamiyat rivojlangan sari

ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham koʻpayib borgan. Bugungi kunda jamiyatimizni novvoy, uchuvchi, huquqshunos, konstruktor, sartarosh, operator, oshpaz, soatsoz, shaxtyor, etikdoʻz, haydovchi, traktorchi, gʻisht teruvchi, suvoqchi, ekskovatorchi, buldozerchi, payvandchi, aktyor, boʻyoqchi, xonanda, rassom, shifokor, musiqachi, sotuvchi, bastakor, duradgor, temirchi, hisobchi, naqqosh, chilangar, broker, yozuvchi, menenjer va hokazo kabi yuzlab kasblarsiz tasavvur etib boʻlmaydi.

Koʻpchiligimiz hali maktabga bormasimizdanoq, ayrimlarimiz esa maktabda oʻqiy boshlagach, oʻzimizga kasb tanlaymiz. Kimdir mashhur sportchi, kimdir taniqli jurnalist, yana kimdir mohir tikuvchi, tergovchi, quruvchi, kosmonavt, harbiy mutaxassis boʻlishni orzu qiladi. Har birimiz shu ezgu orzuyimizga erishish, tanlagan kasbimizni egallash uchun tinmay oʻqiymiz, izlanamiz, intilamiz.

Dunyoda shunday bir sharafli kasb egalari borki, ular ming yillardan beri barcha xalqlar orasida el-yurt hurmatiga sazovor boʻlib keladi. Bu kasb koʻpchiligimiz sevadigan oʻqituvchilikdir. Bu kasbning naqadar sharafli ekanligini miloddan oldin oʻtgan buyuk yunon faylasufi Arestotelni «birinchi muallim», X asrning ulugʻ qomusiy olimi Abu Nasr Forobiyni «ikkinchi muallim» deb ataganliklaridan ham bilsa boʻladi.

Oʻqituvchi endigina atrof-olamni koʻrib, uning ajoyibotlaridan hayratlanayotgan 7-8 yoshdagi bolalarga moʻjizalar yaratishni: yozish, oʻqish, hisoblash, goʻzallikni his qilish va oʻz taassurotlarini hikoya qilish, tasvirlash, kuylash orqali boshqalarga yetkazishni oʻrgatadi.

Ota-ona oʻz farzandini sogʻlom qilib oʻstiradi, kiyim-kechak, oziq-ovqat, oʻquv qurollari va boshqalar bilan taʼminlaydi, odob-axloq oʻrgatadi. Oʻqituvchi ham har bir oʻquvchini oʻz farzandidek yaxshi koʻrib, unga taʼlim-tarbiya beradi. Oʻz oʻquvchisining tarbiyali, madaniyatli, bilimli, hunarli, hozirjavob, mehribon inson boʻlib kamol topishi uchun bor bilimi hamda kuchini sarflaydi. U shogirdlarining har bir mavaffaqiyatidan oʻzi erishgan gʻalabadek quvonadi. Muvaffaqiyatsizligidan qaygʻuradi.

Kishining jamiyatda oʻz oʻrnini topib olishida ota-ona va bilimdon oʻqituvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Shuning uchun ham xalqimiz otani ulugʻlab «ota rozi – xudo rozi» desa, ustozlarni ulugʻlab «ustoz otangdek ulugʻ» deydi.

Mamlakatimizda ustoz-murrabiylarga hurmat-eʼtibor katta. Har safar oʻquv yili tugashi bilan hurmatli ustozlarimiz ikki oylik mehnat taʼtiliga chiqadilar. Dam olish hamda salomatliklarini tiklash uchun respublikamiz va xorijdagi dam olish uylari, sanatoriya va kurortlarga yoʻllanmalar olishadi. Davlat tomonidan yaratilgan turli imtiyozlardan foydalanadilar. Koʻpchilik oʻqituvchilarimiz ijodkorligi, tashabbuskorligi, taʼlim-tarbiya berishdagi alohida xizmatlari uchun orden va medallar, «Oʻzbekiston Respublikasida

xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi», «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi» va boshqa shu kabi faxriy unvonlarga sazovor bo‘ladilar.

Biz savod o‘rgatgan, ta’lim tarbiya bergan, ilm cho‘qqilariga yo‘l ko‘rsatgan muhtaram ustozlarimizni hech qachon unutmaymiz.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling va mazmunini o`zbek tilida gapirib bering.
3. Matnda qo`llangan so`z yasovchi qo`shimchalarni aniqlang va ular yasagan so`zlarni izohlang.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda sevimli o`qituvchingiz haqida so`zlab bering.

O`ZBEKISTON KINOSI

XX asrning oxiriga kelib harakatdagi narsalarni plyonkaga tushiradigan asbob ixtiro qilindi. U yunoncha kinematograf, ya’ni kinema – harakat va grafo - yozaman so`zlari bilan nomlandi. Keyinchlik u kinokamera nomi bilan yuritiladigan bo`ldi.

Hozirgi hayotimizni kinosiz tasavvur eta olmaymiz. Kino hayotimizning barcha sohalariga kirib bordi. Yer va fazodagi turli – tuman hodisalar, barcha mavjudod, shaharlar, qishloqlar, tog`lar, dengizlar, ko`l va o`rmonlar, insonlar, hayvonlar, o`simliklarni kino haqqoniy va ravshan ko`rsatadi. Axir fransuz olimi Kustoning suv osti olami haqidagi filmlarini kim qiziqish bilan tomosha qilmaydi?

Kino kishilarni his etish va fikrlash, yovuzlikdan nafratlanish va go`zallikdan zavqlanishga o`rgatadi.

Film ustida ishlash kinosenariydan boshlanadi. Unda bo`lajak filmning mazmuni eng mayda detallarigacha aks etadi, aktyorlarning harakatlari, aytadigan so`zlari yoziladi. Shundan so`ng film uchun aktyorlar tanlanadi, rassomlar kiyim va dekoratsiya tayyorlashadi, bastakorlar kuy ijod etishadi. Kinorejissor, kinoaktiyor, kinooperator va montajchilar har qanday filmning mukammal chiqishi uchun tinmay ishlaydilar.

O`zbek kinosi san’ati XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. O`sha davrdan hozirgacha minglab badiiy, ilmiy, ommabop filmlar yartilgan. Bugungi kunda videofilmlar yaratish yanada rivojlanmoqda.

O`zbek kinochilari yaratishgan “Tohir va Zuhro”, ”Alisher Navoiy”, “Sen yetim emassan”, “Mahllada duv-duv gap”, “O`tgan kunlar”, “Shum bola”, “Dahoning yoshligi” kabi ko`plab badiiy filmlarni hamma sevib tomosha qiladi.

Nabi Rahimov, G`ani A’zamov, Rahim Pirmuhammedov, Hamza Umarov, Lutfixonim Sarimsoqova, Mariyam Yoqubova, Zikr

Muhammadjonov, Sohib Xo`jayev kabi o`nlab iste'dodli san'atkorlar yaratgan o`lmas obrazlar o`zbek kinosi tarixida muhim o`rin tutadi.

Mustaqillik davriga kelib o`zbek kinochilari yaratayotgan filmlar mavzu va mazmun jihatidan boyidi. Ular zamondoshlarimiz obrazini yaratish bilan birgalikda boy tariximiz sahifalarini ham jonlantirishga harakat qilishmoqda.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling va mazmunini gapirib bering.
3. Matnda qo`llangan so`zlarni morfologik tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`zingiz yoqtirgan biror film haqida gapirib bering.

O`ZBEK KURASHI

Sog`lom bo`lishni istagan har qanday inson muntazam ravishda badantarbiya bilan, biror bir sport turi bilan shug`ullanishi lozim. O`zbek xalqining ota-bobolari qadim zamonlaridan beri ko`plab sport turlari bilan shug`ullanib kelishgan. Bu sport turlaridan poyga, uloq chopish, chavgon, kurash, merganlik, shatranj, tosh ko`taish, arqon tortish kabilar xalq orasida keng tarqalgan. Bu sport turlar bo`yicha bayramlarda, to`ylarda musobaqalar o`tkazilganligi haqida o`zbek xalq og`zaki ijodi namunalarida, "Alpomish", "Go`ro`g`li" kabi dostonlarda, tarixiy kitoblarda ko`plab ma'lumotlar mavjud. Hozir ham bayramlar, to`ylar qiziqarli kurash, ko`pkari musobaqalarisiz o`tmaydi.

O`zbek kurashi haqida chet elliklarga birinchi marta 1992-yilda Kanadada dyuzdo bo`yicha bo`lib o`tgan jahon chempionatida hamda xalqaro dzyudo fediratsiyasi kongressida ma'lumot berilgan edi. O`zbek kurashi, uning qonun qoidalari haqida to`liq ma'lumotlar Yaponiya, Hindiston, Buyuk Britaniya va Monakoda bo`lib o`tgan xalqaro forumlarda e'lon qilingan edi. Shu tariqa, bizning milliy kurashimiz chet ellik sportchilar va sport mutaxassislarining diqqatini jalb etdi.

1998-yil 6-7 – sentabr kunlari Toshkentda kurash bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun I xalqaro turnirda 20 dan ortiq mamlakt vakillari qatnashdi. Shu kunlari Toshkentda o`zbek kurashi ta'sis kongressi bo`lib o`tdi va unda Xalqaro kurash assotsiatsiyasining faxriy Prezidenti saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 1-fevralda assotsiatsiyani qo`llab-quvvatlash to`g`risida chiqargan farmoni o`zbek kurashining na faqat respublikamizda, butun jahon bo`ylab keng tarqalishiga turtki bo`ldi. 1999-yil 1-mayda Toshkentda o`zbek kurashi bo`yicha birinchi jahon chempionati bo`lib o`tdi. Unda dunyoning ellikka yaqin mamlakati vakillari ishtirok etishdi. Bungacha o`tkazilgan biror sport turi bo`yicha

birinchi jahon chempionatida bunchalar ko`p mamlakat vakillari ishtirok etishmagan. Hamyurtlarimiz T.Murodov, A.Qurbonovlar o`z vaznlari bo`yicha bu musobaqalarning birinchi chempionlari bo`lishdi

Bugungi kunga kelib dunyoning turli burchaklarida jahon miqyosida o`tkaziladigan o`zbek kurashi musobaqalarida kurash, yonbosh, chala, halol, g`irrom kabi bir qancha o`zbekcha atamalar barchaning havasini keltirib, jaranglaydigan bo`ldi. Biz dunyo miqyosiga chiqqan o`zbek kurashi bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling va mazmunini o`quv tilingizda so`zlab bering.
3. Matnda qo`llangan turdosh otlarni aniqlang va ularning ma'nosini izohlang.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`zingiz shug`llanadigan sport turi haqida gapirib bering.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Samarqand shahri Osiyoning eng qadimgi ilm-fan o`choqlaridan biri hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxti bo`lgan Samarqand shahri o`rta asrlarda yuksak taraqqiy etgan madaniy markaz darajasiga ko`tarildi. Bu qadimiy shahardan yetishib chiqqan o`nlab olimlar dunyo ilm-faniga o`zlarining munosib ulushlarini qo`shishgan.

Har yili minglab mutxassislar yetishtirayotgan Samarqand davlat universiteti 1927-yil 22-yanvarda tashkil etilgan. Dastlab bu yerda ijtimoiy-siyosiy, fizika, texnika, tabiatshunoslik, tilshunoslik, bo`limlari ochilib, atigi o`ntagina professor-o`qituvchi 65 talabaga dars o`tish bilan ish boshlagan. Yildan-yilga fakultetlar, mutaxassisliklar ko`payib bordi. Xuddi shuningdek, ta'lim beruvchi professor- o`qituvchilar, tahsil oluvchi talabalar soni ham ortib bordi. Bugungi kunga kelib Samarqand davlat universitetining to`qqiz fakultetida mexanika- matematika, o`zbek filologiyasi, tarix, iqtisodiyot, informatika, rus filologiyasi, geografiya, biologiya, musiqa, fizika, kimyo, ijtimoiy fanlar, huquqshunoslik, jismoniy madaniyat, tojik filologiyasi, boshlang`ich ta'lim, psixologiya, defektlologiya, kasbiy ta'lim kabi yo`nalishlarda 35 mutaxassislik bo`yicha ilmiy hamda pedagogik kadrlar tayyorlanmoqda. Mustaqillik davriga kelib "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqib har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga e'tibor kuchaytirilmoqda. Yangicha dastur asosida bakalavr va Samarqand shahridagi eng katta kutubxonalardan hisoblanadi. Hozir universitet kutubxonasida dunyoning ellikdan ortiq tillaridagi uch millionga yaqin qimmatbaho kitoblar, darslik va qo`llanmalar jamlangan. Ayniqsa, kutubxonaning sharq qo`lyozmalari bo`limida dunyo ahamiyatiga molik

asarlar saqlanadi.Talabalarga kutubxonaning ikkita filliali va yigirmaga yaqin qiroatxonalari beminnat xizmat qilmoqda.

Universitet talabalari uchun bir nechta yotoqxonalar qurildi. Fakultetlar va yotoqxonalar atrofida o`ndan ortiq oshxona, tamaddixona, choyxonalar professor-o`qituvchilar hamda talabalarga xizmat qiladi.

Samarqand davlat universitetini bitirganlar orasida o`nlab akademiklar, fan arboblari, davlat arboblari yetishib chiqqan. Bu yerda Hamid Olimjon, Oydin, Mirtemir, Amir Umariy, Usmon Nosir, O`tkir Rashidov, Sharof Rashidov, Adham Hamdam, Asqad Muxtor, Shukur Sa'dulla, Dushan Fayziy, Omon Matchon, Normurod Narzullayev, Barot Boyqobilov kabi mashhur shoir va yozuvchilar ta'lim olishgan.

Bugungi kunda turli yo`nalishlar bo`yicha ta'lim olayotgan talabalar mustaqil O`zbekiston ilm-fani, madaniyati, shon-u shuhratini dunyoga tanitish maqsadida tinmay izlanmoqdalar, ijod qilmoqdalar, bobokalonlari ilmiy merosini chuqur o`zlashtirmoqdalar.

Topshiriqlar:

1. Matn bo`yicha lug`at tuzing.
2. Matnni tarjima qiling va mazmunini o`zbek tilida so`zlab bering.
3. Matndagi unli tovushlar va ularning imlosini tahlil qiling.
4. Matndan ijodiy foydalangan holda o`zingiz o`qiyotgan fakultetingiz haqida gapirib bering.

BADIIY MATNLAR

IBN SINO VA KITOBLAR

\ Roviylar rivoyat qilishlaricha, Buxoro muzofotida dunyoga dong‘i ketgan, mashhur, hakimlarning hakimi dono Ibn Sino o‘tgan ekan. Ibn Sino yoshligidanoq ilm-fanga berilib, ko‘p o‘qibdi. O‘qigan kitoblari borki, uqibdi, yod olibdi. Bundan tashqari hayvonlarning «gap-so‘z»larini ham, parranda-darrandalarning tilini ham, giyohlarning holatini ham biladigan, tushunadigan bo‘libdi. Bolalar o‘yin-kulgu bilan band bo‘lishsa, Ibn Stno turli giyohlarning xususiyatlarini o`rganibdi. Bola chumoli, qumursqalarni tutish, ilon, qurbaqalarni ushlash bilan ovora ekan. O‘z-o‘zidan giyohlardan dori-darmonlar tayyorlab, oshnalaridan birini kasal qilib, uni davolash bilan shug‘ullanarkan. Bolasidagi bu qiliq-odatlarni ko‘rgan ota-ona uni maktabga beribdilar. Ibn Sino maktabda o‘qiladigan kitoblarni allaqachon o‘qib, ularni uqib olgan ekan. Shuning uchun maktabga bormay qo‘yibdi. Ota-onasi shaharda o‘qisin, deb Buxoroga ko‘chib kelishibdi. Ammo madrasadagilar eshigiga yaqinlashtirishmabdi. Ibn Sino noiloj yana o‘zicha o‘qib, uqib

yuraveribdi. Yana giyoh, o‘t-o`lanlar to‘plab, ular ustida soatlab, kunlab, haftalab mashq qilib yuraveribdi.

Ba’zi bir kasallar oldiga kelsa davolab, dardiga shifo bera boshlabdi. Bora-bora juda ham zo‘r tabib bo‘lib ketibdi. Ammo ko‘pchilikka bildirmabdi, tabibligini sir saqlamasin, sirlari oshkora bo‘laveribdi. Chunki «Gapni gap quvadi, sirni sir ochadi», degan gap bor. Ibn Sinodan shifo topgan odam bugun bir bo‘lsa, ertasiga ikki bo‘libdi. «Men falonchidan shifo topdim», deb bir kishi ikkinchi kishiga aytsa, ikkinchisi unga yana qo‘shib, «falonchi-falonchi Ibn Sinodan shifo topibdi, kasal edi, tuzalibdi», – deb gap tarqataveribdi. Hamma yoqqa ovozasi ketibdi. Shunday bo‘lsa ham g‘alamis tabiblar uni tan olishmas, shaharga yo‘latishmas ekan. Kunlardan bir kuni dong taratishda Samarqandga teng keladigan, balkim undan o‘tadigan Buxoro shahrining xoni kasalga chalinib, yotib qolibdi. Avvaliga saroy tabiblari «Hech gapmas, xonimiz tuzalib ketadilar, kasallari unchalik og‘ir emas», – deyishibdi. Qarashibdi, davolashibdi, xon tuzalmabdi. Keyinchalik boshqa mamlakatlardan man-man degan tabiblarni oldirib kelib, qaratishibdi, xon tuzalmabdi. Hech kim xonning dardiga malham topa olmayotganini ko‘rib, xon kishilari xavotirga tushib qolishibdi. «Endi xonimiz o‘lib qolarkan-da», – deyishib, o‘zlarini u yoqqa urishibdi, bu yoqqa urishibdi, hech nima chiqarisholmabdi. Oralaridan birovining esiga Ibn Sino tushib, shuni chaqirtirsak-chi, deb qolibdi. Bu gap hammaga ma’qul tushibdi. Tezlikda Ibn Sinoni saroyga keltirishibdi. Bosh tabib unga yalinib-yolvoribdi:

– Ulug‘ xonimizning amr-u farmonlari shunday. Biz u kishini davolab, shifo toptirishimiz kerak. Aks holda hammamizning kallamiz qilichdan o‘tkazilur yohud dorga tortilurmiz, – debdi. Ibn Sino:

– Men nima qilmog‘im darkor? – deb so‘rabdi.

– Xonimizni tuzatmog‘ing darkor, – deb javob beribdi bosh tabib. Ibn Sino:

– Kasalni ko‘rmay, tomirini ushlamay, qanday davolayman. Axir meni uning oldiga olib kiringlar-da, – debdi. Bosh tabib Ibn Sinoni xonning oldiga olib kiribdi. Ibn Sino kasalni ko‘rib, tomirini ushlabdi-da, iziga qaytib, qishlog‘iga qarab ketibdi. Ibn Sinoning kasalni ko‘rib, tomirini ushlab hech nima demasdan qishlog‘iga qaytib ketganini xon o‘zicha, tabiblar o‘zicha tushunishibdi. Xon: «Kasalim og‘ir ekan, endi o‘lar ekanman», deb o‘ylagan bo‘lsa, tabiblar: «Ibn Sino haliyam bizdan xafa ekan. Shohni tuzatsam bular omon qoladi, tuzatmasam ularning boshi ketadi», – deb o‘ylashibdi. Xon tabiblarni yoniga chaqirib: «Kasalimni tezlikda tuzatmasalaring, bola-chaqalaringni o‘zlaringga qo‘shib dorga torttiraman», – debdi. Tabiblarning yana boshlari qotibdi. Ibn Sinoga yana odam yubormoqchi bo‘lishibdi. Shu payt Ibn Sinoning o‘zi kirib kelibdi-da, xonga o`zi uyida tayyorlagan dorini beribdi. Xon dorini ichibdi. Ibn Sino hech kimni yoniga yo‘latmay, xonning

boshida unga tikilgancha o‘tiraveribdi. Xon uyquga ketibdi, ancha vaqt o‘tgandan keyin o‘ziga kelib, yemak so‘rabdi. Ibn Sino suv berishlarini buyuribdi. Xon o‘ziga kelib, tuzalib qolgach, Ibn Sinodan, nima bersam xursand qilgan bo‘laman, debdi. Ibn Sino hech narsa talab qilmabdi. «Bir qop tilla ol!» – debdi xon. Ibn Sino qabul qilmabdi. «Yurt so‘ra, yurt beray», – debdi xon. Ibn Sino hech narsa olmasligini aytibdi. «Suruv-suruv ot, qo‘y beray», – debdi xon. Ibn Sino yana, hech nima kerak emas, debdi. Xon so‘ra, beray, deyavergach, Ibn Sino: «Xonim, men harakat qildim, xudo shifo berdi-yu, tuzalib oyoqqa turdingiz. Menga hech qanday tilla ham, yurt ham, suruv-suruv ot, qo‘ylar ham kerak emas, qishlog‘imizga bir qiroatxona qurdirib, qirq tuya kitob bersangiz bo‘lgani», –debdi. Xon xursand bo‘lib, barcha ustalarni yig‘dirib, Ibn Sino qishlog‘iga katta qiroatxona qurdirishga kirishibdi. Butun dunyoga jar soldirib kitob yig‘diribdi, o‘zining boy kutubxonasidan ham eng nodir kitoblardan olib, 40 tuyaga yuklatib, Ibn Sino qishlog‘iga jo‘natibdi. Qiroatxona bitib, kitoblar keltirib bo‘lingach, Ibn Sino kutubxona ichiga kirib ketibdi. Xonni o‘limdan olib qolgan Ibn Sino og‘izga tushib, dong‘i har yonga ketibdi. Boshqa tabiblar unga hasad bilan qaray boshlabdi. Ko‘pchilik bo‘lib, Ibn Sinoning oldiga borishibdi. Kutubxonaga kirib kitoblar orasidan Ibn Sinoni zo‘rg‘a topishibdi-da undan:

– Xonlikdan kelganingizdan beri shu yerda kitob titkilab yotibsizmi? – deb so‘rashibdi. Ibn Sino:

– Ha, eng yaqin do‘stlarim – kitoblar bilan suhbat qurib, kun-u oy, hafta-yu yillar o‘tganini ham sezmayapman. Miyamni ilmga, cho‘ntagimni hazinaga to‘ldirish bilan bandman, – debdi.

– Tabiblik-chi, tabiblikni tashladingizmi? – deb so‘rabdi tabiblardan biri.

– Yo‘q, tabibligimni qiyomiga yetkazmoqdaman. Avval ulug‘ ustozlarimning pand-u nasihatlari, ko‘rsatmalarini bilib olib, keyin davolashga o‘taman. Men shu kungacha o‘zimni zo‘r tabib hisoblab katta xatoga yo‘l qo‘ygan ekanman. Endi mana bu kitoblardan olganlarimni amaliyot bilan mustahkamlay olsamgina, o‘zimni tabib deb atashga haqliman, – debdi. Tabiblardan yana biri:

– Bordi-yu, kutubxonangizga o‘t ketsa, nima bo‘ladi? – debdi. Ibn Sino:

– Avvalambor, kutubxonaga o‘t ketishdan xudo saqlasin, bordi-yu, falokat ro‘y berib, o‘t ketsa, unda cho‘chiydigan joyim yo‘q. Hammasini yod bilurman. Qaytadan yozib chiqishga umrim yetsa kifoya, – debdi. Tabiblar Ibn Sinoning zehni bilan xotirasiga qoyil qolib, kelgan joylariga qarab ketibdilar. Oradan kunlar o‘tibdi, oylar o‘tibdi, baribir tabiblar hasad qilishni qo‘ymabdilar. G‘alamislik yo‘liga o‘tib, Ibn Sinoning kutubxonasiga o‘t qo‘yibdilar. Bundan xabar topgan Ibn Sino chopib borib, kutubxona ichiga kirib ketibdi. «Yaxshisi, do‘stlarim bilan birga yona qolay», – deya kitoblar

orasida o‘tiraveribdi. Odamlar uni zo‘rg‘a qutqazib qolishibdi. Ibn Sino kuygan kitoblarni yoddan qayta bitib, tiklabdi-da, kutubxonani yangitdan qurdiribdi. U umrining ko‘p qismini o‘sha yerda o‘tkazgan ekan.

“Asotirlar va rivoyatlar”dan.

INSONNING QADR-QIMMATI BILIM BILAN BELGILANISHI HAQIDA

Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi, u salohiyat, bilim va zakovatga ega bo‘ldi.

Unga tabiat aql va ong ato qildi, so‘zlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va go‘zal fe’l bilan ta’minladi.

Unga bilim hadya qildi, shu tufayli inson ulug‘likka erishdi, zakovatlar ato qildi, shu tufayli inson chigal jumboqlarni hal qildi.

Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo‘l uradi.

Bilimning buyukligini va zakovatning ulug‘ligini anglagin, bu ikkalasiga ega bo‘lgan sara kishilar ulug‘likka erishadilar.

Buning dalili uchun mana shunday ibratli so‘z bordir, sen uni eshitgin va bu borada so‘zni cho‘zmagin.

Zakovat har yerda ham ulug‘likka eltadi, kimda bilim bo‘lsa, u ulug‘likka erishadi.

Zakovatlilar uqadilar va bilimlilar biladilar, bilimli va zakovatlilar tilaklariga yetadilar.

Bilim haqida nimalar deyilgan, bu so‘zning ma’nosini chaq, bilimli kishilardan balo-ofatlar yiroqlashadi.

Blimsiz kishilar misoli dardmand bo‘ladilar, dardni davolamagan kishi esa bevaqt o‘ladi.

Kel, ey bilimsiz johil, dardingga davo qilgin, bilimsiz bo‘lsang xor-u zorsan, bilimlilar esa baxtiyordirlar.

Bilim misoli boshbog‘ kabidir, unga ega bo‘lgan kishini u tilaklari sari eltadi, orzulari tomon boshlaydi.

Odamda zakovat bo‘lsa nafi kattadir, bilim o‘rgangan kishlar aziz va qadrli bo‘ladilar.

Barcha ish-yumushlar zakovat tufayli bitadi, beklar ham davr-u davlatga bilim orqasidan erishadilar.

Yusuf Xos Hojib

TILNING FAZILATLARI, FOYDA VA ZARARLARI HAQIDA

Zakovat va bilimning ochqichi tildir, odamni yorug‘likka boshlovchi til – ravon tilni o‘rgangin.

Odamni til ulug‘laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi.

Til qafasda yotuvchi arslon kabidir, qafasdagi g‘addor vahshiy boshingga yetishi hech gap emas.

Til tufayli ozor chekkan odam nima deydi, eshit, bu so‘zga amal qilib o‘zingga manfaat ol:

Tilim meni juda ko‘p kulfatlarga soladi, tilim mening boshimni kesmasidan burunroq men tilimni kesayin.

So‘zlaringga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin, tilingni tiyib tut, u tufayli tishing sinmasin.

Odamning tili yomon, u doim sen haqingda so‘zlaydi, kishilarning fe’li hasadli, ular seni g‘ajishga ham tayyor turadi.

Bilimlilar til haqida puxta ta’lim bergandirlar: ey til sohibi, boshingni asragin, deganlar.

Sen o‘zingning eson-omonligingni istasang, tilingdan zinhor yaramas so‘zlarni chiqarmagin.

Bilib-tushunib so‘zlangan so‘z donolikdan dalolatdir, nodon-johilning so‘zi o‘z boshini yeydi.

Ko‘p so‘zlashdan ortiqcha naf ko‘rmaganman, so‘zning ko‘pidan foyda ham topmaganman.

So‘zni ko‘p so‘zlamasdan biroz oz so‘zlagin, ming so‘zli chigalni bir so‘z bilan yechgin.

Odam so‘z tufayli ulug‘likka erishadi, podsho bo‘ladi, ko‘p va ortiqcha so‘z esa yuzni yerga qaratadi.

Haddidan ortiq so‘zlaganlarni ezma deyishadi, shuningdek hech so‘zlamaganlarni gung deb atashadi.

Modomiki shunday ekan, o‘rtacha yo‘riqqa amal qil, o‘rtacha yo‘riqqa amal qilgan odam yuksaklikka erishadi.

Tilingga juda ehtiyot bo‘lgin, boshing omon saqlanadi, so‘zingni qisqa qilsang, yoshing uzayadi.

Tilning foydasi juda ko‘pdir, sen o‘zingni bosib ol, til goho maqtaladi, goho tahqirlanadi.

Modomiki shunday ekan, so‘zni bilib so‘zla, so‘zing ko‘rmas ko‘rlar uchun ko‘rar ko‘z bo‘lsin.

Bilimsiz kishi shubhasiz ko‘rdir, kel ey bilimsiz nodon, bilimdan o‘zingga ulush olgin.

Tug‘ilganlar o‘ladi, nom-nishonsiz va izsiz bo‘lib ketadi, so‘zingni ezgu so‘zlasang, o‘lsang ham so‘zing bilan mangu qolasan.

Odam ikki narsa tufayli qarimaydi: biri–yaxshi fe’li, ikkinchisi esa ezgu so‘zi.

Odam tug‘iladi va o‘ladi, uning so‘zi qoladi, inson o‘ladi, uning nomi mangu qoladi, buni unitma.

O‘zing o‘lmas mangu nom istasang, fe’lingni va so‘zingni ezgu tutgin, ey dono.

Tilning foydasi va zararlari haqida anchagina gapirdim, bundan maqsadim senga ushbu so‘zlarni aytish edi.

Har qanday so‘zni so‘zlayverilsa, aqldan bo‘lmaydi, odam kerakli so‘znigina so‘zlaydi, uni yashirmaydi.

So‘zlarimni senga so‘zladim, ey o‘g‘lim, bu pand-nasihatlarni senga qildim, ey jigarbandim.

Mendan senga kumush va oltinlar qolsa, sen ularni bu so‘zlarga teng tutib almashmagin.

Oltin-kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi, so‘zlarimni ishga solib amal qilsang oltin-qumush keltiradi.

Odamdan odamga meros bo‘lib so‘z qoladi, bu meros qolgan pand-nasihatlarga amal qilinsa nafi behisob bo‘ladi.

Yusuf Xos Hojib

MENING O‘G‘RIGINA BOLAM

Otamizning o‘lganiga anchagina yil o‘tib ketdi. Bu yil – o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik. Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Robiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab «qora buvi» deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvin-to‘da ko‘rpa-yostiqlarga o‘ralib, bittagina O‘ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so‘nggi bo‘lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo‘roz o‘tgandan keyin, Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozdan uyg‘onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo‘lib, to‘rt burchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda boqqa ko‘chib ketadilar. Hozir ular tomon bo‘sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kepti. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda. Ertaga o‘rtoqlarimga rosa maqtanadigan bo‘ldim-da. «Biznikiga o‘g‘ri keldi». G‘urur bilan aytilsa bo‘ladi. Lekin ishonisharmikin?

O‘g‘ri o‘sha amakivachalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to‘g‘rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko‘kraklariga

qo‘yib, til tagidagi nos bilan o‘ylab yotar ekanlar. Buvim puf deb nosni tuflab, tomga qarab:

– O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi, - debdilar.

O‘g‘ri tomdan turib:

– Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? – debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uyg‘onib ketgan bo‘lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

– Hoy, aylanay o‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi. Mana, olti oy bo‘ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kunduz kunlari garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o‘tirib mizg‘iganday qushuyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

– Nimalarni xayol surasiz, buvijon? – Bu gapdan keyin ustidagi to‘nini turmuchlab bo‘g‘otning ustiga yostiq qilib, o‘g‘ri ham yonboshlab oldi.

– Nimalarning xayolini surardim. Shu to‘rtta yetimning ertasini o‘ylayman-da. Zamonni o‘zing ko‘rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko‘ziday non anqoga shapig‘. Hali bularning qo‘lidan ish kelmaydi. So‘qqaboshgina aravakash tog‘alarining topgani o‘zining ro‘zg‘oridan ortib, bularga qut-loyamut bo‘lishi qiyin. Ro‘zg‘orda bo‘lsa, ko‘z ko‘rib, qo‘l tutguday arzigulik buyum qolgani yo‘q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog‘ chidamas», deganlar. Eh-a, bu bolalar qachon ulg‘ayadi-yu, qachon o‘zining nonini topib yeydigan bo‘ladi. Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag‘in bu yetimlarning bittaginasi o‘g‘il, uchtasi qiz. Endi o‘n to‘rtdan o‘n beshga o‘tdi. Qizlari qurg‘ur qachon bir yerga ilashib ketadi-yu. O‘zi o‘rab, o‘zi chirmab oladigan joy chiqmasa bularga kimning ham ko‘zi uchib turibdi, deysan. Zamon qattiq, o‘g‘rigina bolam, zamon qattiq!

– To‘g‘ri aytasiz bu‘vijon, - dedi o‘g‘ri, - mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To‘rtta chavati non topish uchun o‘zimni o‘tga, cho‘qqa, Alining tig‘iga uraman. Bo‘lmasa ishlay desam bilagimda quvvat bor, aql-u hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o‘g‘rilik kasbi yoqadi deysizmi. Tuppa-tuzuk ayolomand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo‘lgandan keyin urush to‘xtaydi degan edilar. Hali-beri to‘xtaydigan ko‘rinmaydi. Hali ham zamon-zamon o‘sha iligi to‘qlarniki.

– Biror boshqa kasb qilsang bo‘lmaydimi, bolam, - dedi kampir.

– Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasb kavushdo‘zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig‘ining o‘zi, bitib chiqqan kavushdan uch

baravar qimmat. Hammollik qilay desam, avvalgidek qoplab g‘alla, qoplab savzi-sholg‘om oladigan badavlatlarning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo‘zlaridan Buvamat ota butun qolip-u, shon-u, so‘zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo‘xori unga movaza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to‘ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o‘n beshta yetim yuvuqsiz qo‘lini cho‘zib «amaki non bering» deydi. Non-a, o‘zimnikiga topolmayman-u. Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo‘zchilar ham, ko‘nchilar ham boringki, maktab domlalari ham, mullavachchalarning ham rangi pano. Bir qoshiq obi yovg‘onga zor. Sanqib yuribdi.

– Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin. Qiyomat-qoyim degani shudirda-a, o‘g‘rigina bolam. Ha, mayli shu yetimlarning ham peshonasiga yozilgani bordir. Xo‘sh, endi o‘zingdan so‘ray. Axir, noilojlikdan-ku, shu harom yo‘lga qadam bosibsan, o‘ziga to‘qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo‘lmaydimi? Mana, shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor. Odilxo‘jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko‘nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo‘lmaydimi?

– Ey, buvim tushmagur, soddasiz-sodda, - dedi o‘g‘ri. –Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishi(yo‘lak)da-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o‘ldirmaganda ham Sibir qilib yuboradi.

– Bu gaping ham to‘g‘ri, o‘g‘rigina bolam. Ammo, lekin ehtiyot bo‘l. El-yurtning oldida tag‘in badnom bo‘lib qolmagin, - dedi bizning kampir.

– Gapingiz to‘g‘ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to‘rtta tovuq, bitta xo‘roz o‘margan edim.

– Tovuq-xo‘roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg‘ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

– Hamma ishning ham o‘z maromi bo‘lar ekan buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘ayapti shekilli deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, xap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman.

– Shunaqa degin, voy tovba-ey. Hamma hunarning ham o‘zining murti gardoni bo‘lar ekan-da.

– Shunday qilib desangiz, buvixon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergandim,

ishni bosti-bosti qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib sakson uch so‘m pul jamg‘arib «topganimiz shu, ellikboshi ota» deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi.

– Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligini ko‘rsin. Endi bu yoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana yorug‘ yulduz ham tikka kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush. O‘tinimiz yo‘q, oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘aradan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz.

– Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, - to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman.

– Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam. Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqi, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik, shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-a, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

– Yo‘q, yo‘g‘-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin. To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi buvi, men ketaman, tog‘ tomon ham yorishib qoldi.

– Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur.

– Xo‘p, ona, xo‘p.

* * *

Men o‘sha o‘g‘ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

G‘afur G‘ulom

AFANDI O‘LMAYDIGAN BO‘LDI

Afandi daladan bir eshak o‘tin terib, shahar bozoriga olib tushib, uch miriga sotdi. Qishloqqa qayta turib yo‘l-yo‘lakay eshak qadamidan zerikib o‘sha uch mirilik kumush tangani o‘ynab kelar edi: tangani o‘ng bosh barmog‘ining ustiga qo‘yib chertib yuborar, chap qo‘lining kaftida ilib olar, yana chap bosh barmog‘i tirnog‘iga qo‘yib chertib yuborar, o‘ng kafti bilan ilib olar edi. Tanganing bir tomonida poshsholik muhri, ikkinchi tomonida «Hoqon ibni Hoqon Sulton Sulfiddinxon G‘oziy» deb yozilgan tamg‘asi bor edi. Afandi tanganing o‘ngi-tersiga istehzo bilan qarab:

– Ey, tavba, bir misqol kelar-kelmas qalay aralashgan kumush bo‘lsa, ikki tomonida aji-buji xatlari bo‘lsa, na san’ati, na qadr-qiymati bo‘lsa, ana shu bir burda tangaga ne-ne kishilar muhtoj bo‘lsa, ne-ne barno ayollar, ne-ne azamat davangiday yigitlar sakkaz no‘xat og‘irligidagi shu temirga ertadan qaro kechgacha ishlasa... Shu tangang bo‘lmasa, obro‘ying bir pul, aql-u farosating, ilming hemiri, qavm-u qarindosh begona, do‘st-u oshno sendan uzoq, hamma eshiklar betingga yopiq, bozor-o‘chardan qadaming qirqilgan, bola-chaqa och, o‘zing yalang‘och. Ajab zamona ekan-da.

Ajib zamonada qoldik, yaqolar bo‘ldi etak,
Bo‘z paytava bo‘ldi, boshga chiqdi patak.

Bunga sen nima deysan, hangihofizi mayda qadam?

Eshak Afandining so‘ziga «ma’qul» deganday boshini silkitib quloqlarini bir-biriga urishtirib bedana yurish qilib ketib borardi. Afandi tanga o‘ynashda davom etar edi.

Kech kirib qolgan. Uchko‘prik degan yerga yetganda ro‘baro‘sidan bir oqsoq it chiqib hura boshladi. Afandi ham, eshak ham shunga alahsiy ketib tanga itqinib yerga tushdi, yerdagi qaysidir toshga jiring etib urilib qaygadir yo‘qoldi. Afandi topaman degan xayol bilan eshakdan bafurja tushib, tangani qidira ketdi. Ko‘tarib qaramagan bir toshi qolmadi. Tanga yer yutganday nom-nishonsiz edi. Qosh qorayib shom tushdi. Topolmasligiga ko‘zi yetib, tanga yo‘qolgan joyiga atrofdagi katta-kichik toshlarni yig‘ib kelib qo‘ydi. Erta bilan barvaqt kelib yana qidiraman, degan o‘y bilan qishlog‘iga jo‘nadi.

Erta bilan tong saharda kelib yana qidirdi. Tangadan nom-nishon topilmadi. Shunda Afandining xayoliga bir gap kelib qoldi:

– Iya, nega men avval o‘ylamabman! Kecha oqshom ham mendan boshqa kishilar shu yerdan o‘tgandir yoki bugun mendan oldin bir necha kishi shahar tomon tushgandir. Nahotki shulardan birontasi mening tangamni topib olmagan bo‘lsa. Shulardan surishtirish kerak!

Shu payt ustidan belini bog‘lagan, xachir mingan bir yigit shahar tomon zudlik bilan o‘tib qoldi. Afandi shoshilib uning jilovidan ushladi:

– Qayoqqa ketayotibsan?

– Amakim vafot qilib qoldilar, janozaga aytib yuribman.

– Bu yerdan kecha ham o‘tganmiding?

– Ha, kechqurin tabib olib o‘tgan edim.

– Ha, barakalla! Tangani cho‘z! – dedi Afandi.

– Qanaqa tanga, - dedi yig‘lamsirab yigitcha.

– Mug‘ambirlik qilma! Qanaqa tanga bo‘lardi, uch mirilik buxor tangasi, sendan boshqa it olarmidi, bu yoqqa cho‘z!

– Man tanga-panga ko‘rganim yo‘q, qo‘yvoring, mulla aka! O‘lik muntazir bo‘lib qoladi.

– O‘liging bilan ishim yo‘q, tangani cho‘z! Bo‘lmasa xachirdan ag‘darib do‘pposlayman.

Janozaga odam aytishdan kechikayotgan yigitcha adi-badi aytib o‘ltirishning foydasizligini anglagach, yonchig‘ini kavlab uch miri chiqarib berdi-da, shoshilib jo‘nab ketdi. Afandi tangani kaftiga olib o‘ngi, terisini sinchiklab ko‘rdi.

– Yo‘q, bu mening tangam emas. Mening tangamda Sulton Sulfiddinxon degani qiyshiqroq yozilgan edi. O‘zimniki topilmaguncha qidiraman. Ammo bu ham ortiqcha qilmaydi, - deb yonchig‘iga solib qo‘ydi. Xarsangga o‘ltirib yo‘l kuzatdi. Bu navbat shahardan sakkizta xurmacha, katta sut chelak ko‘targan o‘rta yashar bir qatiqfurush obkash ko‘tarib yayov kelar edi. Unga:

– Bir nafas to‘xtang, jonidan akasi! Shu yo‘ldan qachon o‘tgan edingiz? – dedi yumshoqlik bilan Afandi.

– Ilk tongda, Cho‘lpon yulduzi ko‘tarilganda.

– Barakalla, - dedi Afandi. – Qani, tangani cho‘zing!

– Qanaqa tanga?

– O‘smoqchilamang, uka! Shu yerda kecha bitta buxor tangasi yo‘qolgan. Uni sizdan boshqa hech kim topib olmagan, albatta. Shu pulni cho‘zing!

– Bo‘lmagan gap!

Gap mojaroga aylandi. Mojaro mushtlashuvga. Bir xurmacha sinib, sut chelakning qorni pachoq bo‘ldi. Afandiga kuchi yetmasligiga ko‘zi yetgan qatiqfurush bitta uch mirilikni boshidan yetti aylantirib Afandiga uzatdi:

– Ma, ol, yo‘lto‘sar ablah! Bola-chaqangga osh bo‘lmasin, yug‘uchingga buyursin.

U so‘kina-so‘kina singan xurmachasiga, noo‘rin ketgan uch mirisiga achinib yo‘liga ravona bo‘ldi. Afandi undan qoqib qolgan tangani ham tekshirib:

– Yo‘q, bu mening tangam emas. Bu tanganing kungirasi
siyqalanib ketibdi. Meniki zarbdan yangi chiqqan edi... Hay, mayli, bu ham bir kunga yarab qolar, - deb kissaga uribdi.

Bugun Afandi o‘tgan-ketganlardan besh-o‘n tanga olib qolgan bo‘lsa ham, bu tangalar yo‘qotgan tangasiga o‘xshamas edi.

Hazil-hazil bora-bora kasbga aylanib, Afandi Uchko‘prik boshida besh yil-u uch oy qolib ketdi. Har kuni o‘tgan-ketgandan o‘z tangasini so‘roqlab, ba’zilar bilan yaxshilikcha, ba’zilar bilan mushtlashib uch miridan olib qoladigan bo‘lib qoldi. Kuniga o‘n, o‘n besh tanga tushib tursa ham, lekin bu tangalar yo‘qotgan tangaga o‘xshamas edi. Afandi o‘z tangamni topmay qo‘ymayman, deb qasam ichib qo‘yganligi uchun o‘z ahdidan qaytmas edi. Daladan shaharga, shahardan dalaga o‘tguvchi yo‘lovchilar Afandining bu tiqilishiga ko‘nikkan edilar.

– Nazarmat, qaysi yo‘ldan ketamiz, uch miri jinni tomondanmi yoki uzoqroq bo‘lsa ham G‘irvon oshib ketamizmi? – desa, boshqa biri:

– Menda tanga bor, yaqingina Uchko‘prikdan ketaveramiz, - derdi kulib.

...Ammo tepada xudo bor. Afandining qilig‘iga hamma ko‘niksa ham, xudo ko‘nikmas edi. Besh yil-u uch oydan beri bitta oq bulutga yonboshlab, uzun rezinka nayli chilimda takbas chekib kayf qilib, cho‘zilib yotgan xudo Afandining qiliqlariga g‘ashi kelib uni kuzatar edi. Oxiri chidolmadi. Bitta yugurdak farishtani zing‘illatib Azroilni chaqirtirdi. Vazifasi kishilar jonini olish bo‘lgan qo‘rqinchli Azroil qo‘ltig‘iga bir katta kitobni qisib, xudoning oldiga kelib ta’zim qildi. Xudo Afandini ko‘rsatib:

– Bor! Anov bandaning yo‘qotgan uch mirisini topib ber, keyin jonini ol! U mening ham, boshqa bandalarning ham joniga tegdi, - dedi.

Azroil pastga qarab:

– Iya, bu mulla Nasriddin Afandi-ku, - dedi.

– Ha, o‘shaning jonini ol!

Azroil qo‘ltig‘idagi ro‘yxat kitobining «N» harifidan Nasriddin Afandini topib, Xudoga murojaat etdi:

– Soqolingga sadaqa bo‘lay, xudojonim, o‘zing yozgan mana bu taqdir kitobida Afandining o‘lishiga hali yigirma bir yil bor, ajali yetmagan. Agar hoziroq jonini olsam, yerdagilar orasida janjal ko‘tariladi. «Va’dasida turmaydigan beburd Xudo», - deyishadi, senga ishonmay qo‘yishadi.

– Bo‘lmasa, qo‘rqit, cho‘chit, bu hunarini qilmasin. Boshqa yengilroq hunar o‘rgatib chiq.

– Xo‘p, - dedi-yu, bitta chikkabel farishtani yetaklab yerga tushdi. Azroil, eshak arava mingan handalakfurush dehqon siyoqida Afandiga ro‘baro‘ bo‘ldi.

– Bu yerdan qachon o‘tgan eding? – dedi Afandi unga do‘q aralash.

– Bugun ertalab.

– Bu yerda uch mirilik bitta tanga yo‘qolgan. O‘shani sendan bo‘lak it ham olmagan. Shu tangani egasiga, ya’ni menga qaytar-da, yo‘lingga ketaver.

– Bo‘lmagan gap, - dedi Azroil. – Sen besh yil-u uch oydan buyon uch miringni bahona qilib xudoyim bandalaridan necha o‘n ming undirib olding. Bo‘ldi qil! Bo‘lmasa, hozir joningni olaman!

– Joningni olaman?! Sen Azroilmiding?!

– Bo‘lmasam-chi! – Azroil shu zamoniyoq, o‘z dahshatli qiyofasiga, eshagi esa chiroyli bir farishtaga aylandi. Afandining yuragi «shuv» etib ketgan bo‘sa ham, sir boy bermadi:

– Bitta emas, yetti Azroil birdan kelganingda ham jonimni olib bo‘psan, gapni aylantirmay tangani cho‘z!

Azroil bilan farishta, Afandi shuncha yillardan beri po‘stak solib o‘tiradigan katta xarsangni ag‘darib tashladilar-da, tagidan qum-u tuproqlarni tirnoqlari bilan tirmalab, ko‘karib, zanglab ketgan tangani Afandiga olib berdilar:

– Ma, ol, to‘ymagur! Bu, o‘sha sen yo‘qotgan tanga.

Afandi, zihlaridan o‘zi yo‘qotgan tangasini tanigan bo‘lsa ham, tan olmadi:

– Bu meniki emas. Mening tangam yangi edi. O‘zimniki topilmaguncha shu yerda o‘ltirganim-o‘ltirgan.

– Endi o‘ltirmaysan, - dedi Azroil. – Biz senga oson daromadli kasb o‘rgatamiz, kuning yetib o‘lguningcha bemalol bola-chaqangni boqasan.

– Qanaqa hunar ekan? O‘zimnikidaqa mo‘may kasbni topib bo‘larmidi, - dedi Afandi.

– Biz senga tabiblikni o‘rgatamiz, - dedi Azroil...

– Tabibchilikka ilm kerak, men esam g‘irt savodsizman, alifni kaltak deya olmayman, qizamiq bilan chipqonni bir-birovidan ajratolmayman, taqsir, - dedi Afandi.

– Tabibchilikka ilmning hojati yo‘q. Xuddi sendaqa avomlardan tabibning zo‘ri chiqadi, - dedi Azroil.

– Xotiningga elliktacha xalta tiktirasan. Xaltalarga har xil o‘tlarni quritib, uqalab solasan. Besh-olti shishada har xil rango-rang suvlar tayyorlaysan. Mahallangga borib, tushimda hazrati Luqmon og‘zimga tupurib ketdi, tabib bo‘ldim deysan. Sal kunda dovrug‘ing olamni bosib ketadi. Qolganiga men yordam beraman.

– Sen qanday yordam berarding?

– Iya, aytdim-ku, axir, men Azroil – o‘lim farishtasiman. Kimning ajali yetganini mendan oldin biladigan kishi yo‘q. Kim o‘ladi, kim qoladi, men senga ishoratlar bilan ma’lum qilib turaman, ya’ni bir odam kasal bo‘ldi, seni tabib deb chaqirtiradilar, sen bilan qo‘shilishib men ham boraman. Sen meni ko‘rasan-u, xaloyiq meni ko‘rmaydi. Agar men borib kasalning oyoq tomonida o‘ltirsam bilginki, har qanday og‘ir kasal bo‘lsa ham sog‘ayib ketadi. Ana shunga qarab ishingni qilaverasan.

Afandi goh ishonib, goh ishonmay, bu muomalaga ko‘ndi. Mahallaga qaytib, o‘zini «tabib» deb e’lon qildi. Ko‘pchilik Afandini mayna qilib kuldi, ko‘pchilik jinniga chiqardi. Bir qism kishi ishondi ham. Asta-sekin Afandining shuhrati ko‘tarilib, ixlosmandlar orta bordi. Chunki uning ishlariga, bilasizki, Azroil sherik edi. Ha-hu deguncha, hakimi hoziq mulla Nasriddinning ovozasi elu yurtga tarqab ketdi. Kimni qoladi desa qoladi, o‘ladi desa o‘ladi. Tabibgarchilikdan keladigan daromad katta. Ichki-tashqilik tunuka tom, xo‘roz karnaylik imoratlar, qo‘sh xotin, to‘rt kelin, yegani oldida, yemagani ketida, bisot-u bag‘al, haddan ziyod, el-u yurt o‘rtasida obro‘si bashang, bosar-tusarini bilmay kekkayib ketgan...

Ana shu zaylda yigirma bir yil o‘tib ketdi. Osmondagi xudoning katta kitobi hisobida Afandining o‘lim kuni yetib keldi. Bu gaplardan bexabar Afandi o‘zining kasal qabul qiladigan mehmonxonasida sherigi Azroilni kutib o‘tirar edi. Soat o‘ndan ham oshib ketdi, Azroildan darak yo‘q. Eshikda

odamlar kutar, Afandi mehmonxonaning u yog‘idan-bu yog‘iga yurib so‘kinardi.

– Bu nima degan gap! Sherik bo‘lgandan keyin xizmatga o‘z vaqtida kelish kerak-da!

Kuta-kuta charchadi shekilli, baxmal ko‘rpacha to‘shalgan parqu yostiqli so‘riga borib yastandi. Shu tobda desangiz, Azroil ko‘kdan inib tushib, to‘g‘ri Afandining oyog‘i tagiga o‘tirdi. Afandi qo‘rqib ketsa ham, bilib bilmaslikka olib, oyog‘ini yig‘ishtirdi. Azroilni koyigan bo‘ldi. Yon cho‘ntagidan yo‘g‘on zanjirli, qo‘ng‘iroqli tilla soatini olib:

– Mana, qara, soat ham sal kam o‘n bir bo‘libdi. Eshikda qirq choqli kasal kutib o‘tiribdi. Sen bo‘lsang arshi a’loda qaysi hur qiz bilan bekinmachoq o‘ynab yurganikinsan...

– Shunaqamikin, - dedi tabassum bilan Azroil, - ammo bugun sizning navbatingiz. Xudoning osmondagi katta kitobida sizning o‘limingiz bugun soat o‘n biru o‘ttiz yetti minutga tayin qilingan. Men yigirma bir yillik qadrdonlik yuzasidan qirq minutcha oldin tushdim. Bola-chaqalaringizni, yor-oshnolaringizni chaqiring, vasiyat qiling. Keyin men og‘ritmay avval esingizni, keyin joningizni olaman.

– Bo‘lmagan gaplarni qo‘ying, - dedi Afandi, dovdiraganidan sansirashni ham esdan chiqarib. – Endigina tabiblik hunarining mag‘ziga yetib, og‘zimiz oshga yetganda o‘limdan gapirmang! Yana biron o‘n-o‘n besh yil totuvlashib ish qilaylik.

– Iloji yo‘q, - dedi Azroil. – Qazoyi qadarni o‘zgartirolmayman. Tayyorgarlikni ko‘ring! Gap bilan bo‘lib, mana yana to‘rt minut o‘tib ketdi.

Afandi yana anov-manov deb gap cho‘zayotgan edi, Azroil shig‘ etib Afandining yarim beligacha jonini olib qo‘ydi. Afandi juda qo‘rqib ketdi.

– Hoy-hoy, to‘xtang, to‘xtang, bu nima qo‘pollik! Hali vaqtim bor. Mana endi bu gap bo‘pti, - deb kuldi-da, Azroil jonning tanobini bo‘shatib o‘z joyiga qo‘ydi, - vasiyatni boshlang, Afandim!

– Vasiyat shuki, - dedi Afandi, - men o‘z umrimda xudoyimga ko‘p gunoh qilgan bandaman. Xudoning bandalariga yo‘qolgan tangam vajidan besh yillab ozor berganman. Endi xudoyimga yig‘lab tavba qilishim kerak. Ikki rakaat namoz o‘qib, iltijo qilishim kerak. Dargohi keng xudoyim, zora gunohlarimdan kechsa, siz ham qasam iching. Shu ikki rakaat namozimni o‘qib bo‘lmagunimcha jonimni olmay turasiz.

Azroil maslahat so‘raganday osmonga qaradi. Xudo hali ham o‘sha oq bulutga yonboshlab takbas qilib kayf surar edi. Azroilning savol nazariga: «Mayli, Afandiga ijozat bera qol, ikki rakaat tavba namozini o‘qisa o‘qiy qolsin», - deganday chap ko‘zini qisib ijozat berdi. Shundan keyin Azroil Afandiga qarab:

– Xo‘p, mayli, namozingizni o‘qing. O‘qib bo‘lguningizcha joningizni olmayman.

– Barakalla, - dedi Afandi. So‘ng xotirjam nosqovog‘ini olib o‘zi kaftini to‘ldirib bitta otdi. – Ma, sen ham otasanmi? Juda zo‘r! Qoraqishloqning talqonidan!

Azroil xo‘mrayib qarab indamadi. Afandi tashqariga chiqib tahorat qilib keldi. Makkaning surati solingan joynamozini yozib, qiblaga qarab imirsilab namoz boshladi. Azroil jon oladirgan asboblarini tayyor qilib kuzatib turardi. Afandi bir rakaatgina namoz o‘qib o‘tirdi. Salom berib, yuziga fotiha tortdi. Bu degani namoz tamom bo‘ldi degani edi. Hovliqib qolgan Azroil:

– Iya, Afandim, namozingiz chala qoldi-ku, qolgan bir rakaatini o‘qimaysizmi?

– Vaqtim yo‘q, - dedi iljayib Afandi, - eshikda bemorlar kutib qolishdi. Qolgan bir rakaatini dunyodan zerikkanimda o‘qiyman. Hayot juda shirin narsa, hunaring jon olish bo‘lgandan keiyn sen buni tushunarmiding, ablah!

Ana shu-shu bo‘ldi-yu, Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi, u bizning hayotiy olamimizda bizning hamma ishlarimizga aralashib, kuldirib, xushnud qilib yuribdi. Azroil bo‘lsa uning orqasidan bir rakaat namozini qistab necha yuz yillardan beri ovora...

G‘afur G‘ulom

MULLA NASRIDDIN AFANDI VA SHAYTON ALAYH UL-LA’NA

Kech bahor ayyomida Mulla Nasriddin Afandi o‘z yaqin do‘stlari – Ahmadali va Jo‘ravoylar bilan Oqtosh qishlog‘iga sovchilikka borib, quruq qaytib kelar ekanlar. Do‘rmon degan qishloqqa kelganlarida katta bir salqin olchazorga duch kelibdilar. O‘ninchi sinf qizlariday qator, bir tekis ekilgan olchalar o‘rtasidan birinchi sinf bolalariday shovqin-suron solib ikki tegirmon suvli ariq sharqirab oqib yotar ekan.

– Kelinglar, shu so‘lim yerda ozgina dam olaylik, - depti Jo‘ravoy.

Uchovlari ariq labiga cho‘qqayibdilar. G‘arq pishgan olchalar marjonday tizilib ularning boshi ustida mayin shabadada tebranib turar ekan. Rad etilgan sovchilikdan hasratlashib, qo‘l uzatib olchalardan uzib yeb, bekorchilikka ermak danagini ikki barmoq o‘rtasida xuddi kim o‘zar o‘ynaganday «tirs-tirs» etib ariqning narigi betiga otib o‘tirar ekanlar.

Ana shunda desangiz, xuddi qiyomat-qoyim bo‘lganday bo‘libdi. Yer osma ko‘prikday tebranib ketibdi. Yer qa’ridan o‘kirgandaymi, bo‘kirgandaymi guldiros tovushlar chiqibdi. Innakeyin desangiz, shudgorlab qo‘yilgan yerning o‘rtasidan «g‘urru-g‘urru-gumbur» deganday ovoz kelib yer qoq yorilibdi. Yer yorig‘idan bir bochka neftga o‘t ketganday tim qora, quyuq tutun osmonga o‘rlab chiqibdi. Ikki terak bo‘yimi, uch terak bo‘yimi chiqqandan keyin yana quyilib yerga cho‘ka boshlabdi. Odam bo‘yidan sal

balandroq yerda to‘xtab shaklga kira boshlabdi. Bir emas – ikkita, katta-kichiklik.

– Ota-bola dev kelyapti! – debdi Ahmadali.

– Rostdan-a? – debdi Jo‘ravoy, u ham yana bitta olchani mahkam quchoqlab.

– Xaf turlaring, hozir nimaligi bilinadi, - debdi o‘rtada o‘tirgan Afandi pinagini buzmay.

Keyin desangiz, haligi bahaybat maxluq kichkinasini bir qo‘lidan yetaklab ular tomon kela boshlabdi. Kattasining ikkita parmagajak shoxi bor, qora-yu uzun shokildali dumi bor. Kichkinasining shoxi endi bo‘rtgan, bir ko‘ziga katta paxta qo‘yib, ustidan ingichka qora latta bilan boylangan. Buning dumi ham kalta – bir qarich kelar-kelmas.

Bu maxluq uch bahodir o‘g‘lonlarning oldiga kelib:

– Kim bu yerda olcha yegan? – deb na’ra tortibdi.

– Uchalamiz ham olcha yeb o‘tiribmiz, - depti Afandi.

– Tirsillatib danak otgan qaysi birlaring?

– Uchalamiz.

– Ha-ha! – depti o‘shqirib, - bilasanlarmi, men Shayton bo‘laman! Danak otganda ko‘zlaringga qarab otsalaring bo‘lmaydimi! Mana, mening qo‘zichoqlarim yong‘oq tagida o‘ynab yurishgan ekan, bitta danak kelib mana bu kenjatoyimning ko‘zini chiqarib qo‘yibdi.

– Bo‘lmagan gap, - depti Afandi, - avvalo shuki, sen Shayton emassan. Bizga tuhmat qilyapsan.

– Shaytonman! – depti qobonnikiday qayqi tishlarini qirtillatib, - asli biz bir otadan egizak tug‘ilganmiz. Otamiz birimizga Rahmon deb, birimizga Shayton deb ism qo‘ygan. Biz – Hasan-Husan o‘g‘illar har kuni mushtlashaverganimizdan keyin otamiz zerikib yerni bizga bo‘lib berib qutuldi. Rahmonga yerning yuzi-yu, menga yerning qa’ri tegdi. Rahmon senlarga xudo bo‘lib qoldi. U ahmoqqa tekkan narsalarni qarang – mana shu o‘t-u o‘lanlar, oltita yong‘og‘-u bir kaft mayiz, senga o‘xshash ahmoq bandalar. Men – Shaytonga-chi? Yerning qa’ridagi butun boyliklar, konlar, xazinalar, o‘t pusqurib turgan vulqonlar... Men hozir senlarni o‘g‘limni ko‘r qilganlaring jazosi uchun yer qa’riga – jahannamga olib tushib ketaman, dodingni xudoga ayt. Qah-qahlab kulibdi.

– Shayton bo‘p bo‘psan, dedim-ku, - depti Afandi, - hali ham gap shu, Shayton emassan. Shaytonlar ko‘pincha odamlar o‘rtasida yuradi. Sen juda nari borsa biror jahannamdan qochgan piyonista devdirsan.

– I-ya, - depti boyagi maxluq, - Shaytonligimga ishonmasang qudratimni ko‘rsataman. Nima istaysan?

Afandi o‘ng tomonda o‘tirgan Ahmadaliga qarab:

– Uka, shu ablahga bir qiyin ish buyurib daf’ qilib yubor, - depti.

– Agar Shayton bo‘lsang, - depti Ahmadali endi o‘ziga kelib, - shu jilg‘ani orqasiga qaytarib oqiz. Har ikki qulochda bittadan fontanchasi ham bo‘lsin.

– Ha-ha-ha! Shu ham gapmi! Mana qarab tur bo‘lmasa, - deb qo‘ltig‘idan titilib ketgan telefon daftarchasiday kitobini olib, filning o‘pkasiday lablarini shivirlatib:

– Zumbayk, vili-tili-nadze, zum-baykvi, zum-bayk va kuf! – deb duo o‘qib suvga ufuripti.

Ana shunda desangiz, haligi sho‘x-shotir ariqcha avvaliga shippa to‘xtadi, keyin g‘izillaganicha orqasiga oqa boshladi. Har ikki quloch yerda chopayotgan saman otning dumiday fontanchalar qalqirab turardi.

– Qoyilman, - dedi xo‘rsinib Ahmadali. – Men Shaytonligingga ishondim. Qani, jahannamingga boshla.

– To‘xtab tur, - dedi haligi maxluq, - bular ham ishonsin, hammangni birga qo‘shib olib ketaman.

– Qani endi sen, Jo‘ravoy uka, o‘zing puxtaroq bir nima devor, bu to‘ngbo‘yinni mot qilib yubor!

– Agar Shayton bo‘lsang, - dedi Jo‘ravoy uh tortganday, - shu yeb o‘tirgan olchalarimizning tanasi kumushdan, yaproqlari zumraddan, mevalari yoqutdan bo‘lib qolsin.

– Vo hah-ha-ha. Shuni o‘ylab topdingmi? Mana qarab tur, - qo‘ltiq daftarchasini olib «O» harfini qidirdi (olchani), so‘ng duo o‘qiy ketdi:

– Ko-bakay – yo-chil-ozo, chun-zuhu-ozo, chun-zuhu-digan tunzu... Kuf, suf! – deb olchalarga dam urdi. Ana innakeyin qarabsizki, haligina mayin yelda hilpirab turgan yaproqlardan bodroq qovrilayotgan paytdagi qozonga o‘rilgan kapgir ovozi chiqa boshladi.

Qani endi birorta mevasini uzib bo‘lsa! Uch kishilashib arang uchta olchani uzib olib og‘zilariga solishsa - g‘ajir-g‘ujur toshginaning o‘zi.

– Men boshidayoq Shayton ekanligingni sezgan edim,- dedi ixrab Jo‘ravoy, - muncha cho‘zildilaring, qani ketaveraylik, Ahmadali bo‘lar ish bo‘ldi...

– Qani endi sen nimani istaysan? – dedi shayton Afandiga qarab.

– Xo‘p bo‘pti, Shayton bo‘lsang Shaytondirsan. Bizning yerda, odamlar o‘rtasida ko‘pchilikning aytganiga bo‘ysinish degan muqaddas qoida bor. Bu ikkovi seni Shayton deb tanigandan keyin men nima der edim. Qani yo‘l boshla. Ketsak ketdik-da. Ko‘r bo‘lib boqib olarsan...

– To‘xta, - dedi Shayton, - yo‘q, bu yo‘ling ketmaydi.. Sen bularning ichida mahmadona, makkorroq, so‘zamolroq ko‘rinasan. Yer ostiga olib tushsam butun xo‘jaligimning to‘s-to‘polonini chiqarib, odamlarimni yo‘ldan uradiganga o‘xshaysan. Kel, seni ham, meni ham armonimiz qolmasin, orani ochiq qilib olaylik. Buyur, nima hunar ko‘rsatay?

– Buyurganimni qilolmasang, nima bo‘ladi, - dedi miyig‘ida kulib Afandi.

– Nima, nima? Mening qo‘limdan kelmaydigan ish ham bor deb o‘ylaysanmi? Men sening xudoyingga o‘xshagan o‘z bandalaridan qo‘rqadigan emasman. Men vulqonlar, zilzilalar hukmdoriman.

– Bo‘lmasa yaqinroq kelib menga qulog‘ingni tut, - dedi Afandi.

Shayton bukila kelib qora quyonning terisidek shalpang qulog‘ini Afandiga tutdi (Ma’lumki, Afandining oldida bitta tishi yo‘q, shu tish o‘rnidan ko‘pincha «chirt-chirt» tupurib ham yurardi, to‘rtinchi sinf o‘g‘il bolalariday uzoqdagi birovni ham shu yerdan «Hush-sh-t» deb chaqira olar edi). Ana shu tish orqasidan cho‘zibroq egovni arraga surganday g‘ash keltiradigan qilib hushtak chaldi. So‘ng:

– Eshitdingmi? – deb so‘radi Shaytondan.

– Ha, eshitdim. Oddiy hushtak, - dedi Shayton.

– Bo‘lmasa sen ham armonda qolma. Bu qulog‘ingni ham tut.

Shaytonning bu qulog‘iga ham hushtak chalib qo‘ydi.

– Bunisi-chi?

– Bunisi ham hushtak, - dedi Shayton.

– Barakalla, - dedi Afandi, - Shayton bo‘lsang, qani bir qudratingni ko‘rsatib ana shu hushtaklarga sakkiztadan tugma qadab ber.

(Shayton shu damgacha hushtakka tugma qaday olganini hech bir manbadan uchrata olmadik – G‘.G‘.).

Shayton hang-mang bo‘lib qoldi. Bu hangamalarga tomoshabin bo‘lib turgan o‘g‘liga yaqinlashib, uning g‘uloq-chakkasiga tortib yubordi:

– Padar la’nat shaytonvachcha, hamma ayb o‘zingda ekan! Qani yur, qolgan jazoni onangdan olasan...

Yana yer osma ko‘prikday silkindi. Bu silkinishdan sovchilikday uzoq yo‘ldan quruq qaytayotib horib uxlab qolgan uch og‘ayni cho‘chib uyg‘onib ketdilar. ***G‘afur G‘ulom***

B E M O R

O‘TMISHDAN

Osmon yiroq, yer qattiq.
Maqol

Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi – bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qoldi. Baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ldi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. Chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo‘jayini Abdug‘aniboy omborda qulab ketgan qoplar ositida qolib o‘ladigan bo‘lganida bu

doktorxonaga bormay Simga[1] ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solinga 25 so‘mlik pul kelar edi.

Bemor og‘irlashdi. Sotiboldi xo‘jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug‘aniboy uning so‘zini eshitib ko‘p afsuslandi, qo‘lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so‘radi:

– Devonai Bahovaddinga hech narsa ko‘tardingmi? G‘avsula’zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi – har xil savatchalar to‘qishni o‘rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko‘milib savat to‘qiydi. To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo‘riydi, ba’zan, qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi, har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: «Hey do‘st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...»

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo‘shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog‘ini siladi, so‘ngra... o‘tirib yig‘ladi.

– Begunoh go‘dakning saharda qilgan duosi ijobat bo‘ladi, uyg‘oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g‘ashligi bilan yig‘ladi, keyin otasining g‘azabidan, onasining ahvolidan qo‘rqib, kampir o‘rgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi. «Ko‘ngliga armon bo‘lmasin» deb «chilyosin» ham qildirishga to‘g‘ri keldi. Sotiboldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi. «Chilyosin»dan bemor tetik chiqqanday bo‘ldi, shu kechasi hatto ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg‘otmang.

Yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

---

1. *Sim* – hozirgi Farg‘ona shahri

Abdulla Qahhor

ADABIYOT MUALLIMI

O‘zining aytishiga ko‘ra «nafis adabiyot muallimi» o‘rtoq Boqijon Baqoyev og‘ilga kirib ta’bi xira bo‘ldi: sigirning qulog‘iga yana kana

tushibdi! Kanadan ham koʻra sigir uning achchigʻini keltirdi: kanani teray desa qoʻymaydi – boshini silkiydi, pishqiradi.

– Hayvon! Sigir emas, hayvon! – dedi ogʻilning eshigini qattiq yopib. – Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyar edi.

– Hayvon! – dedi Baqoyev, - bu sigirni sotib puliga choʻchqa olish kerak!

– Shaharda choʻchqa asrash mumkin emas, - dedi Mukarram samovarga koʻmir solayotib.

– Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? Toʻgʻri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

– Uyga kiring Hamida keldi.

Hamida oʻn olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq qiz, pochchasini koʻrib sevinib ketdi.

– Siz uyda ekansiz, bilsam daftarimni olib kelar ekanman... esizgina...

Oʻrtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi – sigir, uning qulogʻidagi koʻm-koʻk kana, gʻoʻqillab tumshugʻi bilan ariq yoqalarini buzib yurgan choʻchqa koʻz oldidan ketdi.

– Texnikumdan rabfakka oʻtibsan deb eshitdim, rostmi? – dedi. – Hmm... yaxshi qilibsan. Rabfakka oʻt, deb men aytib edim shekilli? Hmm... Auff, zarda boʻlibman... Rabfak yaxshi. Men bir borgan edim. Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qoʻyipti. Toʻgʻri emas. Praktikum, minimum, maksimum bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin soʻzlar. Men shaxsan shunday deb bilaman.

Bir oz jim qolishdi.

– Boqijon aka, - dedi qiz uyalibroq, - bir narsani sizdan soʻramoqchi edim: biz sinfda Chexovning «Uyqu istagi»ni oʻqidik, goʻdakni oʻldirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da'vogar goʻdakning onasi – Rahima boʻladi, qoralovchi – Sharifjon. Sudyalar ham boʻladi. Men qizni oqlab, butun gunohni uning xoʻjayiniga, yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qoʻymoqchiman. Man shu... Shuni yozdim. Shu toʻgʻrida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

Oʻrtoq Baqoyev oʻylab turib soʻradi:

– Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Hakimov? Ahmoq odam! Oʻz ustida ishlamaydi. Savol alomati hamma vaqt «mi»dan keyin qoʻyiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar koʻtarib kirdi. Hamida irgʻib turib, samovarni opasining qoʻlidan oldi va stolga qoʻydi.U homilador xotinga samovar koʻtartirib, qarab oʻtirgan pochchasidan oʻpkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. Oʻrtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust toʻrt piyola choy ichdi va terladi.

– Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, - dedi yuzidagi terni artib. – Hmm... soqol ham oʻsipti, sartarosh boʻlmasa odamlar maymun boʻlib

ketar ekan. Maymun juni to‘kilib odam bo‘lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

– Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, - dedi qiz. – Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so‘radi.

– Chexovmi? Hmm... burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya’ni... hmm... Mukarram, tovuqqa moyak qo‘ydingmi? Qo‘yish kerak, bo‘lmasa daydi bo‘lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo‘q – moyak qo‘ysang tug‘adi! Nima uchun moyak qo‘ysang tug‘adi? Xo‘roz nima uchun sahar chog‘i qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o‘qiysizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o‘qiganini, bu o‘qish yilida yana nimalar o‘tilajagini so‘zlab berdi va o‘zining oqlash nutqida fiziologik asoslar ham ko‘rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so‘zni Chexov ustiga burdi.

– Hmm... – dedi Baqoyev, - Chexov to‘g‘risida o‘zimning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo‘lishlariga qaramasdan mutlaqo farq qiladi!

– Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, - dedi Hamida, - bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o‘lgan bo‘lsa kerak.

O‘rtoq Baqoyev bir oz o‘ng‘aysizlandi.

– Sizlar qaysi Chexov to‘g‘risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To‘g‘ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmida o‘lgan... Boshqa ro‘molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotipti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasi bo‘lgan Chexov haqida so‘zlayotibman.

– «Uyqu istagi» qaysi Chexovniki? – dedi Hamida.

– Hech shubhasiz, bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta «Sovremennik» jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o‘rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so‘zlab ketdi. Uning nima to‘g‘rida so‘zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan qandaydir mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga «sen dastyorga zor bo‘lguncha o‘g‘ling dastyor bo‘ladi» deb xat yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatorga qo‘ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o‘lar chog‘ida Demping degan bir tanqidchiga: «Agar butun jonivorlarni xudo yaratgan bo‘lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkemar ham jonivor bo‘ldimi?» degan... Hamidaning boshi og‘irlashib ketdi, ikki marta sekin, og‘zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko‘chaga chiqqanda qorong‘i tushgan edi, «Uyqu istagi» to‘g‘risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so‘zlaridan nima olgani haqida o‘ziga hisob berar ekan, g‘uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo‘q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...

Abdulla Qahhor

ILMIY-OMMABOP MATNLAR

ARUZ VAZNI

Aruz Sharq xalqlari poeziyasida asosiy she’riy o`lchovlar sistemasidan biridir. Aruz sistemasining nazaiy asoslari dastlab arablarda ishlangan bo`lib, keyinchalik u fors-tojik va turkiy xalqlar poeziyasiga ham kirib keldi. Ammo arab aruzi Sharqning boshqa xalqlari poeziyasiga o`zgarishsiz kirgani yo`q. U har bir xalq tilining fonetik va morfologik imkoniyatlari, musiqa san’ati xususiyatlari bilan bog`liq holda ma’lum darajada islohga uchradi. Shuning uchun uning bir qancha o`ziga xos bahrlari vujudga keldi. Adabiyotshunoslikda “Aruzi arabiy” yoki”Aruzi toziy”, “Aruzi forsiy”, “Aruzi turkiy” kabi terminlar qo`llanib kelgtanligining sababi ham shunda.

Poeziyaning qiyin vaznlar sistemasi hisoblanmish aruzning nazariy asoslarini dastlab arab olimi Xalil ibn Ahmad binni Umar binni Tamim-ul Basriy (hijriy 174, milodiy 790-791-yillarda tug`ilgan) ishlab chiqqan bo`lib, olimlarning ko`rsatishicha, “Aruz” termining vatani, turar joyining nomidan olingan.

Aruz islomgacha Yatrib, Yasrib keyinchalik Madina nomini olgan shaharning bir qismi yoki uning atrofidagi shaharchalardan birining nomi. Xuddi shu Aruz mavzuida uy (chodir, o`tov) bayt deb atalgani uchun Xalil ibn Ahmad o`zi tekshirgan she’rlarining har ikki misrasini bayt deb atagan. Aruz vaznini tashkil etuvchi bo`g`inlar hamda ruknlariga uy qurishda ishlatiladigan qurilish materiallarining (jumladn,qoziq, arg`amchi, devor, yer, ship, ustun va hokazo) nomini bergan va aruz vazni haqida asar yozgan olimlar Xalil ibn Ahmad qo`llagan terminlarni aynan ishlata berganlar. Shams Qaysning “Al-mo`jam”, Rashididdi Vatvotning “Hadoyiq-us-sehr”, Xoja Nasriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Aruz Muhammad Binnil Qays”, “Haydoyiqul-Ajam”, Alisher Navoiyning “Mezonul- avzon”, shuningdek, Salmon Sovajiy, Darvesh Mansur va boshqalarning aruz haqidagi asarlari ham aruz nazariyasini ishlashga bag`ishlangan. Yuqoridagi avtorlar o`z risolalarida aruz nazariyasini poeziyaning taraqqiyoti tajribalari asosida takomillashtirdilar, rivojlantirdilar.

Alisher Navoiyning “Mezonul-avzon”, Boburning “Muxtasar” asarlari aruz nazariyasi taraqqiyotida muhim voqea bo`ldi. Navoiy va Bobur bu asarlarida turkiy xalqlar poeziyasida qo`llanilgan aruzning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar.

“Adabiyotshunoslikk kirish”dan

SERGEY YESENIN

Yoshlikda orttirilgan do`st umrning ko`rki, qalbning suyanchig`i bo`ladi. Kishi shodligini ham, dardini ham avvalo u bilan baham ko`rgisi keladi, har gal uchrashganda bamisoli yoshlikning beg`ubor olamiga qaytgandek bo`ladi. Tassavurimda Sergey Yesenin she’riyati mening shunday - yoshlik do`stim. U bilan men talabalik yillari tanishib qadrdon bo`lib qolganman. Esimda, ikkinchi kurs studenti edim. Paxta terimiga chiqqan kunlarimizishdan so`ng yotoqda, xira chiroq nurida yarim kechagacha yeseninxonlik qilar edik. O`shanda “Eron taronalari”ning bir qancha she’rlari o`zbek tiliga tarjima qilindi.

Mana, o`sha kunlarga ham o`ttiz yilga yaqin vaqt bo`ldi. Bu fursat ichida men Yesenin ijodiga ko`p marta qaytdim. Uning kitoblari o`zbek tilida uch bor ommaviy nusxada chop etildi. Ba’zi she’rlari o`zbekcha qo`shiqqa aylandi.

Sergey Yeseninga har gal murojaat etganimda o`sha talabalik yillari, qadrdon paxtazor yodimga tushadi. Shoir so`zlarini chanoqlardan tortib olayotgandek bo`laman. Dimog`imga paxta hidiga omuxta rus o`rmonlarining tanish hidi urilgandek bo`ladi.

Odatda ,shoir tavallud sanasini nishonlaganda “u tirik bo`lganda falon yoshga kirar edi” degan so`zlarni aytishadi. Men negadir Sergey Yeseninni to`qson yoshli chol sifatida ko`z oldimga keltira olmayman. U dunyoga chaqmoqdek kelib ketdi. Lahzadek umridan bor nurini sochib, butun borlig`ini namoyon qildi. Yesenin barcha muxlislari tasavvurida o`ttiz yoshli o`t yurak yigit, tuyg`ulari tizgin bilmagan yosh shoir bo`lib qoladi.

Erkin Vohidov

“YURAK SENSAN MENING SOZIM”

Odatda katta iste’dod egalari hayotda ham yorqin shaxslar bo`ladi. Men Oybek va G`afur G`ulom, Mirtemir va Shayxzoda kabi ulkan so`z san’atkorlari suhbatida bo`lib shunday e’tiqodga keldanman. Bu ustozlar kirib kelgan uylarda chiroq yoqilgandek bo`lar, o`zgacha bir fayz qo`shilgan bo`lar edi. Aminmanki, Hamid Olimjon, Usmon Nosir ham shunday farishtali odamlar bo`lgan.

Men ko`pincha Usmon Nosirni ko`rgan, hamsuhbat bo`lgan kishilar bilan muloqotda bo`lganimda shoirning shaxsiyatiga oid ma'lumotlar bilan qiziqaman. Usmon Nosirni ko`rganlar uning mard va o`ktam yigit bo`lganini, shu bilan birga nozik ruhiyat egasi ekanini ta'kidlaydi. Qalbi keng, ko`ngli ochiq, to`g`ri so`z shoir yigitni ko`p jihatdan rus shoiri Sergey Yeseninga o`xshash ko`raman. Usmon Nosir xuddi ulkan rus shoiri kabi olovli, isyonkor qalb egasi, she'riyat ufqida nigohon balqigan yorug` yulduz edi.U ham xuddi Yesenin kabi ijodda qiyin izlanish yo`llarini o`tdi, yosh qalbining minglab savolariga javob qidirdi. U ham yorug` dunyoni juda erta va bevaqt tark etdi. Yesinin kabi mushkul va chalkash davr girdobida halok bo`ldi.

Usmon Nosir qisqa hayotida to`rt she'riy kitob, bir doston, bir she'riy drama yozib qoldirdi. Pushkinning "Bog`chasaroy fontani", Lermontovning "Demon" asarlarini o`zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Bu kitoblar, ayniqsa shoirning "Yurak" va "Mehrim" deb atalgan ikki she'riy to`plami Usmon Nosir ijodining qo`sh cho`qqisi hisoblanadi.

Yurak sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo`r etding.
Ko`zimga oyini berkitding,
Yurak , sensan ishqibozim,
Senga tor keldi bu ko`krak,
Sevinching toshdi qirg`oqdan,
Tilim charchar, ajib, gohi
Senit arjima qilmoqdan.

Usmon Nosirning "Yurak", "Nil va Rim" kabi she'rlari, "Naxshon" dostoni o`zbek she'riyati xazinasidan joy olgan. Shoir qilgan tarjimalar bu oilyjanob va mushkul san'atning yorqin namunalari sifatida ko`p avlod tarjimonlari uchun mahorat maktabi bo`lib xizmat qiladi.

Usmon Nosir yosh shoirligida hayotni tark etdi. She'riyat ixlosmandlari tasavvurida u mangu yosh bo`lib qoladi. Ining yosh shoirga xos ehtirosli, sodda, samimiy satrlari xalq qalbida uzoq yillar yashaydi.

Erkin Vohidov

MIRZO TURSUNZODA

Mirzo Tursunzoda nafaqat tojik adabiyotining, balki hozirgi zamon sharq she'riyatining zabardast ustunlaridan edi.

U o`zining barakali ijodiy hayotida sharq shoirining siymosini yaratdi, dunyoga ezgulik ko`zi bilan boqqan, tinchlik va taraqqiyot jarchisi bo`lgan, erksevar olamga do`stlik, birodarlik bag`rini keng ochgan, o`z yurti va xalqini jonfido farzand mehri bilan sevgi shoir timsolini yaratdi.

Mirzo Tursunzoda bilan uchrashish baxti menga bir necha bor nasib bo`lgan. 1966-yilda Tojikiston yozuvchilari syezdi kunlarida biz ulug` ustoz

G`afur G`ulom bilan Dushanbeda bo`ldik. Shunda men sharqning ikki ulkan shoirini yonma-yon ko`rganman, ularning bir-biriga mehr to`la nigohlarini tomosha qilganman, har so`zi olam-olam ma'noga to`la suhbatlarini tinglaganman. Bu ikki ustud bir-biriga o`xshamas shoirlar bo`lsa-da, ruhan bir-birlariga yaqin edilar, bu yaqinlik Sa'diy, Hofiz, Hayyom kabi buyuklar haqida so`z ketganda ayniqsa yorqin namoyon bo`lar edi.

Hozirgina biz O`zbekiston tuprog`ida tojik adabiyoti va san'ati kunlarini o`tkqzish uchun kelgan yozuvchilarni, san'atkorlarni kutib oldik. Nazarimizda ular qatorida o`ziga xos mayin tabassumini chaqnatib Mirzo Tursunzoda samolyot zinasida tushib kelganday bo`ldi va miting minbarida o`zining sevimli baytlarini o`qiganday bo`ldi:

To tavoni do`storna gum makun,
Do`stoni mehribonro gum makun…
Joni shirin, toji sar kun do`stro,
Joyi dar mag`zi jigar kun do`stro.

Mirzo Tursunzoda o`zbek xonadonida hamisha sevimli shoir bo`lib qoladi.

Biz uning she'rlarini asl nusxada ham, o`zbek tilida ham sevib o`qiymiz. U faqat kitob javonlarimizda emas, qalbimizda barhayot.

Erkin Vohidov

O`Z QAHRAMONI YANGLIG`…

Men uyda bo`sh qoldim deguncha ustoz Oybekning "Navoiy" romanini qo`lga olaman. Bu ulug` asarni qayta-qayta mutolaa qilishdan men sira toliqqan emasman. Chunki roman meni birvarakayiga xalqimizning ikki buyuk farzandi bilan diydorlashtiradi. Biri Alisher Navoiy bo`lsa, ikkinchisi asar muallifi ustoz Oybekning o`zlaridir. Romanni har gal varaqlaganda deyman: dilida cheksiz insoniylik, beg`ubor go`zallikka tashnalik, haqqa va adolatga so`nmas intilishi bo`lmagan adib bundoq asarni yozolmas edi. Romanda tasvir etilgan Navoiyning har bir ezgu xatti-harakatida men Oybek domlaning o`z qalb to`lqinlarini, xatti-harakatlarini ilg`ayman. G`oyatda bag`ri keng, boladay samimiy, buyuk zakovati ko`zlarida chaqnab turgan Oybek bilan uchrashgan damlarimni men bir umr unutmayman.

Oybek domla dunyodan o`tib ketdilar. Lekin u zotning qalbini-yu fe'li-atvorini bo`lmoqchi bo`lganlar domla asarlaridagi eng ibratli qahramonlarni ko`z oldilariga keltirsalar, menimcha kifoyadir. Oybek domlaning ana shunday qahramonlaridan biri Alisher Navoiydir. Ha, bu qahramon hazilakam siymo emas, u – Alisher Navoiy!

Aabdulla Oripov

VATANPARVAR YIGIT FOJIASI

Taqdiri Shekspir qahramonlarining fojiaviy qismatiga o`xshash daholar o`zbek xalqi tarixida ham ko`p o`tgan. Sargashta Beruniy, eldan-elga quvg`inda bo`lgan Ibn Sino, olim va sulton Ulug`bek, ulug` shoira, ayni vaqtda saltanat sohibasi bo`lgan Nodirabegim, o`tashnafas Mashrab, eh-he, sanayversang bu uzun tarixdan mundoq misollarni ko`plab keltirish mumkin. Shuningdek, bu tarixda na shoir, na olim, na sozanda bo`lgan, biroq yurt uchun jonlarini fido qilgan ne-ne bahodir yigitlar o`tmagan. Ularning safida Mahmud Torobiy-yu Muqannani, Temur Malik-u Nomoz Botirni ko`ramiz. Bu ro`yxatni ham yana davom ettirish mumkin. Xalq xotirasi abadiydir. Umri afsonaga aylangan qahramonlar dostonlarimizda, ertaklarimizda biz bilan birga yashab kelmoqda.

Ustoz Maqsud Shayxzoda ana shunday milliy qahramonlarimizning badiiy obrazlarini yaratish yo`lida ko`p mehnat qildi. Maqsud Shayxzodaning shunday ko`rkam asarlaridan biri ko`pchilikka ma'lum "Mirzo Ulug`bek" tragediyasi bo`lsa, ikkinchisi "Jalloliddin Manguberdi" dramatik fojiasidir. Bu asar o`z vaqtida respublikamiz teatrlarida namoyish etilgan, san'atshunos va adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholangan. Spektakl xususida bildirilgan ko`p sonli fikrlar ichida G`afur G`ulom va Oybek qalamiga mansub taqriz nihoyatda samimiyligi bilan ajralib turadi. Ammo, mazkur dramatik fojia ko`p o`tmay sahnadan g`oyib bo`ldi, u`zoq vaqt biz uchun bedarak asarlardan biri bo`lib keldi. Keyingi paytlarda ushbu fojia Ozarbayjon tiliga o`grildi. Bokuda kitob holida chop etildi. Tarixiy mavzudagi asarlar adabiyotimizda doimo o`z salmoqli o`rnini egallab keldi.

Jaloliddin kelib chiqishiga ko`ra shahzoda bo`lsa-da, o`z vatanparvarlik hatrakatlari bilan O`rta Osiyo xalqlari tarixida unutilmas iz qoldirdi. Xususan, Chingizxon istilosiga qarshi birinchi bo`lib bosh ko`tarib musht tukkan shu yigit bo`ldi. Lekin takror aytamiz, Jaloliddin feodal tuzum farzandi bo`lgani uchun uning keyingi yurushlari ba'zi ellar boshiga kulfatlar ham soldi. Jaloliddin Manguberdi kabi chigal taqdirlar tarixda ko`p uchraydi. Biz ular hayotida o`zimizga kerakli, ibratli o`rinlarinigina qabul qilib olamiz, xolos.

Ustozlar ijodiga – boy adabiy merosimizga hurmat bilan munosabatda bo`lish barchamizning burchimiz. "Jaloliddin Manguberdi" dramatik fojeasi Maqsud Shayxzoda yaratgan yuksak badiiy asarlarning biri bo`lib, Jaloliddin siymosi esa erkparvar insonlarning umumlashma obrazidir.

Aabdulla Oripov

O‘ZBEKCHA – RUSCHA LINGVISTIK ATAMALAR LUG‘ATI

adabiy talaffuz me’yorlari – нормы литературного произношения
adabiy til me’yorlari - нормы литературного языка
adabiy til - литературный языk
ayirish belgisi – твердый знак
ayiruv bog`lovchilari –разделительные союзы
alifbo - алфавит
aniqlanmish - определяемый
aniq nisbat – действительный залог
aniqlik mayli – изявительное наклонение
aniqlovchi - определдение
aniq otlar – конкретные существительны
aniq o‘tgan zamon shakli–очиведное прощ.времени
arab yozuvi – арабская графика
atama – термин
atoqli ot – имя собственное
badiiy uslub - литературный стиль
baynalmilal so‘z – интернациональное слово
belgi - знак
belgilash olmoshlari – определительные местоимения
belgili qo‘llanish - маркированное употребление
belgisiz qo‘llanish - немаркированное употребление
betaraf ma’noli so‘z – нейтральное слово
birgalik nisbat – взаимно-совместный залог
birikma - сочетание
birikuv - сочетаемость
biriktiruv bog`lovchilari –соединительные союзы
birlik son – единственное число
birinchi shaxs – первое лицо
bir ma’noli so‘z – однозначное слово
bitishuv - примыкание
bosma shakl – печатная форма
bosh bo‘laklar – главные члены предложения
bosh kelishik – именительный падеж
boshlang‘ich shakl – исходная форма
boshqaruv - управление
bog‘lovchi - союз
buyruq gap – повелительное предложение
buyruq-istak mayli – повелительно-желательное наклонение

buyruq shakli – повелительная форма
burun undoshi – носовой согласный
bo‘laklar tartibi – порядок членов предложения
bo‘lishli fe’l – утвердительный глагол
bo‘lishsiz fe’l – отрицательный глагол
bo‘lishsizlik olmoshlari - отрицательные местоимения
bo‘g‘iz undoshi – гортанный согласный звук
bo‘g‘in - слог
vergul - запятая
vositali to‘ldiruvchi – прямое дополнение
vositasiz to‘ldiruvchi – косвенное дополнение
gap - предложение
gap bo‘lagi – член предложения
gap boshida – в начале предложения
gap oxirida – в конце предложения
gap tarkibi – состав предложения
grammatik vosita – грамматическое средство
grammatik ma’no – грамматическое значение
grammatik xususiyat – грамматическая особенность
gumon olmoshlari – неопределенные местоимения
davlat tili – государственный язык
daraja-miqdor ravishlari – наречия меры и степени
daraja-miqdor holi – обстоятельство меры и степени
darak gap – повествовательное предложение
dialogik nutq – диалогическая речь
dona son – штучное числительные
yetakchi fe’l – ведущий глагол
yozma nutq – письменная речь
yozma shakl – письменная форма
yozuv - письмо
yopiq bo‘g‘in – закритый слог
yordamchi so‘zlar – вспомогательные слова
jamlovchi - собирательный, -ая, -ое
jarangli undosh – звонкий согласный
jarangsizlanish - оглушение
jarangsiz undosh – глухой согласный
jins kategoriyasi – категория рода
jo‘nalish kelishigi – дательный падеж
juft so`zlar – парные слова
zamon - здесь: временная форма глагола
zamon qo‘shimchalari – окончания временной формы
zid ma’noli so‘z - антоним

zidlov bog`lovchilari – противительные союзы
«y»lashgan tovushlar – ётированные звуки
ibora - выражение, фразеологизм
ijobiy ma’no – положительное значение
izohlovchi – приложение
izohli lugat – толковый словарь
ikkinchi darajali bo‘laklar – второстепенные члены предложения
ikkinchi shaxs – второе лицо
ilmiy atama – научный термин
ilmiy uslub – научный стиль
imlo - орфография
imlo lug`ati – орфографический словарь
imlo qoidalari – орфографические правила
inkor shakl – отрицательная форма
ish-harakat bajariluvchisi – объект
ish-harakat bajaruvchisi – субъект
kasb-hunar atamalari – прорфессиональные термины
kasr sonlar – дробные числительные
kelasi zamon gumon shakli – неопредел.формы будущ.времени
kelasi zamon maqsad shakli – форма намерения будущ.времени
kelasi zamon – будущее время
kelishik kategoriyasi – категория падежа
keng unli – широкий гласны
kesim - сказуемое
kirill yozuvi - кириллица
kirish bo‘lak – вводный член предложения
kishilik olmoshlari – личные местоимения
kuchaytirma sifatlar – усилительные прилагательные
kuchaytiruv yuklamasi – усилительная частица
ko‘makchi - послелог
ko‘makchi fe’l – вспомогательный глагол
ko‘p bo‘g‘inli so‘z – многосложное слово
ko‘p ma’noli so‘z – многозначное слово
ko‘plik kategoriyasi – категория множественности
ko‘plik son – множественное число
ko‘plik shakli – форма множественного числа
ko‘plik qo‘shimchasi – окончание множественного числа
ko‘rsatish olmoshlari – указательные местоимение
ko‘chma ma’no – переносное значение
lab-lab undoshlari – губно-губные согласные
lablashmagan – нелабиализованный
lab-tish – губно-зубной, -ая, -ое

lotin yozuvi – латинская графика
leksik birlik – лексическая единица
leksik qatlam – лексический слой
lug‘aviy ma’no – лексическое значение
lug‘at - словарь
lug‘at boyligi – лексическое богатство
lug‘at tarkibi – словарный состав
lug`atshunoslik - лексикография
mavhum ot – абстрактное существительное
majhul nisbat – страдательный залог
mayl – наклонение
mantiqiy butunlik – логическая целостность
mantiq urg‘usi – логическое ударе6ние
matn - текст
ma’no - значение
ma’nodosh so‘z - синоним
ma’no qirralari – оттенки значения
maqsad ravishlari – наречия цели
maqsad holi – обстоятельство цели
me’yor – норма
milliy til – национальный язык
miqdor sonlar – количественные числительные
modal so‘z – модальное слово
morfologik usul – морфологический способ
morfologik ko‘rsatgich – морфологический показатель
moslashuv - согласование
murakkab olmoshlar – сложные местоимения
murakkab sonlar – сложные числительные
mustaqil so‘zlar – знаменательные части речи
muqobil so‘zlar – эквивалентное слово
negiz - основа
nisbat – залог
nutq a’zolari – органы речы
nutq birligi – единица речи
nutq tovushlari – звуки речи
nuqta - точка
oddiy daraja – положительная стипень
ozaytirma sifatlar – уменьшительные прилагательные
old qo‘shimcha - префикс
olmosh - местоимение
ona tili – родной язык
orttirma daraja – превосходная степень

orttirma nisbat – понудительный залог
ot - здесь: имя существительное
otlashish – субстантивация
ochiq bo‘g‘in – открытий слог
og‘zaki nutq – устная речь
ohang - интонация
payt ravishlari – наречия времени
payt holi – обстоятельство времени
portlovchi undosh – взрывной согласный
ravish - наречиenarechiye
ravishdosh - деепричастие
ravish holi – обстоятельство образа действия
rasmiy uslub – официально-деловой стиль
sabab ravishlari – наречия причины
sabab holi – обстоятельство причины
salbiy ma’no – отрицательное значение
sanoq sonlar – количественные числительные
satr - строка
sinonim qator – синонимический ряд
sintaktik aloqa – синтаксическая связь
sintaktik birlik – синтаксическая единица
sintaktik vazifa – синтаксическая функция
sintaktik usul – синтаксический способ
sirg‘aluvchi undosh – щипящий согласный
sifat – имя прилагательное
sifatdosh - причастие
sodda - простой, -ая, -ое
son – имя числительное
suhbat - диалог
so‘z - слово
so‘z birikmasi - словосочетание
so‘z tartibi – порядок слов
so‘z turkumlari – части речи
so‘z urg‘usi – словесное ударение
so`z yasalishi - словообразование
so‘z-yuklama – слово-частица
so‘zlashuv - разговор
so‘zlashuv uslubi – разговорный стиль
so`zning morfologik tuzilishi – морфологическое строение слова
so‘zning fonetik tuzilishi – фонетическое строение слова
so‘roq - вопросительный, -ая, -ое
so`roq gaplar – вопросительные предложения

so`roq yuklamalari – вопросительные частицы
so`roq olmoshlari – вопросительные местоимения
talaffuz - произношение
talaffuz me’yorlari – нормы произношения
tarjima - перевод
tarz holi – обстоятельство образа действия
tartib sonlar – порядковые числительные
tasdiq shakli – утвердительная форма
taqlid so‘zlar – подражательное слово
taqsim sonlar – разделительные числительные
tahlil – разбор, анализ
teng aloqa – сочинительная связь
teng bog‘lovchilar – сочинительные союзы
tizim - система
til – язык
til birliklari – языковые единицы
til oldi undoshi – переднеязычный согласный
til oldi unlisi – переднеязычный гласный
til orqa undoshi – заднеязычный согласный
til orqa unlisi – заднеязычный гласный
til o‘rta undoshi - среднеязычный согласный
tilshunoslik – языкознание, лингвистика
til belgilari – знаки языка
titroq undosh – дрожащийсогласный
tinish belgilari – знаки препинания
tobe so‘z – подчиненное слово
tovush - звук
tovush birikma – звуковое сочетание
tovush tushishi – опущение звука
tovush o‘zgarishi – изменение звука
tovushga taqlid so‘zlar – звукоподражательные слова
tor unli tovush – узкий согласный
tub - составной, -ая, -ое
tub so‘z – непроизводное слово
turdosh ot – имя нарицательное
turk-run yozuvi – тюркско-руническая графика
turlanish – склонение
tuslanish – спряжение
tuslovchi qo‘shimchalar – окончания спряжения
tutuq belgisi – опостроф
tushum kelishigi – винительный падеж
tushuncha – понятие

to‘ldiruvchi – дополнение
to‘liqsiz fe’l – недостаточный глагол
uzoq o‘tgan zamon – давнопрошедшее время
uyg‘ur yozuvi – уйгурскя графика
umumturkiy so‘zlar – общетюркские слова
undalma – обращение
undov belgisi – восклицательный знак
undov gap – восклицательное предложение
undosh tovush – согласный звук
unli tovush – гласный звук
unli harf – гласная буква
undosh harf – согласная буква
urg‘u – ударение
urg‘uli bo‘lak – ударный член предложения
usul – способ
uchinchi shaxs – третье лицо
uyushiq bo‘laklar – обособленные члены предложения
fe’l – глагол
fe’l ko‘makchilar – отглагольные послелоги
fe’l yasalishi – образования глагола
fonetik o‘zgarish – фонетическое изменение
chama sonlar – приблизительные числительное
chegaralov yuklamasi – ограничительная частица
chet – иностранный, -ая, -ое
chiqish kelishigi – исходный падеж
cho‘ziq – длиный, -ая, -ое
shakldosh so‘z – омоним
shart mayli – условное наклонение
shaxs – лицо
shovqinli undoshlar – шумные согласные
ega – подлежащее
egalik kategoriyasi – категория пренадлежности
egalik olmoshi – притяжательное местоимение
egalik qo‘shimchalari – окончания принадлежности
ergash bog‘lanish – подчинительная связь
ergashtiruvchi bog‘lovchi – подчинительный союз
yuklama – частица
yumshatish belgisi – мягкий знак
yuqori ton – сильный тон
yasama – производный, -ая, -ое
yasovchi qo‘shimcha – словообразовательное окончание
o‘zak – корень

o‘zakdosh so‘zlar – однокоренные слова
o‘zlashgan – заимствованный, -ая, -ое
o‘zlik nisbat – возвратный залог
o‘zlik olmoshi – возвратное местоимение
o‘rin-payt kelishigi – местный падеж
o‘rin ravishlari – наречия места
o‘rin holi – обстоятельство места
o‘tgan zamon davom shakli – многократно-длит.форма прощ.времени
o`tgan zamon maqsad shakli – форма намерения прощ.времени
o`tgan zamon – прошедшее время
o‘timli fe’l – переходный глагол
o‘timsiz fe’l – непереходный глагол
qavs – скобки
qaratqich kelishigi – родительный падеж
qaratqichli aniqlovchi – притяжательное определение
qatlam – слой
qoida – правила
qomusiy lug`at – энциклопедический словарь
qonuniyat – закономерность
qiyosiy daraja – сравнительная степень
qisqa – короткий, -ая, -ое
qo‘shimcha – окончание, суффикс
qo‘shma gap – сложноекпредложение
qo`shma so`zlar - сложные слова
qo‘shma – сложный, -ая, -ое
qo‘shimcha ma’no – дополнительное значение
qo`shtirnoq - кавычки
harakat nomi – имя действия
harf – буква
hisob so‘zlar – нумеративы
his-hayajon gap – восклицательное предложение
hozirgi adabiy til – современный литературный язык
hozirgi zamon davom shakli – настоящее вр.данного момента
hozirgi zamon – настоящее время
hozirgi-kelasi zamon – настоящее-будущее время
hokim so‘z – главное слово
hol – обстоятельство
holat ravishlari – наречия образа действия

MUNDARIJA

So`zboshi……..3

O`zbekiston Respublikasi va uning davlat ramzlari haqida matnlar
O`zbekiston……4
O`zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi……5
O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`i……..5
O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi……6
O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat tili haqida……7
Q`zbek tili – davlat tili…….9
Lotin yozuvi asosidagi yangi o`zbek alifbosi……..10

A'anaviy matnlar
Alp Er Tunga……..11
Spitamen…….12
To`maris…….12
Shiroq…….13
Urxun-Enasoy bitiklari……14
Muso al-Xorazmiy……..15
Ahmad Farg`oniy……16
Hadischi vatandoshlarimiz……..17
Forobiy……..19
Abu Rayhon Beruniy…….20
Abu Ali ibn Sino……21
Mahmud Koshg`ariy……..22
Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy……..23
Ahmad Yassaviy……25
Mahmud Zamaxshariy……26
Bahovuddin Naqshband…….28
Sohiqiron Amir Temur……29
Lutfiy……..31
Mirzo Ulug`bek……..32
Alisher Navoiy……...34
Kamoliddin Behzod.……...35

Zahiriddin Muhammad Bobur…….36
Nodira……37
Abdulla Qodiriy…….38
Cho`lpon……39
G`afur G`ulom……...40
Oybek……41
Abdulla Qahhor…….42
Erkin Vohidov……..43
Adulla Oripov……..44

Erkin mavzulardagi matnlar

Toshkent……45
Samarqand…….46
Dam olish kuni……48
Mening ish kunim……49
O`zbekistonning o`simliklar dunyosi……..50
Kutubxona…….51
O`zbekistonning hayvonot olami……53
Bozorda…….54
Salomatlik – tuman boylik…….55
Yil fasllari……..56
Milliy va zamonaviy bayramlar……..58
Sharafli kasb……59
O`zbekiston kinosi……61
O`zbek kurashi……..62
Samarqand davlat universiteti…….63

Badiiy matnlar

Ibn Sino va kitoblar……..64
Insonning qadr-qimmati bilim bilan belgilanishi haqida……..66
Tilning fazilatlari, foyda va zararlari haqida(Yusuf Xos Hojib)……..…….67
Mening o`g`rigina bolam(G`.Gulom)……..68
Afandi o`lmaydigan bo`ldi(G`.Gulom)……72
Mulla Nasriddin Afandi va Shayton alayh ul-la’na(G`.Gulom)……..77
Bemor(A.Qahhor)……..80
Adabiyot muallimi(A.Qahhor)…….82

Ilmiy-ommabop matnlar

Aruz vazni……..84
Sergey Yesenin(E.Vohidov)……85

“Yurak, sensan mening sozim” (E.Vohidov)……...85
Mirzo Tursunzoda haqida so`z(E.Vohidov)……86
O`z qahramoni yanglig`…(A.Oripov)…….87
Vatanparvar yigit fojuasi`(A.Oripov)……..88
O`zbekcha-ruscha atamalar lug`ati……..89